

M.I. ISRAIL, L.I. TASHMUXAMEDOVA

NOTIQLIK SAN'ATI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

M.I. ISRAIL, L.I. TASHMUXAMEDOVA

NOTIQLIK SAN'ATI

O'QUV QO'LLANMA

5220100 – Jurnalistika (faoliyat turlari)
5A220104 – Noshirlik ishi va muharrirlik
5220101 – Oliy jurnalistika kurslari mutaxassisliklari uchun

**TOSHKENT
«NOSHIR»
2019**

44

UO•K: 808.51(075.8)

83.7ya73

I-82

Mas'ul muharrir:	f.f.n., dots. M.S.Mirsoatova
Muharrir:	f.f.n. dots. R.X.Abdusattorov
Taqrizchilar:	S.I.Mahmudova f.f.n., dots. R.X.Abdusattorov f.f.n., dots.

Israil, Mukaddas Irgashevna.

Notiqlik san'ati [Matn]: o'quv qo'llanma / M. I. Israil, L. I. Tashmuxeimedova. - Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019. - 152 b.

KBK 83.7ya73

Ushbu o'quv qo'llanma notiqlik san'ati, notiqlik mahoratini egallash sirlari, nutq madaniyati va notiqlikda lisoniy, nolisoniy omillardan foydalanish, nutqning ta'sirchanligini ta'minlovchi vositalar va ularning jurnalistika ta'limdagi ahamiyati, nutqning milliy mafkurani shakllantirishdagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan.

Qo'llanma jurnalistika yo'nalishi bakalavrlariantlar, ixtisoslik bo'yicha magistrantlar va Oliy jurnalistika kurslari tinglovchilari, "Notiqlik san'ati", "OAVda yozma matn. Nutq va munozara", "Nutq madaniyati" fanidan ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar olib boruvchi professor-o'qituvchilar, murabbiylar, rahbarlar uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Uslubiy kengashning 10.06.2015 yildagi 19-sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi (4-sonli bayonnoma).


ISBN 978-9943-5485-1-0

© M.I. Israil,
L.I. Tashmuxeimedova, 2019.
© «Noshir» nashriyoti, 2019.

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishida “badiiy, ma‘rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta‘lim muassasalarini ta‘minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyondalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etilmaganligi ta‘kidlangan. Mazkur Farmoyishning ijrosi xalqimizning, xususan yosh avlodning ma‘naviyati va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. “Internet asri”da yoshlarni dunyoqarashni toraytiruvchi ijtimoiy tarmoqlar, miyani “zanglatuvchi”, bir xil fikrlashga undovchi saytlardan uzoqlashtirib, mulohaza yuritishga, tahlil qilishga, adabiy didni shakllantirishga ko‘nikma hosil qiluvchi nodir, mazmunli kitoblarga oshno qilishimiz darkor. Ushbu o‘quv qo‘llanmamiz shu ma‘noda hozirgi zamon talablariga javob beruvchi o‘quv adabiyoti vazifasini o‘taydi deb umid qilamiz.

Mazkur o‘quv qo‘llanmaning yangiligi va dolzarbligi shundaki, shu kungacha jurnalistika fakulteti bakalavriantlari uchun “OAVda yozma matn. Nutq va munozara” fanidan, magistrantlar va Oliy jurnalistika tinglovchilari uchun “Nutq madaniyati” fanidan o‘quv adabiyoti yaratilmagan. Mazkur kitobni yozishda ilg‘or xorijiy tajribadan foydalanilgan. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda auditoriyada va auditoriyadan tashqari (mustaqil) o‘rganishga mo‘ljallangan materiallar keltirilgan. Interfaol uslublardan foydalangan holda tashkil etiladigan treninglar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iste‘dod” jamg‘armasida tashkil etilgan “Innovatsion pedagogik texnologiyalar” kurslarida aprobatsiyadan o‘tgan.



Notiqlik san'ati - ishontirish usullarini o'rgatuvchi fanlar bo'lib, auditoriya fikrlarini, e'tiqodlarini o'zgartirishga imkoniyat beruvchi ta'sir etish usullarini o'rgatadi. Munozara jarayonida ishontirish shunday qiziqarli jarayonki, nutq madaniyati va notiqlik mahorati yuqori bo'lsa, ommaga o'ta murakkab yoki mavhum g'oyalarni singdirish mumkin. Biroq, shunday insonlar uchraydiki, ularni "ikkiga ikkini ko'paytirsang to'rt bo'ladi" – oddiy matematik haqiqat deb ishontirishning ilojisi bo'lmaydi.

Ko'plab hollarda inson o'z dunyoqarashini o'zgartirishni istamaydi, chunki dunyoqarashni o'zgartirish xatti-harakatni, turmush-tarzinini o'zgartirishga olib keladi. Nutqiy harakat madaniyati muammosi to'rt savolga javobni qamrab oluvchi sohada mujassamlashgan. Bular:

1. Nima maqsadda so'zlaymiz?
2. Nima demoqchimiz?
3. Qanday vositalar yordamida so'zlaymiz?
4. Nutqimizga munosabat qanday?

Birinchi savolga javob - nutqimiz maqsadini, ikkinchisiga javob – bo'lajak nutq g'oyasini, uchinchisiga javob - nutqning (yozma yoki og'zaki) muayyan matnini, to'rtinchisiga javob – tinglovchilar munosabatining notiq tomonidan qo'yilgan maqsadga muvofiqligini aniqlaydi. Demak, nima so'zlashimiz muhim ahamiyat kasb etadi, ammo qanday so'zlashimiz (qaysi vositalar bilan) yanada muhimroq. Faqat bir inson, ya'ni bir shaxs nutq manbasi bo'la oladi. Inson emas, uning shaxsi so'zlaydi. Ya'ni, muayyan nutqda notiq shaxsi shifrlangan bo'ladi. O'quv qo'llanmada biz notiqlik san'atini egallashda na faqat til va nutq me'yorlarini bilish va ularga rioya qilish (bu, birinchi navbatda, "Nutq madaniyati" fani vazifasiga kiradi), balki ma'naviy barkamollikka intilish, inson ruhiyatini bilish muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaymiz. Shu ma'noda, biz notiqlik sirlarini o'rganishda e'tiborni asosan ma'naviyatga qaratdik.

Umid qilamizki, nutq madaniyati va notiqlikka oid mulohazalarimiz risolamiz o'quvchilari qalbidan o'rin oladi.

I BOB. NOTIQLIK SAN'ATINING TARIXIY TADRIJI

NOTIQLIK SAN'ATI TARIXI VA IJTIMOIIY AHAMIYATI

Notiqlik – san'atning eng qadimgi turlaridan biridir. Ko'plab fanlarning beshigi bo'lgan qadimgi Yunoniston notiqlik san'ati sohasida ham jahon madaniyati tarixining eng yorqin sahifalarini yaratdi.

Yunon notiqligining eng qadimiy sarchashmalari haqida deyarli hech bir yozma ma'lumot qolmagan. Notiqlik san'ati haqidagi ilk ma'lumotlarni esa faqatgina Gomer (eramizdan oldingi XII asr) «Iliada» va «Odissey» nomli dostonlaridan olish mumkin.

Gomer dostonlari ma'lumotiga qaraganda qadimgi Yunoniston tuprog'ida eramizdan avval, ana shu davrlarda, Nestor, Menelay, Odissey, Axill kabi bir talay mashhur notiqalar bo'lganlar. Gomer turli voqyealar tasviri jarayonida yo'l-yo'lakay eslab o'tgan yuqoridagi to'rtta notiqalarning notiqlik san'atining 4 ta yo'nalishga mansubligi, ulardan ayrimlarining esa maxsus notiqlik maktablarida tahsil olganliklarini qayd etadi.

Sud ishlarida o'rnatilgan tartib notiqlik san'atining yuksalishiga katta bir turtki bo'ladi. Sud jarayonida da'vogar ham, himoyalanuvchi ham – har biri o'z manfaatini himoya qilish uchun kurashardi. Sud hukmining qaysi tomon foydasiga hal bo'lishi ko'pincha sudlanuvchi shaxs yoki da'vogarning notiqlik san'atidagi mahoratiga bog'liq edi. Qay tomon o'zining mantiqiy, asosli dalil va ma'lumotlari bilan sud hay'atini ishonтира

olsa, hukm o'shaning foydasiga chiqarilar edi. Lekin hamma sudlanuvchi yoki da'vogarlar ham yetuk notiq bo'lgan raqiblari-ning tazyiqlariga dosh berishlari qiyin edi. Shuning uchun ham antik sud tizimining qoidalariga ko'ra bunday kishilarga u yoki bu kishi nomidan so'zlovchi notiqlardan yordamchi olishga ruxsat berilardi. Sud jarayonida boshqa birov manfaatini ko'zlab, nutq so'zlovchi ana shu toifadagi notiqlarga sinegorlar deyilib, ularning nutqi sinegoriya deb atalardi. Bora-bora esa ana shu sinegorlar toifasidan sud hay'atining ajralmas qismi bo'lgan hozirgi tushunchadagi advokatlar kelib chiqdiki, bu ma'noda sinegorlar instituti chinakamiga ijobiy, demokratik rol o'ynadi, deb aytish mumkin. Yunoniston - jahon notqlik san'atining yirik namoyandalarini yetkazib berdi. Perikl, Lisiy, Demosfen, Aristotel ana shular jumlasidandir.

Yunonistonda bo'lganidek, Rimda ham notqlikning, asosan, uch turini ko'rsatish mumkin: sud notqligi - oqlovchi va qoralovchi, siyosiy notqlik, maqtov notqligi. Bulardan tashqari, Yunonistonda bo'lganidek, notqlik san'atini o'qitish uchun xizmat qiluvchi o'quv-mashq notqligi ham mavjud edi.

Rimda urushning kuchayib ketganligi harbiy sarkardalar nutqining rivojlanishiga ham imkon berdi. Rimda urushning kuchayib ketganligi harbiy sarkardalar nutqining rivojlanishiga ham imkon berdi. Rimlik notqlardan biri eramizdan ilgari III–II asrlarda yashab o'tgan davlat arboblari Mark Partius Kato yoki Katondir. Katon notiq sifatida nutq san'ati nazariyasi va amaliyoti masalalari bilan maxsus shug'ullangan. Keyinchalik Rimda aka-uka Tiberiy va Kay Grakx, Mark Antoniy, Mark Tulliy Sitseron kabi taniqli qator notqlar yetishib chiqadiki, bular ichida eng buyuk va so'zamoli notiq Sitseron edi. Sitseron va Demosfen qadimgi notqlarning eng buyuklari edi. Demosfen ko'proq o'zining siyosiy notqligi bilan shuhrat topgan bo'lsa, Sitseron sud notqligi bilan tanildi. Albatta, Sitseron nutqlari siyosiy jihatdan ham kuchli edi. Rimda, umuman, siyosiy tomonni chetlab o'tgan birorta ham yaxshi notiq bo'lmagan.

Sitseronning notiqlik san'ati nazariyasi va tarixiga oid 3 ta asari ma'lum: «Notiqlik haqida», «Notiq» va «Brut» (yoki «Taniqli notiqlar haqida»).

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi ham qadimdan so'zga chechan, badiiy didli kishilarni qadrlab kelgan. O'sha davrda notiqlik san'ati - voizlik, notiqlar - voiz, nutq esa, va'z deb atalgan. O'rta Osiyo xalqlari, xususan, IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, yetakchi saflarida turish darajasiga ko'tarila oldi. O'rta asr fani, madaniyati Xorazmiy, Farg'oniy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Koshg'ariy, Jomiy, Navoiy, Bobur kabi ulug' siymolarning nomlari bilan tavsiflanadi. Bu mutafakkir, shoir, san'atkorlar yashagan davr Sharq tarixida "Uyg'onish davri" deb ataldi. Bu davrda madaniyat, san'at, ilm - fan ravnaq topdi. Fan va madaniyat targ'ibotchilari - voizlar yetishib chiqdi. Voizlikni qadrllovchi fikrlar vujudga keldi.

Kaykovusning XI asr Sharq pedagogikasi tarixida g'oyat qimmatli asarlar qatorida turuvchi «Qobusnoma»sida ham notiqlik sharhlari uchun alohida bob ajratilganligi bu san'atga bo'lgan, uning san'atkoriga bo'lgan qiziqishning orta borganligini ko'rsatadi. «Qobusnoma»ning «Suxandonlik bilan baland martabaga ega bo'lish haqida» deb nomlangan yettinchi bobida va hunarni egallashga bag'ishlangan oltinchi bobida notiqlik sirlariga doir bildirilgan mulohazalar nafaqat o'sha davrda, balki hozirda ham katta ahamiyatga ega.

Kaykovus hamma hunarlar ichida so'z hunari-notiqlikni a'lo deb biladi. U notiqlikni egallashning yo'li, birinchidan, «tinimsiz mehnat, o'rganishdir», deydi. Ikkinchidan, - nutqning go'zal bo'lsin, - deydi. «So'zning ikki tomoni bordir: biri go'zal tomoni, ikkinchisi xunuk tomonidir. Xalq oldida gapiradigan so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin». Uchinchidan, har bir fikrni ifodalashda tinglovchi qalbiga to'g'ri yo'l topa bilish, shaklga e'tibor berish masalasi. To'rtinchidan, har bir so'z to'g'ri va asosli bo'lmog'i lozimligini uqtiradi. Beshinchidan, har bir nutq ma'lum ilmiy asosga ega bo'lsagina, ta'sirchan

bo'ladi. Ya'ni nutq qaratilgan predmetni yaxshi o'rganib chiqish lozimligini ta'kidlab: «Bilmagan ilmdan gapirmagil... Bilmagan ilm ma'rifatni bilaman deb, da'vo qilsang hech narsa hosil bo'lmaydi va behuda zahmat chekasan», - deydi... Nutqni egallashdan maqsad xalq diliga yo'l topa bilishdir, deb biladi muallif va «agar ko'ngillarga sevimli bo'lishni istasang, xaloyiqning maqsadini so'zla», - deydi.

Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» nomli falsafiy asarining 24-faslini «Nasihat ahli va voizlar zikrida» deb ataydi va bunda voizlik san'atiga, va'zga, voizga o'z munosabatini bildiradi.

Tarixdan ma'lumki, G'arb va Sharq davlatchiligida notiqlik san'ati har vaqt siyosiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan. Temur va temuriylar davlatida ham notiqlik san'ati — so'z san'atiga jiddiy e'tibor berilgan, notiqlik maktablari ochilgan. Amir Temur ham tengi yo'q notiq bo'lgan. «Temur hayoti» asarida Temurning notiqligiga katta baho berilgan, uning ovozi «jarangdor va shirali...» bo'lganligi haqida yozilgan. Temur nutq so'zlaganda «qarashlari o'tli, yoniq, ovozi yoqimli, jarangdor». O'tkazgan kengash va qurultoylarda so'zlab, o'z notiqlik san'ati, ya'ni o'zining ta'sirchanligi, mantiq kuchi, ixchamligi, yuksak ma'naviyati, ifodaviy qudrati bilan hammani lol qoldirgan, so'zlagan vaqtida qo'l harakatlari ham g'oyat aniq, mazmunga muvofiq bo'lgan. U o'z nutqlarida muntazamlikka, ma'nodorlik va uzviylikka alohida e'tibor bergan, unda bayon qilingan murakkab fikrlar, dalil va isbotlar bilan yoritilib va oydinlashtirib berilgan. Sohibqiron nutqlari o'xshatishlarga boy, maqol va matallarga o'rnida murojaat qilishi bilan qiziqarli bo'lgan, tantanavorlik kashf etgan. Bunday majlislarda davlat arboblari, qo'mondonlar, olim va fuzalolar, adabiyot va san'at ahlari qatnashganlar. Sohibqiron davlat ishlari va harbiy yurishlardan horigi kezlarida shoirlarning yangi she'rlarini, voizlarning yangi hikoyalarini, sozanda va hofizlarning hazin kuylarini tinglashni sevgan, she'r o'qishda uning tengi bo'lmagan. Bu haqda Alisher Navoiy «Majolisun — nafois»da: «... to olam ahli bilg'aylarkim sulton Sohibqirongakim, majlisda paydarpay xub abyot va yax-

shi soʻzlar darmahal voqiʻ bulur...” “... nazm va nasrni andoh xub mahal va movqyeʻda oʻqubdirlarkim, aningdek bir bayt oʻqigʻoni, ming yaxshi bayt aytkoncha bor” deb yozadi. Maxsus aytishuvlar, bazmlar uyushtirish yoʻli bilan birga, oʻz ijodlari orqali, ona tilini saqlabgina qolmay, uni muayyan darajada rivojlantirishga erishganlar. “Zafarnoma”ning koʻrsatishicha, Jahongir davlatni boshqarishda ilm-fan vakillariga, donolarining maslahatiga suyangan. Olim va fuzalolar kengashida nutq soʻzlagan va unda “fan va dinning mashhur kishilari oʻz maslahatlari bilan podshohlarga yerdam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmaysizlar. Mening maqsadim mamlakatda adolat oʻrnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaro turmushini yaxshilash, yurtimizda qurulishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir... Mamlakatda xotirjamlik oʻrnatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifamizdir” degan ekan. Amir Temurning davlat ishlarini tartibli yuritishi va fuqarolar manfaatini qoʻllashi xususida bunday yozilgan: ”U saidlarni eʼzozlab, karomat sohiblari (boʻlgan) avliyolarni izzatu ikromli qildi, ilm-u fan va uning ahlilarining hurmatini oshirib, muruvvatini sohib, maktablarini ulugʻladi...” Davom ettirib yana shunday yozilgan: “Temur olimlarga mehribon boʻlib, sayidu shariflarni oʻziga yaqin tutardi. Ulamolar va fozillarga toʻla-toʻkis izzat koʻrsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam koʻrardi. Ularning har birini oʻz martabasiga qoʻyib, oʻz ikromu hurmatini unga izhor etardi. Ularga nisbatan oʻz muruvvati bisotini yoyardiki, bu muruvvat uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs ham yuritar ediki, bu baxsida insofu xishmat boʻlardi... Temur har qanday hunar va kasb boʻlmasin, unda biron fazilat va sharafat boʻlsa, shu kasb egalariga gʻoyatda mehr qoʻygan edi”. [6] Temuriylar davrida Oʻrta Osiyoda maydonga kelgan buyuk tarixiy shaxslar jahon taraqqiyotiga katta hissa qoʻshganlar. Movarounnahr madaniyati, ilm-fani, ayniqsa, Ulugʻbek zamonida yana yuksak choʻqqilarga koʻtarildi. XIV asrning yigirmanchi yillaridayoq Ulugʻbek Movarounnahr, Oʻrta va Yaqin Sharqda

buyuk olim va madaniyat homiysi sifatida tanildi. Natijada ilm-fan bilan bir qatorda adabiyot, xattotlik, musavvirlik, musiqa va raqs san'ati yana taraqqiy qilib ketdi. Ulug'bek faqat fan bilan mashg'ul bo'lib qolmay, she'riyat va san'at bilan ham qiziqar, mushoiralarda qatnashar, bu bilan san'at va adabiyot taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shar edi. Mizo Ulug'bek vafotidan so'ng, Xuroson, Sharqiy va Shimoliy Eron hududida Temuriylarning so'ngi yirik davlati hukmronlik qila boshlagan edi. Davlat boshida sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy turdilar. Bu davrda juda ko'p fan, adabiyot, san'at ahlari to'plangan va beqiyos iste'dodlar yetishib chiqqan edi. Bu oqim va ko'tarilish hammadan avval Alisher Navoiy va Xusayn Boyqaro ijodi va faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan. Ular ma'rifiy davlat yaratishdagi Amir Temur an'alarini davom ettirish bilan bir qatorda, o'zlarining butun ongli hayotlarini, ijod va tafakkurlarini ilm-fan, adabiyot va san'at taraqqiyotiga bag'ishladilar, turk tilining adabiyotda butunlay g'alabasini ta'minladilar. Shu yerda, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini keltirib o'tish joizdir. Bobur o'z asarini turkigo'ylarning jonli, so'zlashuv tili, iboralari, maqollaridan keng foydalangan holda yozgan bo'lib, hammaga tushunarli, qiziqarli chiqishini ko'zlagan, tili sodda, ixcham, tejamli, lug'atga hojat yo'q. Shu jihatdan, "Boburnoma" o'sha zamonda badiiy ixtiro edi. Asarning eng muhim fazilati — bu rostgo'ylikdir. Mamlakatimiz tarixi juda boy, teran va mazmunlidir. Lekin unda qora va mungli sahifalar, tushkunlik, jaholat hukm surgan davrlar ham bo'lgan, ammo aksar zamonlarda ota-bobolarimiz, salaflarimiz o'qimishli, ma'rifatli, madaniyatli, nafosatni chuqur anglagan, sezgan kishilar bo'lishgan. Ular ilmli bilimli insonlarni qadrini baland tutganlar. Inson — bu dunega yaxshilik qilish uchun, o'zining va boshqalarning boshlaridan nafosat va ma'rifat nurlarini sochish uchun keladi deb bilganlar. Boboqalonimiz Amir Temur jahon tarixida kam uchraydigan, uzoqni ko'ruvchi buyuk davlat arbobi bo'lgan. XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr boshida Movarounnahrda milliy birlikni yuzaga keltirgan mus-

taqil davlatga asos solgan, o'rta asr uyg'onish davri madaniyati, ilm-fani, san'ati taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan, uning benazir homiysi bo'lib tanilgan bu ulug' zot nomi asrlar osha avlodlarning faxri va iftixori bo'lib qoladi. Amir Temurning siyosiy, ijtimoiy faoliyati, falsafiy qarashlari jahon olimlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Temur va temuriylar davri madaniyatiga aloqador manbalarning kamchiligiga, asrlar mobaynidagi o'zaro urushlarni, to'polonlarni, tabiiy ofatlarni sabab qilib ko'rsatsa bo'ladi, bundan tashqari, saqlanib qolgan minglab qo'lyozmalarning hali to'liq o'rganilmaganligidir. Dunyo muzeylaridagi manbalarning, hujjatlarning barchasi tarjima qilinmagan. O'rta Osiyo tarixining bu yorqin sahifalarini o'rganish, uni barchaning ma'naviy mulkiga aylantirish hozirgi kunning muhim vazifasi bo'lib qolmoqda, chunki bu davr madaniyati, ilmu-fani, san'ati, badiiy-estetik qadr-qimmatini hali bugungacha chuqur va to'la o'rganilmagan.

"Bulardan tashqari, notiqlik san'atining rivoji adabiy tilning shakllanishiga, notiqlik san'ati nazariyasidan iborat bo'lgan "Ritorika" ilmining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Rimdagi barcha shoirlar va notiqlar shu maktabdan, ya'ni ritorika maktabidan ta'lim olganlar".¹

Notiqlar tomonidan yaratilgan matnlar nasriy va poetik ijod namunasi bo'lib, Aristotel, Demosten, Sitseron kabi ijodkor notiqlarning nomi jahonga mashhur bo'lgan.

Buyuk olim "Poetika" nomli mashhur asaridan so'ng, 330 yilda Afinada "Ritorika" kitobini yozadi. Anaksemen "Ritorika" nomli qo'llanma, Lampsak ham shu nomdagi chiroyli so'zlash nazariyasi bo'yicha ilmiy mulohazalardan iborat asar yozgan edi. Aristotel esa, "Ritorika" asarini uch kitobdan iborat qilib yaratadi. Chiroyli so'zlash, ishontirish metodlari haqidagi fikr-mulohazalar birinchi va ikkinchi kitobda bayon etilgan bo'lsa, uchinchi kitobda nutq mantiqiga katta e'tibor beriladi.

Olimning fikricha, notiq tilidagi turli "qorishmalar", ya'ni so'zlarning noto'g'ri va noo'rin talaffuz qilinishi, jumalarning

¹ Oripov Q., Obidova M. Ifodali o'qish. -T.:O o'qituvchi, 1991.-16-b.

mantiqan har xil tuzilishi so'zlovchining katta xatosidir. Bunda har bir jumla asosiy fikrni ifoda etishga qaratilishi, ravon va tinglovchi tushunadigan darajada sodda bo'lishi talab etiladi. Olim notiqning hissiyot bilan so'zlashi, mulohaza yuritayotgan fikrining tinglovchi qalbiga tez yetishida muhim omil bo'lishini alohida uqtiradi. Aristotel notiqning jamoani o'ziga jalb etishi uchun hazil-mutoyiba so'zlar bilan lirik chekinish qilib, tinglovchilarni hayajonlantira bilishi zarurligini, agar turli ko'rgazmali qurollardan foydalansa, badiiy vositalardan epitet, chog'ishtirish, metaforalarni qo'llasa, nutqining ta'sirchanligi yanada oshishini, ammo keltirilgan misollar ko'payib ketib, tinglovchini zeriktirib qo'ymasligi kerakligini ham ta'kidlaydi.

Aristotel notqlik san'atini egallashni 5 qismga bo'lib o'rgatadi:

1. Materialni kashf etish (har tomonlama tayyorlash).
2. Materialni joylashtirish shakli (rejasi).
3. Materialni eslab qolish (o'zlashtirish).
4. Materialni so'z yordamida to'g'ri aks ettirish.
5. Materialni to'g'ri talaffuz etish.

Eramizdan avvalgi 384 yilda Afinada dunyoga kelgan buyuk notiq Demosfen o'z umrini vatanining gullab-yashnashiga bag'ishlagan ulug' davlat arbobi edi. Otasining ismi ham Demosfen bo'lib, qurol-yaroq ustaxonasining egasi edi. Bo'lajak notiq 5 yoshga to'lganida otasi vafot etadi. Demosfen va singlisiga otasidan katta meros qoladi. Ammo ular kichkina bo'lganligi sababli meros va bolalar tarbiyasi tog'asiga topshiriladi. Barcha boyliklarni qo'lga kiritgan tog'asi Demosfen tarbiyasi bilan qiziqmaganligi uchun u nimjon bo'lib o'sadi. Bo'lajak notiq voyaga yetgach merosni tog'asidan talab qiladi. Ammo tog'asi unga merosni to'liq qaytarib bermaydi. Merosni tog'asidan to'liq ololmagan Demosfen uni sud orqali undirib olishga qaror qiladi. Sudda muvaffaqiyat qozonish uchun Afina davlati qonunlarini, ravon so'zlash, davosining to'g'riligiga kishilarni ishortirish uchun notqlik san'tini o'rganadi. Zamonasining meros ishlari bo'yicha mashhur advokati bo'lgan Isey maktabida

4 yil ta'lim oladi. Eramizdan oldingi V asrda yashagan, Pelopan urushida ishtirok etgan va uning tarixini yozgan Afina tarixchisi Fukidid, faylasuf Platonning asarlarini puxta o'rganadi. Fukidid asarlarini 8 marta qayta ko'chirib yodlab oladi. O'qishni tugatgach, vasiylari bilan sudlashadi va sud 5 yil davom etadi. Dastlab bo'lajak notiq muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Chunki uning tovushi juda past bo'lib, biroz duduqlanar, "r" harfini talaffuz etolmas, mujmal gapirar edi. Avval boshqalarga sudda so'zlanadigan nutqning matnini yozib beradi. So'ng o'z nutqi ustida tinimsiz ishlaydi. Yoqasini qimirlatib turish odati bo'lib, ko'pchilik orasida o'zini to'g'ri tuta bilmas edi. Demosfen bu kamchiliklarni astoydil tugatish uchun ter to'kib ishlaydi. Birinchi, ikkinchi nutqi ayanchli holda tugaganligi sababli uzoq muddatli tinimsiz mashq qiladi. Mana shu mehnatlari samarasida mashhur notiq bo'lib yetishadi. Lekin, hech qachon tay-yorgarliksiz nutq so'zlamaydi, oldindan yozib qo'yilgan matnni yodlab olar, har bir so'z ustida puxta o'ylar, jummalarni aniq va chiroyli tuzishga harakat qilar edi. U hech vaqt bo'lmag'ur safsatalarni yoqtirmas, xotirjamlik bilan tinglovchilarning fikrini o'ziga tortar edi. 30 yoshli Demosfen davlat ishlarida ham faol qatnashadi. Vatanining dushmani — makedoniyalik podsho Filipga qarata nutq so'zlaydi. Afina Makedoniya rahbarligiga o'tgach uning dushmanlari bosh ko'taradi. Xalq partiyasi Demosfenning vatanparvarligini qadrlab, uni "Oltin gulchambar" bilan taqdirlashga tavsiya etgan edi. Bu qarorga Makedoniya tarafdorlari qarshi chiqadi. Mashhur notiq Esxil majlis qarori ustidan sudga ariza yozadi va Demosfenni qoralab so'zga chiqadi. "Gulchambar"ni himoya qilish maqsadida so'z olgan Demosfen Vatanining gullab-yashnashi uchun tinmay kurashganini, Esxilning sotqinligini yorqin nutqida obrazli tarzda tasvirlab beradi. Sud hukmiga ko'ra Esxilga katta miqdorda jarima solinib, Afinadan badarg'a qilinadi.

Mark Tuly Sitseron eramizdan oldingi 103 yilda Rimdan uzoq bo'lmagan Arpina shahrida badavlat oilada dunyoga keldi. Otasi uning yaxshi ta'lim-tarbiya olishi uchun Rimga ko'chib

keladi. Yunonistonning mashhur soʻz ustalari Lisiniy Krass va Mark Antoniy kabi notiqlardan soʻz sanʼatining nozik sir-asrorlarini oʻrganadi. Shuningdek, u Ezop va Rossiy kabi aktyorlardan ham taʼlim oladi. 25 yoshida 1-marotaba xalq oldida nutq soʻzlaydi. Biroq, uning nutqiga davlat boshliqlaridan Sull hamda Katt ismli mashhur notiq qarshi chiqadi. Shundan soʻng u falsafa va ritorika ilmlarini chuqurroq oʻrganish maqsadida zamonasining mashhur notigʻi Antonio Askolanskiydan taʼlim oladi. Kichik Osiyoning bir qancha shaharlarini ilm oʻrganish uchun kezip chiqadi.

Oradan koʻp oʻtmay, mashaqqatli mehnat samarasi sifatida uch kitobdan iborat “Notiqlar haqida” asari dunyoga keladi. Mazkur asar dialog shaklida yozilgan boʻlib, Lisiniy Krass, Mark Antoniy Yuliy Sezar, Strabon, Katull, yurist Stsevola va uning shogirdlari Katt, Sulnisiy Ruflarning ijtimoiy va siyosiy nutqlari, ularning notiqlik sanʼati hamda bu sanʼatning eng muhim masalalaridan tortib siyosiy muammolargacha boʻlgan qimmatli fikr-mulohazalarni oʻz ichiga oladi.

Notiq davlat ishlarini chuqur tushunadigan, xalq qaygʻusiga hamdardlik qiladigan davlat arbobi boʻlishi kerakligi uqtiriladi. Shuningdek, Sitseron notiqlarning odamlar diliga qoʻrquv, gʻazab, qaygʻu sola bilishi, baʼzan hayajonli holatlardan kishilarni xalos qilib, ularning ruhida xotirjamlik, mehr-shafqat hislarini uygʻota bilishi kerak, degan fikrni ilgari suradi.

Sitseron “Brut”, “Notiq” kabi asarlarida Rim notiqlik sanʼati tarixi haqida fikr yuritadi. Notiqning asosiy maqsadi - tinglovchi zavqini uygʻotib, oʻziga moyil qilishdan iborat. Sitseron fikricha, kimki joʻn narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida oʻrta darajada, ulugʻ hodisalar haqida shavq-zavq bilan gapirsa, shu odam soʻz sanʼatining chinakam ustasi boʻlishini alohida taʼkidlaydi.

Poeziya tilining vazni va ohangdorligi, uzun va qisqa hijolarning, unli va undosh tovushlarning almashinuvi, bir soʻzning oxiri va ikkinchi soʻzning boshida ikki unlining qator kelishiga yoʻl qoʻymaslik, soʻzlarni toʻgʻri talaffuz etish, grammatik qoi-

dalarga e'tibor kabi muhim masalalar ham notiq asarlarida o'z ifodasini topgan. Sitseron fikricha, notiq quyidagi xislatlarga ega bo'lmog'i lozim:

1. Notqlik o'zi juda dadil va aytgan gaplariga amin bo'lishi kerak.
2. Nutq to'la isbotlanishi lozim.
3. Nutqdagi hamma narsa muhim hisoblanishi kerak.
4. Nutq materialini sidqidildan to'plash va idrok etish zarur.
5. Nutq materialini joylashtira olishi va tushunishga oson bo'lishini ta'minlashi darkor.

Sitseronning eng sevgan usuli - tinglovchini toliqtirib qo'y-maslik uchun ko'tarinki uslubni bir parda pasaytirib, sud ishi-ga aloqador kishilarning goh salbiy, goh ijobiy xarakteristika-sini berish, mashhur zotlar haqida biron latifani eslatish lozim bo'lsa bir hayotiy manzarani, dramatik voqealarni eslash, hik-matli so'z, maqol va qochiriq gapni qistirib o'tishdir.

XI-XII asrda "universitet notiqligi" rivojlandi. Dorulfu-nun tarix fani o'qituvchisi Yan Gus progressiv fikrlari uchun gulxanda yondirilgan, Duns Skott (Oksford dorulfununini magistri), falsafa o'qituvchi parijlik Per Abelerlar shu san'at bilan shug'ullangan. Florensiyalik monax Savonarola ham ota-shin nutqlari uchun gulxanda yondirilgan.

XIX asrda Fransiya, Italiya, Olmoniya, Avstriyada burjua demokratik inqilobining g'alabasidan keyin notqlik rivojladi. Notiqalar insonning mehnati, aql-zakovatini ulug'lab, uning ke-lajagini himoya qiladilar.

Rossiya tarixida notqlik san'ati Pyotr I davrida ancha kuchay-di. XVII-XVIII asrlarga kelib, rus notiqligi jonlana boshlandi. Manbalarda ko'rsatilishicha hatto Pyotr I davrida nutqida nuq-soni bor kishilar o'qituvchilik bilan shug'ullanishi ta'qiqlangan.

Nutq madaniyati borasida rus olimi Lomonosovning xizmat-lari beqiyos. Olimning xizmatlari tufayli nutq madaniyatiga doir jiddiy nazariy fikrlar o'rta tashlandi, uning amaliy ahamiyati nimada ekanligi ko'rsatib berildi, rus tilining lisoniy boyliklari asosida bu soha ijodiy rivojlantirildi. Faqat 1920-1930 yillar-

gagina kelib, rus tilshunosligida nutq madaniyati muammosi ilmiy masala sifatida ko'tarildi, 1950 yillarga kelib, bu sohaga qiziqish kuchaydi. Bunda rus tilshunoslari G.O.Vinokur, ye.D.Polivenov, B.A.Larin, I.Sh.Ojegov, V.V.Vinogradov, L.V.Shcherba, V.G.Kostomarov, L.I.Skvorsov, B.N.Golovin va boshqalarning xizmati katta.

Nutq madaniyati muammosining paydo bo'lishi o'zining dastlabki davrida ikkita lingvistik maktab (tilshunoslik) bilan aloqada bo'ldi.

1. Rus tilshunosligi maktabi.

2. Praga lingvistik maktabi.

Musulmon Sharqda nutq - va'z, notiq - voiz deb yuritilgan.

IX-XY asrlarda yashagan Xorazmiy, Farog'iy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Qoshg'ariy, Navoiy kabi ulug' siymolar O'rta Osiyo xalqlarining dunyo madaniyati taraqqiyotida oldingi saflarda bo'lishi uchun xizmat qilganlar. Sharq tarixida Uyg'onish davri hisoblangan bu davrda notiqlik san'ati ham rivojlangan. Abu Nasr Farobiy (837-950), Ibn Sino (980-1037) kabi olimlar mashhur notiq ham bo'lganlar.

XY asrda Kaykovus tomonidan yaratilgan "Qobusnoma"da ham (1082-1083) notiqlik ulug'langan. 44 bobdan iborat bu asarning 6,7-boblari so'z odobi haqidadir, deb nomlangan.

Beruniy "Geodziya", Abu Abdulloh al-Xorazmiy "Mafotih ul-ulum" ("Ilmlar kaliti") asarlarida bu san'atga alohida e'tibor berganlar.

Abu Nasr Farobiy to'g'ri so'zlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika, mantiqning ahamiyati katta ekanligini ta'kidlaydi. Olim bilimlarning birinchisi jismlar va hodisalarga ism berish, ikkinchisi grammatika (jismlarga berilgan ismlarni tartibga solishni), uchunchisi mantiq (xulosa chiqarish uchun darak gaplarni joylashtirish)dir deb fikr yuritadi. Birinchisi ism beruvchi til haqida ilmlar, ikkinchisi - natijalarni ifodalaovchi hikmatli so'zlar va nutq qanday tuzishni o'rgatadi, uchinchisi esa, xulosalar yordamida yangi narsalarni bilib olishni o'rgatadi.

Yana mashhur notiqlardan biri fargʻonalik notiq Qozi Oʻshiydir. U Oʻsh shahrida qozilik lavozimida ishlagan. Erondagi Siyiston viloyati xalqi qattiqqoʻllik bilan dong chiqargan edi. Qozi Oʻshiy ular koʻnliga soʻz topib, xalqning mehr xazinasini ochadi va hurmatga sazovor boʻladi. Navoiy zamonasida yashagan uch notiq haqida maʼlumotlar bor.

Husayn Voiz Koshifiy Eronning shimoliy-sharqidagi Sabzavor shahrida tugʻilgan. Voiz Koshifiy koʻp fanlarni egallagan, mashhur olim boʻlgan. "Javohirut tafsir" yoki "Tavsiri Husayniy", "Mavohibud dunyo", "Lubbi lubob", "Anvari Suxayliy", "Ravzatush shuhado", "Dah majlis", "Ahloqi Muhsiniy", "Mahzanul insho", "Sabo", "Koshifiya", "Asrori Qosimiy", "Hotam-noma", "Ixtiyoriot", "Matlaʼul-anvor" kabi asarlar muallifi.

Shu qadar mashhur voiz boʻlganki, uning nutqini tinglash uchun turli tomonlardan odamlar kelgan, notiqning ovozi yetib borolmagan oʻrinlarda uning ichki ruhiy holatini turli holatlar orqali ifodalanishini kuzatganlar. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro bu voizning mahoratiga qoyil qolganliklari uchun hatto oʻz asarlarini rasmiy ijro etish uchun bu ishga Husayn Voiz Koshifiyni munosib koʻrganlar. 898 (1492) yil 8 noyabrda A.Jomiyning dafn etish marosimida Navoiy oʻzining tarkiband-tarixini va 7 band 140 misradan iborat marsiyani oʻqib eshittirish uchun unga topshiradi. Voiz Koshifiy jadval asosida ishlagan. Xondamirning aytishicha, juma kuni Hirotning markaziy chorsusida shoh namozgohida vaʼz aytsa, shu kun peshindan keyin Navoiy masjidida, seshanba kuni Sulton Husayn madrasasida, chorshanba kuni pir (Muraj) Mujarrad Xoja Abdul Valid Ahmad mozori boshida, payshanba kuni Sulton Ahmad Mirzo mozori boshida nutq soʻzlagan. Bu narsa notiqning nihoyatda bilimdon, sergʻayrat ekanligidan dalolatdir.

Oʻzbek harbiy notiqlarining eng zabardasti Boburdir. Muhammad Solih u haqida "Mavlono Bobur Mirzo nutq soʻzlaganda soʻz bilan togʻni narm aylardi", deb aytgan.

Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni puxta oʻrganish, uning lugʻaviy boyligi va grammatikasini chuqur egallash, man-

tiqli soʻzlashni oʻrganish, nutqning ichki (mazmun) va tashqi (shakl) koʻrinishiga birday eʼtibor berish, goʻzal va taʼsirchan nutq tuza bilish, nutq boyliklarini maqsadga muvofiq hamda oʻrinli ishlatish vazifalarini qoʻyadilar va ularning ijrosini chuqur tahlil etadilar .

Bugungi kun jurnalisti notiqlik sanʼati, nutq madaniyati tarixini chuqur oʻrganmogʻi, oʻz amaliy faoliyatida foydalanmogʻi maqsadga muvofiqdir. Sharq qadimdan oʻz mutafakkir olimlari bilan ulugʻlanib kelingan, chunki bu donishmandlarning ilmfan sohasiga qoʻshgan ulkan merosi umumjahon madaniyati xazinasiga qoʻshilgan ulkan boylikdir. Bu meros bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz.

Sharqda vaʼzxonlik balogʻa, balogʻat (chechanlik, notiqlik), deb yuritilgan va notiqlik sanʼati rivojlanishi bilan nutq oldiga qoʻyilgan talablar ham murakkablashib bordi. Buyuk allomalardan Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshgʻariy, Zamaxshariy, Abu Yaqub Sakkokiylar ham tilga, lugʻatga soʻz odobi, grammatika va mantiqshunoslik ilmiga doir asarlar yozganlar, boshqa sohalariga doir yozgan asarlarida ham nutq madaniyati masalalariga katta eʼtibor berganlar.

Mana shunday Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Rayhon Beruniy. Butun umrini ilm-fanga baxshida etgan olim Xorazmdagi notinchliklar tufayli bir muddat Jurjonda-shoh Qobus huzurida istiqomat qiladi, ilmiy asarlar yaratadi. Qobusga bagʻishlab, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarlarini yozdi.

Beruniy “Geodeziya” asarining kirish qismida fanlarning paydo boʻlishi, tarmoqlanib koʻpayishi haqida soʻz yuritib, har bir fan inson hayotidagi zaruriy ehtiyoj tufayli paydo boʻladi, deb fikr bildiradi. Olimning fikricha, grammatika, aruz va mantiq shu zaruriy ehtiyoj hosilasi, mevasi. Inson nutqi oʻz tuzilishiga koʻra rost va yolgʻonni ifodalashi mumkin. Bu munozaraga sabab boʻladi. Bu munozaralar jarayonida inson rostni yolgʻondan ajratib oladi, rostni yolgʻondan ajratadigan mezon

yaratadi. Bu mantiq fani hisoblanadi. Mantiqning sillogizmi (qiyosi) rostni yolg'ondan ajratish vositasi bo'ladi. Nutqdagi shubhali o'rinlar sezilsa ular "mezon" asosida tuzatiladi.

Abu Rayhon Beruniy mantiq ilmini o'rganmasdan uni malomat qiladiganlarga achinib shunday yozadi: "Agar u dangasalikni tashlab oromga berilmasdan gap bilan bog'lanib keladigan nahv (grammatika), aruz (she'r o'lchovi) va mantiq (logika) ni mutolaa qilganda edi, so'z (nutq) zotan, nasr va nazmga ajralishini bilgan bo'lardi". Beruniy nutqning nazm va nasr ko'rinishlari borligini ko'rsatadi.

Nutqning bu turlari ma'lum qoidalar asosida shakllanadi. Nasr nahv (grammatika) qonun-qoidalari asosida, nazm aruz talabiga binoan tuziladi.

Aytilgan so'zning me'yorini o'lchovi va xatosini tuzatuvchi aniq ikkita mezon - nahv nasrda va aruz nazmda bo'lib qoldi, grammatika umumiyroq bo'lib, u nazmni ham, nasrni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Sharqda, ayniqsa Movarounnahrda va'zxonlik "Qur'on"ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda olib borilgani barchaga ma'lum. Shuning uchun ham so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan maqsadga muvofiq foydalanish borasida qadimdan ko'p yaxshi fikrlar bayon etilgan.

Abu Rayhon Beruniy ham bu sohada samarali ijod etgan. 152 asarning muallifi bo'lgan Beruniydan bizgacha 30ga yaqin asar saqlanib qolgan.

"Geodeziya" asarida olim shakl va mazmun birligiga ham katta ahamiyat beradi. Shakl mazmunga xizmat qilishi kerak, deb hisoblaydi mutafakkir. Mazmunsiz har qanday shakl ham el orasida e'tibor qozonmaydi. Shuning uchun ham nutqning ikkala shaklida - ham nasriy, ham nazmiy shaklida mazmun bosh mezon hisoblanadi. Nutq o'zining har ikki shaklida ham so'zlovchi o'z oldiga qo'ygan ma'noni (fikrni) ifodalashi shart. Olim yozadi: "So'ngra so'z mana shu ikki qismda (nasr va nazmda) ham so'zlovchi maqsad qilgan ma'nodan iborat bo'lib qoladi". Nasriy yoki nazmiy nutqda mazmun bor yoki

yo'qligini bilish tuzilgan gaplarni bir-biri bilan qiyoslash orqali aniqlanadi.

Olim o'z fikrlarini davom ettirib, har qanday tilning o'z grammatik qurilishi, o'z tartib-qoidalari bo'lishi, bu qoidalar-ning shu tilda tuzilgan nutq uchun ahamiyati beqiyosligi aytib, bu qoidalar boshqa tillar uchun nozarur bo'lishi mumkin deydi. Ammo, olim har bir tilning afzalligi o'sha tilda so'zlovchilar uchun zarurdir, deb hisoblaydi.

Beruniy balog'a san'atini arab tiliga xosligi haqida gapirib, bunday nutq texnikasi arablar uchun fazilat ekanligini bayon etadi. Chunki arab tilida balog'a (notiqlik) ning mavjudligi Qur'on targ'ibotida arab nutqining ziynati sanaladi. Notiqlik san'atidan foydalangan kishining yuqori mansabga erishuvi va boshqa bir kishining kambag'allikda yashashiga balog'a aybdor emas, deb aytadi. Boshqa tillarda balog'ani egallaganlarning obro' topmasliklariga sabab, balki balog'aning arablar tilidan boshqa tillarga ko'chirishda bozor yurishmaganidir, ya'ni notiqlik ilmini har tomonlama chuqur o'rganmaganligidir deydi. Shuningdek, Beruniy "Hindiston" asarida hindlarda Voyakaron deb ataladigan til ilmi borligini, bu ilm ular so'zlarini tuzatadigan nahv, xat yozishda balog'atli, nutq so'zlashda fashatli, yetuk va usta qiladigan ishtiyoq ilmidan iboratdir, deb ma'lumot beradi.

Yana bir vatandoshimiz Abu Nasr Farobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo'rli haqida shunday deydi: "Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish" qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda bu haqidagi bilimlarning eng birinchisi - jismlarga (substansiya - narsalar) va aksidensiya (hodisalar)ga ism beruvchi til haqidagi ilmlar, deb tasdiqlayman.

Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ism (nom) larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalov-

chi hikmatli soʻzlarni va nutqni qanday tuzishni oʻrgatadi.

Uchinchi ilm mantiqdir: maʼlum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni oʻrgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima toʻgʻri, nima yolgʻon ekanligi haqida hukm chiqaramiz.

Yuqorida koʻrsatilganlardan koʻrinadiki, grammatika va mantiq fanlarining nutq tuzishdagi ahamiyatini ikki buyuk olim ham yuksak darajada anglaganlar va ularga katta ahamiyat berganlar.

Abu Nasr Farobiyning asl ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Ulugʻ Tarxon boʻlib, u “Sharq Arastusi”, “Muallimi soniy” hisoblangan. Olim butun umri mobaynida 160 dan ortiq asar yaratgan. Farobiy asarlari XII-XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga tarjima qilingan Toshkentdagi Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida qadimgi Sharq faylasuflarining asarlaridan jami 107 risolani, jumladan, Farobiyning 16 risolasini oʻz ichiga olgan “Hakimlar risolalari” toʻplami mavjud. Olim grammatika, mantiq, sheʼriyat ilmlar fanlardan toʻgʻri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga soʻz vositasida toʻgʻri tushuntirish, aqliy tarbiya berish uchun xizmat qilishini taʼkidlaydi.

Insonning ibtidosida, avvalo “oziqlantiruvchi quvvat” paydo boʻlib, uning yordamida inson oziqlanadi. Soʻng “tashqi quvvat - tashqi taʼsir natijasida sezgi organlari orqali vujudga keluvchi quvvatlarning besh turi aytiladi”. (teri-badan sezgisi, taʼm bilish, hid bilish, eshitish, koʻrish sezgisi). “Ichki quvvat”ga esda olib qolish, xayol (xotira, tasavvur), his-tuygʻu, nutq (fikrlash) “quvvat”lari kiradi.

“Mantiq sanʼati kishiga shunday qonunlar haqida tushuncha beradiki, bu qonunlar vositasida aql chiniqadi, inson sogʻlom fikr yuritishga oʻrganadi” deb yozadi olim. Farobiy mantiq ilmi bilan grammatikaning mushtarakligini taʼkidlab, mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir deydi. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq

ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo‘ldan olib borish uchun aqlni to‘g‘rilab turadi. Demak, buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy ham insonni sog‘lom fikr yuritishga undovchi mukammal nutqni tarbiyalash yo‘llari haqida ilmiy fikrlarini bayon etadi.

Nutq madaniyati masalalari Beruniy zamondoshi bo‘lgan Abu Abdulloh al Xorazmiy asarlarida ham o‘z aksini topgan. Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan yagona ma‘lum asari - “Mafotih ul-ulum” (“Ilmlar kalitlari”)dir. Bu asarning uch nusxasi Buyuk Britaniya muzeyida, bir nusxasi Berlin kutubxonasida saqlanadi. Amerikalik olim K. Bosvort asrimizning 60-yillarida ushbu asarning 6 nusxasini Turkiya kutubxonalarida borligini (Istambulda) aniqladi. Asarda nutq madaniyatining ba’zi bir masalalari - devonxona ish qog‘ozlari, ularning shakllari, ishlatiladigan islohotlar; shuningdek adabiyotshunoslik fani islohotlari, ularning ta’rifi haqida ma’lumot beradi. Asarning beshinchi bobida aruz va qofiya ilmi hamda she’riyatda ishlatiladigan badiiy tasvir vositalari, ularning fazilatlar va nuqsonlari haqida so‘zlaydi. Asarning beshinchi bobi besh bo‘limdan tashkil topgan. Beshinchi bo‘lim X asr O‘rta Osiyo she’riyatiga bag‘ishlanadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, X asrdayoq o‘lkamizda badiiy nutq yuksak darajada rivojlangan, uning nazariyasi mukammal ishlangan. “Mafotih ul-ulum” asarining arab ilmlari qismidagi yetti kalom, o‘n ikki bob grammatika (sarf va nahv), sakkiz bob ish yurgizish, besh bob she’r va aruz ilmlariga bag‘ishlangan. Kitob arab tilida yozilganligi sababli ham arab adabiy tili grammatikasi, uning qonun-qoidalari bayon etiladi. Shu o‘rinda olim arab she’riyati va uning tarkibiy qismlaridan bo‘lgan aruz haqida ham mufassal ma’lumotlar berishga harakat qiladi.

Alisher Navoiy, Sa’diy Sheroziy, Husayn Voiz Koshifiy kabi Sharq allomalari ijodida ham nutq odobi qoidalari mufassal bayon etilgan.

Husayn Voiz Koshifiy Navoiyning zamondoshi bo‘lib, nutq odobiga doir “Futuvvatnomayi sultoni” asarini yozadi. Bu asarda nutq madaniyatiga oid fikrlar bildiriladi, so‘z qudrati batafsil ochib beriladi.

“Agar so‘z senikimi yoki sen so‘znikimi, deb so‘rasalar, aytgil: men so‘zniki va so‘z menikidir, chunki so‘z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevadan va mevani daraxtdan ajratib bo‘lmaydi”, deb yozadi olim. Aytilgan so‘z odam uchun farzandi jigarbandiday, ota-ona farzandidan topolmagani singari, inson ham o‘z so‘zidan tonolmaydi. Farzand ham ota-onadan tonolmagani singari, so‘z ham notiqniki hisoblanadi. Shuning uchun ham deydi olim, aytiladigan so‘zga mas’ullik ota-onaning farzandga va farzandning ota-onaga mas’ulligi darajasida bo‘lmog‘i lozim. Xalqqa nafi tegadigan farzand qobil, zarari tegadigan noqobil sanalsa, so‘z ham shunga o‘xshash bo‘ladi. Yaxshi so‘z egasiga sharaf keltirib, yomon so‘z o‘z egasini badnom etadi.

Shuningdek, olim suhbat odobi qoidalari haqida ma’lumot beradi. So‘zlash ham, tinglash ham katta mas’uliyat va madaniyatni talab etadi. Agar inson yaxshi so‘zlasayu, tinglashni bilmasa, yoki tinglasayu, so‘zlashni bilmasa, bu ma’naviy nokaslik alomatidir. Madaniyatli va ma’rifatli inson so‘zni sidq sadoqat, samimiyat bilan so‘zlamog‘i, suhbatdosh so‘zini jon qulog‘i bilan, diqqat-e’tibor, xayrixohlik va hamdardlik bilan tinglamog‘i maqsadga muvofiqdir. Suhbat va nutq odobida madaniyat va fahm-farosat bilan savol-javob qilish, so‘rashish ham muhim o‘rinda turadi. Mashhur notiq Koshifiy o‘z suxandonligi davrida bu qoidalarga to‘la rioya etishga harakat qilgan va bo‘lajak notiqnlarni ham bu qoidalar asosida ish yuritishga undagan.

O‘zbek adabiyoti tarixida Bobur lirikasi, “Boburnoma” asari nutqning go‘zal namunalaridir. “Boburnoma” nihoyatda ravon va go‘zal tilda yaratilgan. Shoir ham ommabop yozishni ma’qul ko‘rgan va o‘g‘li Xumoyunga yozgan xatida birovga yozgan maktubni bir necha bor o‘qish, uning ravonligiga, so‘zlarning ko‘zda tutilgan ma’nosi to‘g‘ri aks ettirayotganligiga ishonch hosil qilgandan so‘ng jo‘natishga chaqirdi. Chunki, so‘zlarning xato yozilishi aytilmoqchi bo‘lgan fikrni xiralashtiradi, o‘quvchini qiynaydi.

Tarixnavis shoir Muhammad Solih bu haqda shunday deb yozadi: “Mavlono Bobur Mirzo nutq so‘zlaganda so‘z bilan tog‘ni narm aylardi”.

O‘zbek mutafakkirlari nutq ma’nosida “nutq”, “til”, “so‘z” atamalarini ishlatganlar. Eng ko‘p uchragani “so‘z” atamasidir. Vaziyatga qarab til, so‘z, nutq o‘rnida qo‘llanavergan.

XXI asr buyuk o‘zgarishlar davridir. Bu o‘zgarishlar, eng avvalo, inson tafakkurida, uning fikrlash tarzida ro‘y berishi muqarrar. Iqtisodiy va siyosiy sohadagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil etib berishdan iboratdir. Umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri yuksak, zamonaviy dunyoqarashga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo‘lgan insonlarga fuqorolik jamiyatini barpo etishga va uni shakllantirishga qodir bo‘ladi. Mazkur fikrlardan ko‘rinadiki, shaxsda bilim, dunyoqarash, e’tiqodning shakllanganligi kamolotining asosiy mezoni sanaladi.

Bugun aksariyat davlatlar oliy o‘quv yurtlari dasturlarida “Kommunikatsiya nazariyasi” fani joy olganligi, sotsiologlar, psixologlar, san’atshunoslar, piarmen va jurnalistlar uning ilmiy-nazariy aspektlarini o‘zlashtirishi talab etilmoqda. Kommunikatsiya bu ma’lum bir xizmat jarayoni, yoki faqat ma’lum maqsadlarga erishish vositasi bo‘lmay, u – insoniyat turmush holatini shakllantiruvchi birlamchi ijtimoiy jarayon, unda ishtirok etuvchilar o‘z ijtimoiy dunyosini, mavjudlik holatini yaratadilar, o‘zgartiradilar.

Olimlarimiz tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilayotgan notiqlik san’ati (ritorika) fan sifatida qadimgi Yunonistonda eramizdan avvalgi IV-V asrlarda paydo bo‘ldi. Ammo notiqlik san’atiga ehtiyojning paydo bo‘lishini insoniyat tarixidagi ilk davlatchilikning shakllanishi davri bilan bog‘lash mumkin. Nutq davlatni boshqarish, xalqni hokimiyat atrofida birlashtirish va muayyan maqsadlar sari yo‘naltirish, turli toifadagi odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish kabi ishlarning barini amalga oshirishning bosh vositasidir. Davlat

va jamiyat boshqaruvini nutqsiz, “so‘z hunari”siz tasavvur etib bo‘lmaydi. “Nutq - qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi, odamlarni boshqarish uchun esa ayni shular kerak”, – degan edi g‘arb mutafakkiri R.Emirson.

Notiqlik qadim davrlardan beri, birinchi navbatda, fan sifatida emas, balki san‘at, mahorat, insondagi noyob qobiliyat sifatida talqin etib kelinadi. Notiqlik san‘atida tinglovchilarni ishontirish, ommani o‘ziga tortishga intilish maqsadi birinchi o‘rinda turadi. Shuning uchun ham zamonaviy darslik va o‘quv qo‘llanmalarda “notiqlik — ishontirish usullarini o‘rgatuvchi fan” deb aytilgan. Notiqning nutqi chiroyli, jozibali, ta’sirchan bo‘lishi shart. Ta’sirchanlikka, maftunkorlikka erishish maqsadida nutqning mazmuniga, mantiqiy izchilligiga, jumlarlar jim-jimadorligiga katta e’tibor beriladi.

G.O. Vinokur o‘zining «Kultura yazyka» («Til madaniyati») asarida nutq madaniyatining notiqlik bilan bog‘liq tomonlariga alohida to‘xtaladi: «Notiqning nutqi deganda men har qanday monologik og‘zaki nutqni emas, balki tinglovchilarni ma’lum harakatga chorlovchi yoki ularda qandaydir g‘oyalar, tasavvurlar tizimini uyg‘otishga qaratilgan maxsus vazifa bajaruvchi nutqni tushunaman».

Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi “Yaxshi suhbatdosh-yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir” deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo‘lishini nazarda tutgan edi. Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan kishilar vaqtining 45% kimlarnidir tinglashga sarf qilar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo‘ladiganlar-savdo xodimlari, aloqachilar, rahbarlar, muxbirlar, o‘qituvchilar 35-40% oylik maoshlarini odamlarni tinglaganliklari uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko‘proq foyda keltirarkan.

Har bir kishi ona tilining imkoniyat va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob bera oladigan

so'zamol shaxs bo'lishi mumkin. Ammo har bir shaxs ham san'atkor ma'nosidagi notiq bo'la olmasligi aniq. Lekin adabiy tildan foydalanuvchi har bir notiq nutq madaniyatidan xabardor bo'lishi shart. Notqlik bu, avvalo, qobiliyatdir.

Nutq madaniyati — faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham, ya'ni adabiy til va uning me'yorlarini o'rganish va bu me'yorlarni qayta ishlash bilan ham shug'ullanadi. Notqlik san'ati esa, bunday ilmiy-me'yoriy faoliyatni ko'zda tutmaydi.

Notqlik ko'proq nutqning mazmuniga, mantiqiy asoslariga, mundarijaviy tuzilishiga e'tibor beradi, nutq madaniyati sohasi esa, ko'proq nutqning til qurilishi — lisoniy tuzilishiga e'tibor qiladi. Notqlik, asosan aniq bir shaxs, notiq yoki guruhlar notiq-lari nutqi haqida qayg'uradi. Bunda u notiqni tinglayotganlar, ya'ni keng ma'noda tinglovchilar ommasi nutqini ham ko'zda tutmaydi. Nutq madaniyati esa, bundan farqli ravishda umuman kishilarning nutqiy faoliyatini, nutq madaniyatini maqsadiga ko'ra va nutqiy faoliyati nuqtai nazaridan keng maqsadli soha, notqlik esa, undan farqli ravishda tor sohasidir.

Notqlik san'ati notiq uchun oldindan qanday so'zlash chizmasi va rejasini bermaydi va bu tip nutq hamisha ham oldindan tayyorlangan, tayyorgarlik ko'rilgan nutq hisoblanmaydi. Nutq madaniyati sohasi esa, jamiyat a'zolarining ona tili, ya'ni adabiy til boyliklari va vositalaridan maqsadga muvofiq sharoit va uslub taqozosiga ko'ra o'rinli foydalana olish ko'nikmasini beradi. Bunday ko'nikma, aslida har qanday notiq uchun ham zarur.

Gap notqlik ustida borar ekan, uning eng qadimiy turlaridan biri — voizlik to'g'risida to'xtalishimiz tabiiy. Voizlik san'ati bilan shug'ullanadigan kishilar xalqning nazaridagi yetuk alloma bo'lganlar va ular nodir iste'dod sohibi sifatida qadrlanganlar. Binobarin, ko'hna Sharqda va'z va voizlar hamda voizlik san'ati nazariyasi haqida boy meros qoldirilgan. Bu meros Xorazmiy, Farg'oniy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Navoiy, Jomiy kabi buyuk siymolarning nomlari bilan bog'liq.

Fikrimizning dalili sifatida Sharq uygʻonish davrining mutafakkiri, tabobat ilmi asoschilaridan biri Ar-Roziyning “Voizu va’zxonlar **oliy mavqyega** loyiq”, - degan fikrlarini keltirish mumkin (Ar-Roziy IX asr oxiri va X asr boshlarida yashab oʻtgan).

Bu borada Abu Nasr Farobiyning fikrlari alohida ahamiyatga molik. Uning notqlik haqidagi mulohazalari poetika va ritorikaga oid asarlarida, Aristotel asarlariga yozgan sharhlarida uchraydi.

Farobiy fikricha, axloqli kishilar 12 ta muhim fazilatga ega boʻlib, bunda notqlik (5-sifat) alohida oʻrin tutadi. Kishining “soʻzlari aniq boʻlsin, fikrini va aytmoqchi boʻlgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin”, - deydi. Uning taʼkidlashicha, mantiq shunday bir sanʼatki, notiq nutq jara-yonida adashsa, toʻgʻri fikrlashga olib keluvchi va aql yordami-da biror xulosa chiqariladigan boʻlsa, xatolarning oldini oluvchi omillarni oʻz ichiga oladi. Uning aqlga munosabati grammatika sanʼatining tilga munosabati kabi.

Sharqning yetuk mutafakkirlaridan Abu Ali ibn Sino (980-1037) notiqning bilimdon boʻlishi, gap ketayotgan mavzuni yaxshi oʻrganishi, eng mayda kamchiliklarga ham eʼtibor berish zarurligini taʼkidlaydi. U notqlikda demokratiyaning oʻrnini yuqori baholaydi.

XI asrning mashhur adiblaridan biri Kaykovusning Sharq taʼlimiga oid “Qobusnoma” asarida (6- va 7- boblar) notqlik sharhiga maxsus boblar ajratilgan boʻlib, unda notqlik fazilat-lari, suxandonlik ahamiyati va bu sanʼatni egallash yoʻllariga doir qimmatli nasihatlar berilgan.

Alisher Navoiyning notqlik sanʼati xususidagi fikrlari biz uchun qimmatli va boy merosdir. U “Mahbub ul-qulub” asari-niing “Nasihat ahli va voizlar zikrida” (24-fasl) deb nomlangan qismida voizlik sanʼati haqidagi fikrlarini bayon etgan. Alisher Navoiyning uqdirishicha, voiz quyidagi xislatlarga ega boʻlishi lozim:

1. Voiz kerakki, «kolalloh» soʻz aytsa. Yaʼni soʻzlari foydali va taʼsirli boʻlsa.

2. Va'z bu murshid va ogoh ishidir va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidir. Va'z yangiliklar va o'zgarishlar ogohchisi bo'lishi kerak.

3. Voizning o'zi biror kasbni egallagan bo'lishi kerak va shundan keyingina u kishilarga ta'sir eta oladi.

4. Voizkim, bo'lg'ay olim va mutaqqiy-aning nasihatidin chiqqay shaqiy".

5. Ulkim o'zi buyurib o'zi qilmag'ay, hech kimga foyda va asar aning so'zi qilmag'ay. Demak, so'zi bilan ishi bir bo'lsin.

Xullas, ko'hna Sharqning mohir va mashhur notiqclarining sir-u-sanoatlarini o'rganish muhim ahamiyatga molik ish. Notqlik san'ati nazariyasi va amaliyotiga doir boy merosimiz bor.

Quyida aynan Xitoyda notqlik san'ati va nutq madaniyati qanday ahamiyatga ega bo'lganligini va qay tarzda rivojlanganligini ko'rib chiqamiz. **Xitoy** davlatchiligining shakllanishi eramizdan avvalgi II ming yillikning o'rtalariga borib taqaladi. Xitoy xalqi tarixining umumiy yo'nalishi, o'ziga xos ijtimoiy toifa sifatidagi so'z san'atiga va uning tarkibiy qismi bo'lmish notqlikka bo'lgan e'tibor xalqning rivojlangan davlatchilik sharoitida yashay boshlagan davrga to'g'ri keladi, degan fikrni aytish imkoniyatini beradi. Ya'ni ijtimoiy hayotning rivoji hamda jamiyatdagi tabaqalarning turli, bir-biriga zid manfaat va intilishlarini muvofiqlashtirish, ijtimoiy fikrni shakllantirish zarurati nafaqat notqlikni, balki umuman yozma adabiyotning vujudga kelishiga zamin hozirladi. Saqlanib qolgan adabiy yodgorliklar mazmun-mohiyati shuni ko'rsatadiki, Xitoy adabiyoti estetik funksiyani bajarish emas, balki asosan biron narsadan xabar berish va biron ishga da'vat etish vazifasini o'tagan. Boshqa so'zlar bilan aytganda, u utilitar xarakterga ega bo'lib, tilniig axborot-kommunikativ jihatlaridan foydalangan, "Mo-szi" yodgorligida bayon etilgan inson, jamiyat va davlat borasidagi qarashlarning bir muhim qirrasi, nazarimizda, bu fikrni asoslashga yordam beradi: "Bitta odam - bitta manfaat; ikkita odam - ikkita manfaat; o'nta odam - o'nta manfaat. Odamlar ko'p, demak manfaatlar ham ko'p. Ustiga-ustak har

bir odam o'z manfaatlarini o'ylaydi va o'zgalarning manfaatlarini rad etadi."

Xitoy adabiyotining eng qadimiy yodgorliklari taxminan eramizdan avvalgi XII asr o'rtalariga taalluqli bo'lib, ular hukmdorning nutqlari, xalqqa murojaatlari (gao)lardan tashkil topgan. Bunday nutq na murojaatlar tarkib topgan sharoit, ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan bog'liq. Masalan, "Buyuk murojaat" ("Dagao") quyidagi vaziyat taqozosi bilan yozilgan. Ijod podshohligi asoschisi U-van In podshohligini ag'dargandan so'ng qatl etilgan so'nggi In shohining o'g'liga asosiy viloyatni boshqarishni qoldiradi. Biroq U-van o'lgandan so'ng qo'zg'olon ko'tariladi. Yosh shoh Chen-van isyonchilarga qarshi yurish qilishga majbur bo'ladi. Chen-van murojaati ayni pgu yurishga da'vatdan iborat bo'lib, tantanavor ruhdagi so'zlardan boshlandi: "Hammangizga murojaat etaman - sizga, yurt hokimlariga, Sizga, ulug' ishlarni qilguvchilarga!".

"Buyuk murojaat"dan keyin yaratilgan asarlar orasida eng mashhuri - "Xun fan" ("Boshqaruv haqida buyuk qonun") ham notiqlikka e'tibor nuqtai nazaridan diqqatga sazovor. Qonunning ikkinchi moddasida boshqaruv bilan bog'liq "besh amal" haqida gap boradi.

Birinchi amal - o'zini qanday tutmoq, ikkinchisi - qanday so'zlamoq, uchinchisi - qanday ko'rmoq, to'rtinchisi - qanday tinglamoq, beshinchisi - qanday fikrlamoq bilan bog'liq. Ularni tushuntirishda quyidagilar ma'lum qilinadi: "Odob-ahloq doirasidagi xatti-harakat tartibni hosil qiladi. Nutqdagi muvofiqlik tartibni hosil qiladi. Nazarning tiniqligi ziyraklikni hosil qiladi. Fikrlash ravshanligi donolikni hosil qiladi".

Xitoyda notiqlik san'ati, ayniqsa, Xitoy qadimiyotining klassik davri hisoblanmish eramizdan avvalgi USh-Sh asrlarda rivoj topdi. Buning bir qator sabablarini keltirish mumkin. Masalan, Xitoydagi Si podshohligi hukmdorlari podshohlik poytaxti Linsziga o'sha davrdagi deyarli barcha mashhur allomalarni jalb etishdi. Manbalarga qaraganda, u yerda turli vaqtda 70 dan ortiq mashhur shaxslar yashagan. Ular qatorida Konfutsiyning

izdoshi Men-szi, ulug' Mo-szining izdoshlari Sun Ke va In Ven, dong'i ketgan vazir, o'sha davr iqtisodiy, ijtimoiyva siyosiy fikrning ajoyib namunasi bo'lmish "Gu-an-szi" risolasining muallifi Guan Chjunni tilga olish mumkin. Lekin bu asrlarda madaniyatning, jumladan, adabiyot va uning tarkibiy qismi bo'lgan notiqlik san'atining rivojini ta'minlagan ijtimoiy-siyosiy hayotning o'ziga xos jihati sifatida avvalo demokratik tartibotlarning shakllanishini qayd etish lozim. Bunga zamin hozirlagan omil dehqon, hunarmand va savdogarlardan tashkil topgan erkin aholining mavjudligi edi. Ayni shu qatlam orasidan o'sha davrda asosan notiq va muallim sifatida peshqadam jamoat arboblari yetishib chiqdi. Aslini olganda, bu sifatlar bir odamda mujassam bo'lgan, zero, u davrda ta'lim berish "gapirish", gapirish esa "o'qitish" ma'nosini anglatgan. Shuning uchun notiqlik sai'atini puxta egallash ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanishning asosiy shartlaridan biriga aylangan. Bunday notiq va donishmandlarning ko'pchiligi siyosiy hayotda faol ishtirok etishga harakat qilishgan va bunda o'z g'oyalarini amalda tadbiq etishning vositasini ko'rishgan. Ayrimlar bunga muvofiq bo'lishgan, chunki tarixiy shart-sharoitning o'zi bunday ijtimoiy qatlamning shakllanishi uchun zamin hozirlagan. Zero, Qadimgi Xitoy podshohliklari o'rtasida doimiy siyosiy kurash kechgan va hukmdorlarga u yoki bu sohada maslahatchi-mutaxassislar kerak bo'lgan va bunday odamlar topilgan ham. Muhimi shundaki, ularni ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatda tutgan mavqeiga qarab emas, balki iste'dodiga qarab tanlashgan. Tarixiy manbalardan bizga ana shunday so'z qudrati va notiqlik san'ati bilan ijtimoiy-siyosiy hayotning ko'p muammolarini hal etishga yordam bergan mashhur maslahatchi-mutaxassislar notiqalar va ularning qilgan ishlari ma'lum. Ular orasida davlat boshqaruvi masalalari bo'yicha maslahatchi-mutaxassislar - Guan Chjun, Shan Yan, Xan Fey-Szi, harbiy ish bo'yicha mutaxassis va harbiy risolalar mualliflari Sun U, U Si kabilarni tilga olish mumkin.

Qadim Xitoy adabiy yodgorliklarining shakl va mazmuniga diqqat qilinsa, ularning aksariyat ko'pchiligiga xos bir umumiy

xususiyatni ilg'ash mumkin -ular qaysi sohaga oid bo'lmasin, ya'ni davlat boshqaruvi va siyosiy masalalar, falsafiy ta'limotga oid o'gitlar yoxud ijtimoiy-siyosiy hayotning boshqa muammolariga bag'ishlangan bo'ladimi, aksariyat hollarda dialog, suhbat shaklida yozilgan. Bu holat mualliflarning notqlik san'ati mezonlarini puxta bilganligi, qanday qilib o'quvchi (suhbatdosh) ni o'z fikrlariga ishontirish, o'z fikrlarini mantiqiy ifoda etish, odamlarga yetkazish kabi notqlikning muhim sir-asrorlarini yaxshi egallaganidan dalolat beradi.

Xitoy xalqi tarixiy taraqqiyotining umumiy yo'nalishida alohida ijtimoiy hodisa sifatidagi adabiyotga va xususan, notqlik san'atiga ehtiyojning paydo bo'lishini davlatchilikning va u bilan bog'liq ravishda turli bir-biriga zid manfaat va intilishlarga ega bo'lgan ijtimoiy toifalarning shakllanishi bilan bog'lash mumkin. Qadim Xitoy adabiy yodgorliklarini o'rgangan mutaxassislarining xulosasiga ko'ra ularda mualliflarning ikki "istagi" namoyon bo'ladi: biron narsa yoki hodisa haqida axborot berish va biron ishga da'vat etish. "Lunyuy" kitobida so'z qudrati haqida shunday deyiladi: "So'z..., agar u yetib borsa, dunyodagi bor narsaning jamidir". Shuning uchun Xitoy mutafakkirlari avvalo tilning axborot-kommunikativ jihatiga e'tibor qaratganlar.

Shunday qilib, Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni chuqur o'rganish, uning lug'aviy boyligi va grammatikasini puxta egalash, mantiqli so'zlashni o'rganish, nutqning ichki va tashqi ko'rinishiga (shakl va mazmuniga) birday e'tibor berish, ravon va ta'sirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini o'rinli va maqsadga muvofiq ishlatish vazifalarini qo'yadilar. Sharq mutafakkirlari avvalo o'zlari madaniyatli shaxs sifatida notqlik ilmini o'rganganlar, so'z qudrati haqida ibratli fikrlar bildirganlar va bu notqlik qoidalariga rioya qilganlar. Nutqiy madaniyatimizni rivojlantirishimiz uchun ham Sharq mutafakkirlarining notqlik san'ati, mahorati, nutq odobi haqidagi qarashlarini o'rganmoq ham qarz, ham farzdir.

Nazorat uchun savollar

1. Sitseronning «Notiqlik haqida», «Notiq» va «Brut» asarlarida notiqlik san'ati haqida qanday fikrlar keltirilgan?
2. Voizlik deganda nimani tushunasiz?
3. Sharq notiqligi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
4. Konfutsiyning mohir notiqligiga misollar keltiring.
5. G.O.Vinokurning "Kultura yazyka" nomli kitobida notiqlikning nutqiga qanday talablar qo'yilgan?

NOTIQLIK SAN'ATINING TASNIFI

Notiqlik san'atini chuqur egallash uchun uning tur va xillarini yaxshi bilish lozim. Chunki nutq mavzusi va aniq mazmuni bilangina emas, balki bayon qilish usuli, shuningdek ta'sirchanlik darajasi, hatto ishlatiladigan atamalar tarkibi va xarakteri bilan ham bir-biridan farq qiladi.

Ilmda notiqlik san'atining ikki xil tasnifi mavjud:

1. Notiqlikning ilk tasnifi.
2. Notiqlikning hozirgi tasnifi.

Notiqlikning ilk tasnifi. Qadimgi Gretsiyada notiqlikning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular siyosiy, sud va tantanali nutqlardan iborat. Bulardan tashqari «qabr ustidagi aytiladigan nutq» ham mavjud bo'lib, bu ish yirik notiqlarga topshirilgan edi.

O'rta Osiyoda diniy-ma'rifiy notiqlik rivojlangan bo'lib, uning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi..

Qadimda notiqlik san'ati 4 ta turga ajratiladi:

1. Harbiy notiqlik;
2. Sud notiqligi;
3. Ijtimoiy-siyosiy notiqlik;
4. Diniy-ma'rifiy notiqlik.

Sharqda notiqlik san'atining diniy-ma'rifiy yo'nalishi juda yaxshi taraqqiy etgan edi.

Hozirgi davrda milliy madaniyatimiz har tomonlama o'smoqda. Bu ayniqsa, maorif, san'at, adabiyot va shu bilan bir qatorda OAVda ham yaqqol sezilayapti. Gazeta va jurnallarimizning tili, uslubi avvalgi me'yorga qaraganda ancha puxta va silliqlashdi, radio va televideniya so'zlagan notiqning ajoyib nutqlari nutq me'yorlarini ancha qat'iylashganidan, stilistik ravonlik o'sganligi, nutq madaniyatiga e'tibor ortganidan dalolat beradi.

Shu o'rinda aytish joizki, ilgari ko'pchilik o'z nutqini badiiy kitoblar, turli o'quv qo'llanmalari orqali rivojlantirgan bo'lsa, texnika asriga kelib, bu borada ommaviy axborot vositalari oldinga chiqib oldi. Shunday ekan, eshittirish, ko'rsatuvlar hamda matbuotning tili har tomonlama toza va pishiq, adabiy til me'yorlariga mos kelishi shartligi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Har bir soha vakillarining o'z notiq-lari bo'ladi. Masalan, Ziyovuddin qori XX asrning eng yaxshi diniy notig'i bo'lgan. Shu bilan birgalikda hozirgi vaqtda har bir machit imomligiga ham o'z notqlik san'atiga ega bo'lganlarni qo'yilayotganligi hech kimga sir emas.

Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy ijtimoiy siyosiy notiq-lar bo'lishgan. Harbiy notqlikka ikkinchi jahon urushi yillarida faoliyat olib borgan Sobir Rahimovni, Yo'ldosh Oxunboboyevni, sud notqligiga sud va prokraturada ishlaydigan oqlovchi va qoralovchilarni, diniy-ma'rifiy notqlarga Respublikamizning turli oliy o'quv yurtlaridagi «Ma'naviy-ma'rifiy» ishlar bo'yicha prorektorlari, imom-xatiblarni misol keltirish mumkin. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham so'nggi 25 yillik tarixda mohir notiq sifatida nom qozongan, dunyo hamjamiyati tan olgan davlat rahbarlaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari shaxs kamoloti uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar uning o'zligini anglab borishi va o'z ustida mustaqil ishlagan holda xalq ravnaqi va Vatan taraqqiyoti yo'lida fido-korona mehnat qilishi uchun iqtidori, aqli va shuurini safarbar

etishga undaydi. Shu yo'lda tinmay harakat qilayotgan Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ham o'z nutqlarining shiddatliliigi, faktlarga asoslanganligi va tizimliliigi bilan ko'plab davlatlarning rahbarlaridan ajralib turadilar.

Notiqlikning hozirgi tasnifi.

1. Ijtimoiy-siyosiy notiqlik.
2. Diniy-ma'rifiy notiqlik
3. Sud notiqligi

Notiqlik san'ati deganda ko'z oldimizda dastavval chuqur bilim va iqtidor egalari gavdalanadi. Bu holning sababi bitta—qadim zamonlardanoq notiqlardan kuchli bilim va ta'sirchan ovoz hamda nozik farosat talab etilgan. Mazkur san'at birinchi bo'lib qay yurtida paydo bo'lgani haqidagi bahsu-munozaralar davom etib kelayotgan bugungi kunlarda uning qadri, jamoatchilik o'rtasidagi obro' e'tibori yanada ortib bormoqda. Notiqlik san'ati o'zi nima degan haqli savol tug'ilishi mumkin. Shunisi qiziqki, bu savolga hammaning o'z dunyoqarashiga yarasha javobi, mulohazasi bo'ladi va bu tabiiy hamdir. Negaki, notiqlik san'ati dogmatik tushuncha emas, ya'ni qotib qolgan, o'zgarmas tushunchalar sirasiga kirmaydi. Davrlar o'tishi bilan yangi-yangi g'oyalar, qarashlar va daho san'atkorlar ijodidan ozuqlanib, o'z ma'no mohiyatini turfa ranglarda akslantirib turadi. Masalan, Demosfen, Platon, Aristotel, Diogen davridagi notiqlik bilan bugungi kundagi notiqlikni katta farqi bor va bu narsa zamon va makondagi o'zgarishlar tufaylidir. Insoniyat ming-ming yillar davomida qanchadan qancha buyuk notiqlarni ko'rmagan deysiz. Ammo ularning hammasini birlashtirib turuvchi narsa, ta'kidlab o'tganimizdek, kuchli bilim va iqtidordir. Demak notiqlik — aniq mulohazalar, dalillar asosida nutq so'zlab, odamlarni qiziqtirish, o'ziga jalb eta olish san'atidir. Bu holda odamlar ongida katta o'zgarishlar bo'lmas ekan notiq o'zini aybdor sanashi, yangicha uslublar ustida izlanishlar olib bormog'i joiz. Yangicha uslublar deganimiz, aytilmagan fikrlar degani emas. Axir dunyoda aytilmagan gap qolibdimi? Hamma gaplar insoniyat tamaddunining avvalidayoq aytib bo'lingan. Bu

dunyoda aytilmagan tarz, uslub bor xolos. Masalan, gul va bulbul tashbehi she'riyatda g'oyat qadimdanoq ishlatilib kelinadi. Uni birinchi bo'lib kim ishlatgani haqida aniq dalillar yo'q. Ammo zamonamiz shoirlari ham huddi shu mavzuni she'rga solishadi-ku! To'g'ri, shunday. Faqat ular yangicha tarzda, yangicha uslubda qalamga olishgani bois, she'rlar — agar yaxshi yozilgan bo'lsa — o'quvchi qalbini larzaga soladi. Notqlikning vazifasi ham mana shu. Betakror uslub bilan odamlar ko'ngliga yo'l topa bilish.

Ko'pincha notqlik san'ati haqida gap ketganda uni faqatgina iste'dod deb aytadilar. Bu noto'g'ri fikr. Notqlik san'atining tub-tublarida kuchli mehnat yotadi. Odamlarni yolg'on gaplar bilan bir soat, ikki soat, boringki, uch soat aldab turish mumkindir. Ammo ko'ngil deganlari g'oyat nozik bo'ladi. Inson qalbi g'oyat mo'jizaga boy. Olmosday serqirra, serjilo, pokiza va nozik bo'ladi. Nozik ta'sirchan qalbga yana ham nafisroq san'atgina ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sharq xalqlarida qadimdanoq ana shunga e'tibor qaratilgan va notqlar biror mavzu yuzasidan nutq irod etishda shunga alohida urg'u berishgan.

Notqlik san'atining boshqa san'at turlaridan farqi shuki, bunda ijtimoiy ahamiyat, ko'lamdorlik birmuncha kattaroq bo'ladi. Odamlarga yillab uqtirib bo'lmagan yumushni, vazifani kuchli notiq bir soatda bajarishi mumkin. Inson ruhiyatini yaxshi bilish, yillar davomida to'plangan tajriba va bilim hamisha notqlik dargohining kalitlari sanalib kelingan. Kimda-kim agar ushbu kalitlarga ega ekan, bimalol ko'plar ichida o'z o'rni va rahbarlik salohiyatiga ega bo'ladi.

Ko'pincha buyuk sarkardalar, davlat va jamoat arboblari kuchli notiq ham bo'lishgan. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Shu o'rinda bir mulohaza. Notqlik san'ati bu faqatgina so'z san'ati deguvchilar ham yanglishadilar. Negaki, majoziy ma'nolar tashuvchi vositalar orqali "nutq so'zlash" qadim zamonlardanoq Sharq xalqlariga xos betakror uslubdir.

Tarixdan ma'lumki, dastlab turli narsa-buyumlar axborot vositalari vazifasini bajargan. Hayratlanarlisi, ushbu an'ana biz-

ning kunlarda ham davom etib, odamlar o'z mulohazalarini bildirish maqsadida turli jonli-jonsiz predmetlardan vosita sifatida foydalanishmoqda. Eng qadimgi odamlar foydalangan axborot vositalari ibtidoiy dunyoqarashdan kelib chiqqan. Yozuv paydo bo'lmagan vaqtda o'ziga xos buyum-maktublardan aloqa vositasi sifatida foydalanilgan bo'lsa-da, ular fikrni uzatmas, faqat eslatardi. Turli buyumlardan axborot vositalari sifatida foydalanish zamonaviy yozuvga olib keluvchi uzoq mashaqqatli yo'ldagi birinchi qadam bo'ldi. Keyinroq buyumlarga aniq ma'no berila boshlagan. Ular oldindan kelishib olingan narsalarni bildiruvchi o'ziga xos signallar, shartli belgilar bo'lib, cho'pxatga yoki daraxt tanasiga kertib belgi solish, tugunlar, tizimchalar, urush vaqtida esa kamon o'qi va boshqa buyumlar bunga misol bo'ladi. Buyumga ma'no biriktirib qo'yishning bunday usulini hozirgi olimlar "Buyumli yozuv" deb atashadi. Butun jamoa uchun umumiy ma'noni anglatuvchi vositalar qachon paydo bo'lgani esa hali aniqlanganicha yo'q.

Sohibqiron Amir Temur hayotida ham majoziy xatlar bilan bog'liq holatlar ko'p uchraydi. Bu to'g'rida yozuvchi Xurshid Davronning "Sohibqiron nabiralari" voqeyiy qissasida qiziq bir rivoyat keltiriladi: aytishlaricha, Sohibqiron uzoq janggohdan turib zavjasi Saroymulkxonimga maktub bitib, uni bir chopardan jo'natadi. Ammo chopar yosh, qiziqqonroq ekan. Yo'lda ketayotib, maktubni ochib o'qiydi. Samarqandga yetib borib, oqila malika Saroymulkxonim bilan uchrashadi va buyuk amirning maktubini yetkazadi. Saroymulkxonim maktubdagi muhr buzilganini sezadi-yu, bir zum o'ylanib qoladi. Choparga bir-ikki kun hordiq olib, so'ngra yo'lga chiqishni aytadi, ammo javob maktubidan gap ochmaydi. Oradan ikki kun o'tgach, chopar malika huzuriga kelib javob maktubi bilan yo'lga — Temurbek huzuriga otlanmoqchi ekanini aytadi. Shunda malika uni bir ko'rkam boqqa boshlab boradi. Xizmatkorlar yeng shimarib ishga tushadilar. Chopar ham malikaning buyrug'i bilan bu ishda qatnashadi. Shu kuni kechgacha Saroymulkxonim boshchiligida bog'ning katta-katta daraxtlari qo'porib tashla-

nadi. Bitta qo'ymay tozalangach, yangi nihollar o'tqazishadi. Har bir niholni yerga qadash jarayonini Saroymulixonimning o'zi nazorat qiladi. Ertasiga choparga ruxsat berilganda uning qo'lida javob maktubi yo'q edi. Saroymulxonim choparning zimmasiga Samarqandda ko'rganlarini aytishni topshiradi. Sohibqiron bo'lgan voqyeani zumda ilg'ab oladi va muammoning yechimi topilganidan xursand bo'lib, choparni jazolamaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, notqlik san'ati juda keng qamrovli tushunchadir. Uni bir qolipga solib o'rganish, aniq chegaralash mumkin emas.

Nazorat uchun savollar

1. Notqlik san'atining qanday tavsiflari mavjud?
2. Buyuk sarkardalarning notqlik mahorati nimada ask etgan?
3. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev notqlik mahoratiga misollar keltiring.
4. "Buyumli yozuv" usuli — qanday yozuv?
5. Amir Temur hayotida majoziy xatlarning o'rni qanday?

NUTQ MAQSADINI ANIQLASH VA REJASINI TUZISH, MAVZU TANLASH

Ko'pchilik nutq tayyorlayotganda, qo'liga qog'oz va qalamni olib, nutqning kirish so'zlaridan to xotimasigacha yozishga odatlanib qolishgan. Bir necha soatlik mehnatdan so'ng, nutq ham tayyor, chiqindi qutisi ham xomaki ishlangan nutq rejasiga to'lgan bo'ladi. Nutq tayyorlashning bunday usuli barchaga tanish. Aslida bundan samarali yo'l mavjud. Bu usulni qo'llaganda, nutqni boshidan oxirigacha so'zma-so'z yozishning hojati qolmaydi, aksincha mashq qilishga ham ko'proq vaqt bo'ladi. Ustiga-ustak, nutqimiz yanada qiziqarli va harakatga undaydigan bo'lib, uni erkin tarzda so'zlay olasiz.

Ommaviy nutq bilan chiqadigan notiq'larga nutq rejasi taqdim etiladi. Ammo ko'p hollarda, nutq rejasi berilmay, shunchaki nutqning predmeti yoki muayyan mavzu beriladi. Yoki tayyor maqola asosida nutq aytish topshirilishi mumkin. Ba'zida esa, hatto shunchaki nima haqida va qanday qilib gapirish kerakligini aytishadi, xolos. Ushbu barcha hollarda, o'zimiz nutq rejasini tuzishingiz lozim. Bunday rejada asosiy fikrlar keltirilib, har bir asosiy fikr bosh harflar bilan yoziladi va chap tomondagi hoshiyaning yonginasida joylashadi. Har bir asosiy fikrdan keyin, uni quvvatlovchi ikkinchi darajali fikrlar keltirilgan. Ikkinchi darajali ushbu fikrlarni oydinlashtiradigan fikrlar esa, ulardan keyin keltirilib, yangi satrdan boshlangan va o'ng tarafga ko'proq siljigan holda yoziladi. E'tibor bering, ikkita asosiy fikr mavzu bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Ko'rib turganingizdek, ikkinchi darajali fikrlar ham shunchaki qiziqarli bo'lgani uchun qo'yilgani yo'q. Ularning har biri yuqoridagi asosiy fikrni qo'llab turibdi. Asosiysi, nutq rejasini tuzishning mohiyatini tushunish, ma'lumotlarni to'g'ri taqsimlay olish. Shunda nutqni ham qisqa vaqt ichida tayyorlash mumkin.

Buni nimadan boshlasa bo'ladi? Tahlil qilish, tanlash va taqsimlashdan. Avvalo bizga mavzu kerak bo'ladi. Mavzu — shunchaki, masalan bir so'z bilan ifodalash mumkin bo'lgan umumiy fikr emas. Bu, tinglovchilarga yetkazib berishimiz kerak bo'lgan markaziy g'oya hisoblanadi. Predmetni qaysi tomondan yoritib berish mumkinligini mavzu ko'rsatib beradi. Agar mavzu berilgan bo'lsa, undagi barcha so'zlarni ko'zdan kechiriladi. Mabodo mavzuni qandaydir maqolaga asoslab yoritib berish kerak bo'lsa, mavzuni hayolimizda ushlab, ushbu maqolani tadqiq qilish kerak bo'ladi. Bordi-yu, bizga nima haqida gapirish kerakligi aytilgan bo'lsa, mavzuni o'zimiz tanlashimiz lozim. Bundan oldin esa, qisqacha izlanish olib borish kerak. Kuzatuvchan bo'lsak mavzuga boshqa tomondan yondasha olamiz. Ushbu qadamlarni qo'yganimizdan so'ng, o'zimizga quyidagi savollarni berib ko'rish lozim: «Bu ma'lumot

tinglovchilarimga nima uchun muhim? Maqsadim qanday?» Bizning maqsadimiz, kerakli ma'lumotlarni shunchaki yetkazish va nutqni yodda qoladigan qilish emas. Tinglovchilarimiz nutqdan foyda olishlari darkor. Ular aynan qanday foyda olishlari kerakligini aniqlaganimizdan keyin, buni yozib qo'yamiz va tayyorgarlik davomida uni yodda saqlaymiz.

Maqsadimizni aniqlab olib, mavzuni tanlab bo'lganimizdan (yoki mavzu bilan maqsad orasidagi bog'liqlikni ko'ra olganimizdan) keyin, izlanishni aynan shu yo'nalish bo'yicha o'tkazishimiz mumkin. Tinglovchilarimiz qadrli deb biladigan narsani topishga harakat qilish kerak. Umumiy qilib gapirish bilan chegaralanib qolish mumkin emas. Aksincha, aniq, mazmunga boy va haqiqatan ham foydali fikrlarni topishga intilamiz, biroq izlanish o'tkazishda oshirib yuborish zararli. Odatda, topilgan ma'lumot keragidan ham ortib ketadi. Natijada, keraksizini olib qo'yishga to'g'ri keladi.

Mavzuni yoritib berish va maqsadga erishish uchun, asosiy fikrlarni aniqlashga harakat qilamiz. Ular nutqimizning o'zagi hamda poydevori hisoblanadi. O'zi nechta asosiy fikr bo'lishi kerak? Katta bo'lmagan muhokama uchun 2 ta, bir soatlik nutqlar uchun esa, 5 tasi yetarlidir. Asosiy fikrlar qanchalik oz bo'lsa, tinglovchilar ularni shunchalik yaxshi eslab qolishadi.

Mavzu bilan asosiy fikrlar tayyor bo'lgan bo'lsa, yig'ilgan ma'lumotlarni taqsimlash kerak. Asosiy fikrlarga bevosita bog'liq bo'lganlarini ajratib olamiz. Nutqimizni jonli qiladigan fikrlarni saralab olamiz. Asosiy fikrlardan keyin keladigan ikkinchi darajali fikrlarni ham yozib qo'yamiz. Mabodo qaysidir ma'lumot hatto juda qiziqarli bo'lsa-da, bironta asosiy fikr bilan bog'liq bo'lmasa, ularni qo'shmaymiz. Juda bo'lmaganda, uni saqlab qo'yib, ehtimol boshqa safar qo'llashimiz mumkin. Nutqqa eng keraklisini kiritamiz. Agar, ma'lumot ko'p bo'lsa, tez gapirishimizga to'g'ri keladi. Natijada esa, hech qaysi fikrni yaxshi yoritib bera olmaymiz. Yaxshisi ozgina bo'lsa ham, tinglovchilar uchun foydali va amaliy qilib yetkazgan ma'qul. Chegaralangan vaqtdan oshirib yubormagan ma'qul.

Tayyorgarlikning shu bosqichida, hatto oldinroq ham, ma'lumotni mantiqiy tartibda taqsimlashimiz lozim. Ma'lumot taqsimlashning turli usullari mavjud. Masalan, xronologik, mavzu bo'yicha, sabab va oqibat hamda muammo va yechim tariqasida taqsimlash mumkin. Asosiysi, tanlagan usulimiz maqsadimizga erishishga ko'maklashsin. Qolaversa, bir fikrdan ikkinchisiga sakrab o'tish ma'qul emas. Tinglovchilarimiz aytilayotgan fikrlarning yo'nalishini qiynalmasdan kuzatishsin. Aniqrog'i, nutqimizda mantiqiy izchillik, tartib ko'rinib tursin. Ma'lumotni taqsimlayotganimizda, nutqimiz tinglovchilar tomonidan qanday qabul qilinishini yodda tutish lozim. Aytilayotgan fikrlarni osonlikcha ilg'ashadimi? Ular eshitishayotganlariga muvofiq harakat qilishga chorlanishadimi? Bu biz qo'ygan maqsad bilan hamohang bo'ladimi?

Endi, nutqda aytiladigan narsalarga tinglovchilarning qiziqishini uyg'ota oladigan va nutq ular uchun foydali ekanini ko'rsatib turadigan kirish so'zlarini o'ylab qo'yishimiz lozim. Kirish so'zlarini yozib olsak, hayajonlanib, unutib qo'ymaymiz. Oxirida esa, maqsadga muvofiq harakatga undovchi xotima tayyorlashimiz lozim.

Nutq rejasini ertaroq tayyorlab qo'ysak, uning ustidan ishlash uchun ham vaqt yetarli bo'ladi. Balki, qaysidir joyida tasdiqlash maqsadida yaqqol misol, hayotiy voqea yoki statistik ma'lumot qo'shib qo'yishni lozim deb toparmiz. Misol tariqasida dunyoda sodir bo'layotgan yoki hududimizdagi insonlarni qiziqtirgan hodisalardan keltirsak, nutqimiz tinglovchilar uchun dolzarb ekanini ko'rsatgan bo'lamiz. Nutqimizni qayta ko'rib chiqish orqali, topilgan ma'lumotni tinglovchilarga yanada moslashtira olamiz. Yaxshi ma'lumotdan yurakka ta'sir etadigan amaliy nutq chiqishi uchun, tahlil qilish va ustidan ishlash o'ta muhim hisoblanadi.

Ba'zi ma'ruzachilar nutq rejasini qisqagina yozib qo'yishsa, boshqalari batafsil qilib yozishni ma'qul ko'rishadi. Ammo ma'lumotni bir nechta asosiy fikrlarga bo'lib, bevosita bog'liq bo'lmaganlarini olib tashlasak va uni mantiqiy tartibda taqsim-

lasak, biroz vaqt o'tganidan so'ng, nutqni so'zma-so'z yozib olishning hojati yo'q ekaniga amin bo'lamiz. Ana shunda, vaqt-ni tejay olamiz! Bundan tashqari, nutq aytish mahorati ham oshib boraveradi.

Ma'lumotlarni saralayotgoanda quyidagi savollarga javob topishimiz kerak:

1) Ushbu ma'lumot tinglovchilaringizga nima uchun muhim deb hisoblayman?

2) Ushbu ma'lumotlarni keltirishdan maqsad nima?

Reja bo'yicha gapirish bilan yozib qo'yilgan matndan o'qishning qandaydir farqi bormi? Albatta, matn yozib qo'yilgan bo'lsa, so'z tanlash va asosiy fikrni esdan chiqarib qo'ymaslik uchun qo'l keladi. Ammo nutq qog'ozdan o'qib berilganda, yurakka ta'sir qilish qiyinroq kechadi. Kishi uzundan-uzun matnni o'qiganida, so'zlashuv nutqidan farqli ravishda ovoz ohangi va tezligi bir xil tus oladi. E'tiborimiz tinglovchilarga emas, balki matndagi yozuvlarga qaratilgan bo'lsa, ular bizni diqqat ila tinglamasligi mumkin. Nega deganda, biz nutqni ularning hayoti bilan bog'lamaganimizni sezib qolishadi. Shunday ekan, tinglovchilarni muayyan harakatga undashni istasak, nutqni oldindan yozib qo'yilgan matndan o'qish emas, balki erkin tarzda va chin yurakdan gapirishimiz lozim.

Agar tinglovchilar savol berishga yoki qarshilik qilishga moyil bo'lishsa, o'sha mavzu bo'yicha izlanish olib borish kerak. Buning uchun mavzuimizga bevosita va bilvosita materiallarni chuqur o'rganishimiz, tahlil qilishimiz zarur.

Nutq rejasini tuzishdan maqsad - fikrlarni eslatib turishdir. Ehtimol, nutqning boshida aytmoqchi bo'lganlaringizni, ya'ni kirish so'zlarini to'liq yozib olishni ma'qul deb bilarmiz. Lekin bundan keyin, diqqatimizni so'zlarga emas, fikrlarga qarating. Bu fikrlarni gap tariqasida tuzmoqchi bo'lsak, ularni qisqagina qilib tuzish lozim. Muhokama qilmoqchi bo'lgan asosiy fikrlarimiz aniq ajralib turishi darkor. Ularning tagiga chizish, katta harflar yoki boshqa rangda yozish mumkin. Har bir asosiy fikrning tagiga ularni yoritib beradigan ikkinchi darajali fikrlarni

yoziq qo'yamiz. Qandaydir yaqqol misol qo'llamoqchi bo'lsak, uni ham rejaga kiritib qo'yish lozim. Nutq rejasini batafsil bo'lishi uchun, uni aniq fikrlar va dalillar bilan to'ldirish darkor. Qolaversa, reja batartib tuzilgan bo'lsa, undan foydalanish oson bo'ladi.

Ayrim notiqalar rejasiga faqatgina asosiy fikrlarni kiritishadi. Bu kalit so'zlar, yoddan aytib bermoqchi bo'lgan voqealarni va fikrlarni eslashiga ko'maklashadigan belgi, rasmchalar, faktlar bo'lishi mumkin. Bunday tuzilgan reja yordamida nutqni mantiqan to'g'ri va suhbat tariqasida so'zlasa bo'ladi.

Bizning vazifamiz nafaqat nutq rejasini tuzish, balki undan yaxshi foydalanishni ham o'rganishdan iborat. Rejadan foydalanish topshiriqqa tayyorgarlik ko'rishdan boshlanadi. Avvaliga nutqning mavzusiga qaraymiz, keyin asosiy fikrlarini o'qib chiqamiz. Shuningdek, ular mavzu bilan qanday bog'liq ekanini o'zimiz tushunib olishga harakat qilamiz. Har bir asosiy fikrga qancha vaqt ajratishimizni ham aniqlab olamiz. Boshidagi fikrga qaytib, uni o'rganib chiqamiz. Ana undan keyin, dalillarni, misollarni va mavzuni yoritib berish uchun qo'llamoqchi bo'lgan voqealarni yana bir bor takrorlaymiz. Ma'lumotning shu qismini yaqqol tasavvur qilmaguningizcha takrorlayveramiz. Asosiy fikrlarning keyingilarini ham shu tarzda tayyorlaymiz, shuningdek, nutqni o'z vaqtida yakunlash uchun, kerak bo'lsa ayrim fikrlarni olib qo'yamiz. Undan keyin nutqni yana bir marta takrorlab chiqamiz. E'tiborni so'zlarga emas, fikrlarga qaratamiz. Nutqni yodlab olishga urinish kerak emas.

Nutq so'zlayotganimizda, tinglovchilar bilan ko'z ila aloqa bog'lashimiz lozim. Misol keltirayotgan bo'lsak, uni o'qib berishning o'rniga, go'yo do'stimizga aytib berayotgandek so'zlashimiz lozim. Har bir gapdan so'ng matnga qarayverish yaxshi natija bermaydi. Chin dildan gapirsak, nutqimiz tinglovchilarning qalbiga yaxshi yetib boradi.

Rejani oddiygina tuzish maqsadga muvofiq, toki shunchaki ko'z tashlaganda ham osongina o'qilsin. Topshiriqqa tayyorgarlik ko'rayotib, fikrlarni takrorlash lozim, so'zlarni yodlash foyda bermaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Nutq rejasini tuzish mexanizmini aytib bering.
2. Nutqimizni jonli qiladigan misollarni qaerdan olinadi?
3. Asosiy (o'zak) fikr deganda nimani tushunasiz? Misollar keltiring.
4. Mavzuga bevosita va bilvosita oid materiallarni o'rganish nima uchun kerak?
5. Ma'ruza paytida nutq rejasidan qanday foydalaniladi?

MA'RUZA MATNLARINI TAYYORLASH

Taniqli notiqalar o'z nutqlarining namunali bo'lishini ta'minlashda quyidagi asosiy holatlarga alohida e'tibor berganlar:

1. O'zi to'xtalmoqchi bo'lgan masala yoki mavzuni chuqur o'rganish.
2. O'z dunyoqarashiga ega bo'lish, fikrlarni ilmiy asoslash.
3. Mavzuga mas'uliyat bilan yondashish.
4. Ma'ruza paytida tinglovchilar bilan nihoyatda yaqin aloqa, muloqotni ta'minlash.
5. Har bir nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko'rish. Ma'lum rejalar tuzib, to'xtalishi zarur bo'lgan o'rinlarni belgilab olish.

Namunali nutqni ta'minlovchi asosiy vositalar shular bilan cheklanmaydi. Ushbu omillarni yuzaga keltirishda yana bir omil borki, tilni yaxshi bilish, undan o'rinli va to'g'ri foydalanish malakasiga ega bo'lish. Notiq nutqining samarali chiqishi haqida o'ylar ekan, avvalo, ishni nimadan boshlash kerakligini rejalashtirib oladi. Nutqqa tayyorgarlik ko'rishning uch bosqichi farqlanadi: 1) ma'ruzadan oldin; 2) ma'ruza paytida, 3) ma'ruzadan so'ng.

Har bosqichda notiq turli ruhiy holatlarni boshidan kechiradi. Masalan, ma'ruzadan oldin notiq izlanadi, o'qiydi, o'zlashtiradi va o'zining bilim-tajribalariga tayangan holda ma'ruzaga tayyorgarlik ko'radi. Ushbu mehnat jarayonida turli ruhiy holatlarni boshidan kechiradi: gohida yangi ma'lumotlarni

olib, rohatlansa, gohida tinimsiz mehnat orqali charchab, asabiy holatda bo'lishi mumkin. Notiq qaerda, qanday sharoitda nutq so'zlashini oldindan bilishi lozim: zaldami, xonadami, auditoriyadami; u yerda mikrafon, minbar bormi — yo'qmi? Hattoki xonada stol va stullar qanday joylashganligi haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak va o'zining ruhiy holatini shunga moslab tayyorlaydi.

Ma'ruza paytida notiq turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Shunga qarab uning ruhiyati ham turlicha bo'ladi. Lekin malakali notiq har qanday vaziyatda ham hech qanday his-tuyg'uga berilmay, to'g'ri yo'lni topa oladi. Notiq auditoriya bilan aloqa o'rnatish olishi kerak. Chunki so'zning yarmi gapirayotganga, yarmi eshitayotganga tegishli. Agar tinglovchilarning diqqatini qozona olmasa, nutqning sifatiga putur yetadi. Buning uchun "ko'z orqali aloqa" o'rnatish kerak: tinglovchilarning har biriga nazar tashlab chiqish kerak.

Ma'ruza boshlashdan oldin 5-7 soniyalik psixologik pauza (to'xtam) o'tkazish kerak.

Ma'ruzada aytiladigan "birinchi so'z" muhim ahamiyatga ega. Agar birinchi so'z muvaffaqiyatli chiqsa, u notiqning mahoratidan dalolat beradi. Chunki tinglovchilarning diqqatini tortish juda mushkul ish. Tinglovchi birinchi so'zdanoq notiqning qanday mutaxassis ekanligini bilib oladi.

Mavzu qanchalik qiziq bo'lmasin, vaqt o'tishi bilan auditoriyaning qiziqishi, diqqati susaya boradi. Uni saqlash uchun quyidagi notiqlik usullaridan foydalanish mumkin:

1) Savol-javob usuli. Notiq savol tashlab, o'zi javob beradi.

2) Monologdan dialogga o'tadi. Tinglovchilar bilan muloqotga kirishadi.

3) Muammoli vaziyat hosil qiladi. "Nimaga?" degan savol tashlaydi.

4) Yangi ma'lumot, gepoteza, qonun-qoidalarini o'rta qo'yish tashlaydi. Auditoriyani o'ylashga undaydi.

5) O'zining tajribalari, fikrlarini ifodalash.

6) Ma'lumotning amaldagi ahamiyatini misollar bilan ifodalash.

7) Yumordan foydalanish.

8) "Qisqagina" mavzudan chetga chiqish.

9) Ovozni pasaytirib borish. ("tixoy golos" usuli)

Psixologlarning fikricha nutqning 25 foizi ko'rish orqali qabul qilinadi ekan. Shuning uchun ma'ruza paytida notiq tashqi ko'rinishiga, qo'l va yuz harakatlariga ham ahamiyatli bo'lishi kerak.

Hozirgi axborot globallasuvi davrida axborot uzatish yo'llarini yaxshi egallash dolzarb masalalardan biridir. Axborot uzatish yo'llari turli usulda: og'zaki, yozma va tasvir orqali bo'lishi mumkin. Shulardan eng muhimi, og'zaki muloqot bo'lib, uning eng yuqori bosqichi — notiqlik san'atidir.

Bejiz notiqlik san'ati til va uslub masalalari haqidagi mulohazalarimizni yozuvlar tarixidan boshlamadik. Negaki, notiqlik san'atining asosiy quroli bu — so'zdir. So'z insonni ming xil rangda akslantiradi. Donishmandlar aytganidek, bir og'iz so'z bilan inson umri obod bo'lishi ham mumkin, barbod bo'lishi ham mumkin. Ammo ana shu so'zning dastavval qachon paydo bo'lgani insoniyat tomonidan ochildirgan jumboqlardan biridir. Har holda so'zda ilohiylik, g'ayrushuriylik bor. Ko'p hollarda yaxshi nutqlardan so'ng ta'sirlanib, yig'lab yuboramiz, hayajonga tushamiz — bularning bari ana shu ilohiylik deganimizga dalil emasmi?

Albatta, ta'sirli nutq so'zlash har kimning qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun mahorat talab qilinadi. Har qanday mahoratli notiq ma'ruza tayyorlash va uni o'tkazi bosqichlarini egallasagina, uning nutqi mukammal bo'ladi.

Notiqlik san'ati - og'zaki, monologik nutq bo'lib, auditoriyaga ta'sir ko'rsatish maqsadi birinchi o'rinda turadi.

Mumtoz notiqlik san'ati asosida besh bosqich yotadi:

1) kerakli materiallar yozish (kashf etish);

2) reja tuzish, yozilgan materialni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish;

3) soʻz, nutq orqali fikr ifodalash; nutqni adabiy qayta ishlash, matn yaratish;

4) matnni eslab qolish (xotira);

5) matnni ogʻzaki ifodalash.

Hozirda notiqlik sanʼatida uch bosqich farqlanadi:

1) Maʼruzadan avvalgi bosqich.

2) Maʼruza vaqtidagi bosqich.

3) Maʼruzadan keyingi bosqich.

Maʼruzadan avval	Maʼruza vaqtida	Maʼruzadan soʻng
Mavzuni aniqlash va chiqishdan maqsad	Nutq ifodalash. Gapirish	Nutqni tahlil qilish. Analiz
Auditoriya va muhitni baholash	Savollarga javob berish va xulosa chiqarish	
Maʼlumot tanlash		
Matn tuzatish		
Qaytarish		

Bugungi mavzu qaysi mavzudan keyin kelishini ham eʼtiborga olish kerak, oldingi mavzudan qiziqroq mazmun va shaklga ega boʻlishi kerak.

Maʼruzadan avvalgi bosqichda matn yaratish - material toʻplash va saralash lozim. Bir emas, bir necha adabiyotlardan foydalanish kerak.

Materiallar guruhlariga boʻlinadi.

1) Notiqning malakasi, kuzatishlari orqali olgan bilimlari.

2) Bevosita hujjatlar, adabiyotlar-ilmiy-badiiy gazeta materiallari, bildirgich adabiyotlar.

3) Savol-javob. Ijtimoiy soʻrovnoma.

Shaxsiy tajriba har doim yaxshi qabul qilingan. Nazariya va faktlarga asoslangan boʻlishi mumkin.

Har qaysi nutqning janrlariga qarab, uning yoʻnalishi belgilanadi. Masalan, hisobot dokladda koʻplab dalillar orqali isbot-

lash va tinglovchini ishontirish yotadi, oldindan raqamlansa, ismlar va ma'lumotlarni aniq qayd qilib olinadi. Materiallarni bir tizimga solar ekan, notiq reja tuzadi, ma'ruza kompozitsiyasini yaratadi, matnning mantiqiy qurilishini hisobga olib, nima boshlash kerakligini ham o'ylaydi.

Yozma nutq yaratish bir qancha qulayliklarni yuzaga keltiradi:

1. Yozma nutqni tahrir qilish, mukammallashtirish mumkin.

2. Yozilgan nutq yaxshi esda qoladi.

Nutqni alohida qog'ozlarga yozish kerak.

Malakali notiq tezislari bilan kifoyalanadi.

Nutq ifodalashning uch xil turi farqlanadi:

1) Matnni o'qib berish.

2) Xotiradagini og'zaki va ayrim joylarini o'qib berish (matnga suyangan holda).

3) Erkin improvizatsiya (ekspromt).

Notiq qaerda va qanday sharoitda nutq so'zlashni ham oldindan bilishi va e'tiborga olishi lozim. (Zaldami, xonadami, auditoriyadami, u yerda mikrofon, kafedra bormi — yo'qmi?)

Yo'nalish	Izoh
Auditoriyada	Notiqni auditoriyadan ajratadi. qaytish aloqasi qiyinroq. Tinglovchilar bilan yaqin munosabat o'rnatish imkoniyati kamayadi.
Konferensiya	Rasmiy fikrlarni qarama-qarshi ifodalashga qulay.
Taqa shaklida	Hamkorlikka va og'zaki muloqotga qulay. Nazorat qilish oson.
V shaklida	Notiq boshchiligida qatnashuvchilarning hamkorliklarini oshiradi
Davra yoki dumaloq stol	Tinglovchilarni birlashtirishadi. Erkin fikr ifodalashga qulay
Kabare	Kichik guruhlariga ajratib ishlashga qulay. Diqqatni bir joyga to'plashga qiyinchilik tug'diishi mumkin.

Notiq qaysi nutqdan keyin soʻzga chiqishini ham eʼtiborga olishi kerak. Keyingi nutq oldingisidan qiziqarliroq va mukammalroq boʻlishi kerak.

Notiq auditoriya bilan aloqa oʻrnata olishi lozim.

Soʻzning yarmi gapirayotganga tegishli yarmi eshitayotganlarga.

Notiq auditoriyani diqqatini qozonish uchun (koʻz orqali) aloqa zarur, ularni har biriga nazar tashlab chiqishi natijasida tinglovchilarni oʻrganish imkoniyatiga ega boʻladi.

5-7 sekundli psixologik pauza oʻtkazish ham yaxshi natija beradi.

Mavzu qanchalik qiziq boʻlmasin, vaqt oʻtishi bilan auditoriyaning qiziqishi susaya boradi.

Nutqning samarasini oshirish va tinglovchilar diqqatini oʻziga qaratish uchun quyidagi notqlik usullaridan foydalanish mumkin:

- 1) Savol-javob usuli: notiq savol boshlab, oʻzi javob beradi.
- 2) Monologdan dialogga oʻtadi. Tinglovchilar bilan muloqotga kirishadi.
- 3) Muammoli vaziyat hosil qilinadi. «Nimaga?» degan savol tashlanadi.
- 4) Yangi maʼlumot, gipoteza, qonun-qoidalar oʻrtaga tashlanadi, auditoriyani oʻylashga majbur qilinadi.
- 5) Notiqning hayotiy tajribasi, fikrlarini ifoda etishi tinglovchilarda qiziqish uygʻotadi.
- 6) Maʼlumotning amaldagi ahamiyatini misollar orqali ifodalash.
- 7) Yumordan foydalanish.
- 8) «Qisqagina» mavzudan chetga chiqish.
- 9) Ovozni pasaytirib borish.

Notiqning holati, tabiati, mimikalari.

Psixologning taʼkidlashicha, nutqning 25%i koʻrish orqali qabul qilinarkan. Shuning uchun maʼruza paytida notiq qoʻl va yuz harakatlariga ham ahamiyatli boʻlishi kerak.

Bir joyda qotib turib soʻzlash tinglovchini zeriktiradi. Bir qadam oldinga chiqish ana shu nutqqa eʼtiborliroq boʻlishi kerakligini bildiradi.

Orqaga tashlangan bir qadam auditoriyani dam olishga, diqqatni sal boʻshatishga chorlaydi. Nutqning maʼnosiga mos keladigan, koʻzga tashlanmaydigan harakatlar qilish kerak.

Notiqning his-tuygʻularini ifodalovchi asosiy vosita yuz-koʻz ifodalari, mimikasi. A.F. Koni «Yuz til bilan birga gapirishi kerak» degan edi. Yaxshi notiqda ana shu holatlar boʻlishi shart. Auditoriya jahldor va hissizlarni yoqtirmaydi.

Demosfendan yaxshi notiqqa nima kerak, deb soʻraganlarida: “Imo-ishora, imo-ishora va imo-ishora!” deb javob bergan.

Notiqlikda intonatsiyaning ham ahamiyati katta. U nutqdagi fikr taʼsirini kuchaytirishda alohida oʻrin egallaydi. Notiq oʻz tinglovchilariga nima deyayotganligi bilangina emas, balki uni qanday ifoda etayotganligi bilan ham taʼsir etadi. Shuni unitmaslik kerakki, gapirilayotgan voqea-hodisalar mazmuniga chuqur yetmasdan turib, toʻgʻri intonatsiya topib boʻlmaydi.

Nutqda pauzaning ham ahamiyati katta. Pauza tinglovchilarga dam olish yoki fikrni toʻgʻri tushunish uchun mushohada qilish imkonini beradi. Notiq esa pauza paytida oʻzi gapirayotgan fikrlarni aniqroq va yorqinroq yetkazib turish usul va yoʻllarini izlaydi. Demak, pauzadan tinglovchilar diqqatini jalb etish maqsadida ham foydalaniladi.

Maʼruzadan soʻng esa notiq oʻz nutqini tahlil qiladi. Qayerda yutuqqa erishdi-yu, qayerda kamchiliklarga yoʻl qoʻyganligini notiqning oʻzidan yaxshi biladigan odam yoʻq. Keyingi maʼruzada ushbu narsalarga ahamiyat beradi. Demak, notiq nafaqat nutq jarayonida, balki undan oldin va undan keyin ham turli ruhiy holatlarni boshidan kechirar ekan.

Nazorat uchun savollar

1. Taniqli notiqlar oʻz nutqlarining namunali boʻlishini taʼminlashda qanday holatlarga alohida eʼtibor berganlar?

2. Maʼruzada birinchi soʻzning ahamiyati deganda nimani tushunasiz?

3. Ma'ruza materiallari qanday guruhlarga bo'linadi?
4. A.F.Konining «Yuz til bilan birga gapirishi kerak» degan fikri nimani anglatadi?
5. Ma'ruza o'qish mahorati deganda nimani tushunasiz?

HOZIRGI ZAMON NOTIQLIGI

Notiqlikning hozirgi tasnifi quyidagicha tasniflanadi ijtimoiy-siyosiy notiqlik, diniy-ma'rifiy notiqlik, sud notiqligi.

Qadimgi notiqlik san'ati matn yaratish qoidalarini qayta talqin etish hozirgi tadqiqotlarga xos notiqlik muloqoti amali voizlikka xos bilim va tajribani qisman amalga oshirishdir. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi: dalillash va asoslash, tarkiblash va tartiblash, uslubiy o'ziga xoslikni yaratish, auditoriya bilan ishonchli aloqa o'rnatish.

Hozirgi davr notiqligida uslubiy bilim va malaka notiqlik uslubiyati sohasini tashkil etadi.

Notiqlik uslubiyati rivoji jarayonidagi bosqichlar:

- 1) kommunikativ grammatika asosida shaxsiy-ijodiy nutq;
- 1) umumadabiy maromlardan chekinish nazariyasini shakllantirish;
- 2) notiqlik uslubiyatiga shakliy ifoda qismlarini ta'siriy-tasviriy vositalar bilan to'ldirish va matnga yaxlit kontekst sifatida yondashishni tadbiq etish.

Notiqlik uslubiyatining 2 aspekti farqlanadi:

- 1) nutqni tarkiblash haqidagi bilim;
- 2) bu bilimni amalga oshirish malakasi.

Notiqlik uslubiyati tamoyillarining birlamchisi ritorik figura bo'lib, uning asosiy vazifasi ritorik figuralarni ishlab chiqarishdan iborat. Bunda birinchi o'ringa ta'sirchanlik (effekt) chiqadi (matn hosil qilgan) ritorik qo'llashning adekvat modeli quyidagi talablarga javob berishi kerak: kommunikativ tizim funksiyalarini namoyon qilish, ifoda maromidan chekinishlarni taqdim etish, matn talqiniga tinglovchi nuqtai nazarini kiritish.

Hozirgi zamon hayot sur'ati ishchan muloqot jarayonida aniq, tezkor va muvofiq munosabat bildirishni talab etadigan favqulodda holatlarni vujudga keltiradi. Bu o'z navbatida muayyan bilimni, har qanday odam(lar) bilan muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishni talab etadi.

Zamonaviy notqlik san'atida eng muhim omillardan biri bu auditoriya bilan muloqot o'rnatishdir.

Notiqning muvoffaqqiyati ko'p jihatdan avvalboshidan tinglovchilar qalbiga yo'l topish, ular bilan aloqa o'rnatishga bog'liq, zero, muloqot jarayoni, birinchi navbatda odamlar o'rtasida axborot almashinishdan iborat bo'lib, undan ko'zlangan maqsad uzatilayotgan va qabul qilinayotgan axborotning tushunarligini ta'minlashdir. Buning uchun esa notiq va tinglovchi(lar) yoki suhbatdoshlar bir-birini hamkor sifatida qabul qilishi va shu asosda o'zaro tushunish muhitini yaratish lozim².

Auditoriya (suhbatdosh) bilan ruhiy, hissiy, aqliy muloqot o'rnatishning bir qator usullari mavjud. Buning uchun birinchi navbatda muloqot o'rnatishga halaqit qiluvchi to'siqlarni bartaraf etish lozim. Muhimi—tinglovchi(lar) bilan muloqot qilish istagi. Notqlik san'atining birinchi (asosiy) qoidasiga binoan notiq faqat o'ziga ma'qul, o'zi hurmat qilgan kishilargagina murojaat etishi kerak.

Tinglovchilar aytilgan so'zlarni qabul qilishlari uchun notiq ularda shaxsni ko'rishini, ularga nisbatan hurmati, ezgu niyatini ko'rsatishi kerak, shundagina ularning qalbida muvofiq javob hislar uyg'otish mumkin.

Tinglovchi(lar) bilan dastlabki aloqani o'rnatish butun aloqani o'rnatish butun muloqot jarayonining samaradorligini va keyingi kechuvini belgilaydi. Shuning uchun nutqning muvaffaqqiyati ko'p jihatdan tinglovchi(lar) va notiq o'rtasida tabiiy ravishda vujudga keladigan va muloqot o'rnatishga halaqit beruvchi to'siqlarni bartaraf etishga bog'liq. Nutqiy muloqot jarayonida tinglovchi nutqning ob'ekti sifatida namoyon bo'ladi

² Saidov U. Nutq madaniyati va notqlik san'ati. — T.: Akademiya. 2007. 75 b.

va «soʻzlovchi-tinglovchi» juftligida tinglovchi holati ustuvorlikka ega. «Tinglovchi albatta yo oddiy tomoshabin yoki sudya boʻladi», - degan edi bu borada yunon faylasufi Aristotel.

Notiq hisobga olishi kerak boʻlgan tinglovchi(lar) holatining ikki asosiy jihati mavjud: ruhiy-psixologik va fiziologik.

Dastlab nutqiy muloqotning ruhiy-psixologik jihati bilan bogʻliq toʻsiqlarni koʻrib chiqaylik. Psixologlarning taʼrifi boʻyicha muloqot notiq va tinglovchi(lar) oʻrtasidagi umumiy ruhiy holatdir. Soʻzlovchi va tinglovchi(lar) oʻrtasidagi salbiy tuygʻu-toʻsiqlar paydo boʻlishining oldini olish uchun avvalo, tinglovchi(lar) bilan ruhiy-hissiy muloqot oʻrnatishga harakat qilish kerak. Bunda notiq tinglovchi(lar)ga yetkazmoqchi boʻlgan fikr (axborot), yaʼni nutq mazmuni birlamchi ahamiyat kasb etadi. Notiq muvaffaqiyatining bosh mezonini tinglovchilar oldida soʻzlash emas, balki ular bilan gaplashish, ularning tilida soʻzlashishdir, chunki odamlar bilan faqat ularni qiziqtirgan, ularning dardiga aylangan masalalar doirasida gaplashish mumkin. Buning uchun notiq tinglovchilarni, nutq soʻzlanadigan muhitni oldindan oʻrganishi va ularga muvofiq nutq mazmunini belgilashi zarur. Kishi, masalan, xalq noiblarining mahalliy kengashiga saylanmoqchi va buning uchun, iloji boricha koʻproq odam unga ovoz berishiga intilayapti. Ana shu maqsadga erishish saylovchilar bilan uchrashuvda soʻzlaydigan nutqning mazmuni bilan bogʻliq. «Men — jamoa uchun foydaliman. Menga ovoz berib, odamlar yaxshiroq yashash imkoniyatiga ega boʻladilar», - degan fikrni shakllantiradi va bu fikrni turli guruhdagi saylovchilarga isbotlashga harakat qiladi. Saylovoldi dasturi aslini olganda ana shu fikrni isbotlashga qaratilgan dalillar jamlamasidir. Aytaylik, deputatlikka nomzod oʻquv yurtiga borib, oʻz dasturining tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bogʻliq muammolarga bagʻishlangan qismini bayon etdi. Ammo talaba va oʻqituvchilardan iborat tinglovchilar uchun tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning faoliyatini erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar va shu kabilar qiziq emas, ularning xohish istagi, intilishlari, muammolariga bu masalalarning

bevosita aloqasi yo'q shuning uchun notiq nutqi butkul foydasizga chiqadi va hech qanday samara bermaydi. Tadbirkorlar oldida ta'lim muammolari haqida gapirsa ham notiq xuddi shunday muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Bunday holatlarning oldini olish chorasi oddiy (garchi bu chorani amalga oshirish murakkab va notiqdan katta bilim va tajribani talab etadi), eng muhimi – tinglovchilarning qiziqishlari, dardlarini bilgan holda ularning «dil tillari»da so'zlashish. Ingliz faylasufi B.Spinoza tili bilan aytganda, notiq «kulishi, yig'lashi va nafratlanishi emas, tushunmog'i darkor». Ana shunda notiq va auditoriya bilan ruhiy-hissiy muloqot o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday muloqot o'rnatishning shakllari ko'p. Masalan, nutq oldidan biroz avval ro'y bergan va tinglovchilar kayfiyatiga ta'sir qilgan hodisaga bir og'iz munosabat bildirish yoki qiziqarli voqeani hikoya qilib, ularning kayfiyatini ko'tarish mumkin va h.k. Albatta, auditoriyaning tinglashga moyilligini uyg'otish uchun qanday shaklni tanlash konkret vaziyatga bog'liq. Har holda auditoriya uchun tushunarli va unda muayyan tuyg'ularni uyg'ota oladigan fikrni asoslash osonroq.

«Kaykovus bu borada shunday saboq beradi: «Har kishiga so'z aytur bo'lsang qarag'il, ul sening so'zingga xaridormu yoki xaridor emasmu? Agarda uni so'zingga xaridor topsang, unga so'zingni sotg'il. Yo'q ersa, ul so'zni qo'yib, shundoq so'z deg'ilkim, unga xush kelsin va sening so'zingga xaridor bo'lsin»³.

Tinglovchilar bilan muloqot o'rnatishga muayyan rol o'ynaydigan ruhiy sub'ektiv faktlardan yana biri – taraddud, boshqa so'zlar bilan aytganda tinglovchi(lar)ning nimani va kimdan eshitishga ichki tayyorgarligidir. Tinglovchi(lar) notiq shaxsiga – uning lavozimi, ilmiy darajasi, shaxsiy sifatlari, jamiyatda tutgan mavqeyi va shu kabilarga qarab uning nutqi, ilgari surgan fikrlarini qabul qilishga yoki inkor etishga oldindan moyil bo'ladilar. Shu jihatdan nutqga birinchi navbatda

³ Kaykovus. Qobusnoma. –T.: Istiqlol, 1994.49-b.

notiq shaxsining betakrorligi, o'ziga xosligining yorqin ifodasi sifatida yondoshmoq lozim.

Hozirgi davr notiqligining o'ziga xos jihatlari:

1. Keng auditoriyaga (tinglovchi yoki o'quvchilar ommasiga) mo'ljallanganlik.
2. Matn qurilishini tayin etuvchi tamoyilni matn yaratish tamoyili bilan almashtirish.
3. Tasvirlash andozasi mantiqiy asoslarini qo'llash.
4. Amaliy jihatdan ommaviy-axboriy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda bilan uzviy bog'liqligi.

Hozirgi davr notiqligida ma'ruza tayyorlash va uni o'tkazish bosqichlari juda katta ahamiyatga ega.

Notqlik san'ati - og'zaki, monologik nutq bo'lib, auditoriyaga ta'sir ko'rsatish maqsadi birinchi o'rinda turadi.

Klassik notqlik san'atida **ma'ruza tayyorlash** 5 bosqichda amalga oshiriladi:

- 1) kerakli materiallari yozish (kashf etish);
- 2) reja tuzish, yozilgan materialni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish
- 3) So'z nutq orqali fikr ifodalash. Nutqini adabiy qayta ishlash. Matn yaratish.
- 4) Matnni eslab qolish (xotira).
- 5) Matnni og'zaki ifodalash

Har qaysi nutqning janrlariga qarab uning yo'nalishi belgilanadi. Masalan, hisobot dokladda ko'plab dalillar orqali isbotlash va tinglovchini ishontirish yotadi, oldindan raqamlansa, ismlar va ma'lumotlarni aniq qayd qilib olinadi. Materiallarni bir sistemaga solar ekan, notiq reja tuzadi, kompozitsiyani o'ylab qo'yadi, tekstning mantiqiy qurilishini hisobga olib, nimadan boshlash kerakligini ham o'ylaydi.

Demak, hozirgi davr notqlik san'atining maqsadi qadimgi notqlik san'ati maqsadi bilan mushtarak bo'lib, farqi hozirda interfaol usullardan foydalana bilishda, zamonaviy axborot texnologiyalaridan me'yorida va unumli foydalangan holda yanada samaraliroq nutq so'zlash mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Hozirgi davr notiqligining o'ziga xos jihatlarini so'zlab bering.
2. Nutqni tarkiblash haqidagi bilim deganda nimani tushunasiz?
3. Bilimni amalga oshirish malakasi qanday orttiriladi?
4. Ruhiy-psixologik jihat bilan bog'liq qanday to'siqlar mavjud? Ularni qanday yengib o'tiladi?
5. Kaykovusning «Har kishiga so'z aytur bo'lsang qarag'il, ul sening so'zingga xaridormu yoki xaridor emasmu? Agarda uni so'zingga xaridor topsang, unga so'zingni sotg'il. Yo'q ersa, ul so'zni qo'yib, shundoq so'z deg'ilkim, unga xush kelsin va sening so'zingga xaridor bo'lsin» degan fikriga izoh bering.

II BOB. NOTIQ MEHNATINING PSIXOLOGIYASI

NUTQNING AXLOQIYLIGI – MUVAFFAQIYAT GAROVI

Jahling chiqqan zahoti so'zlashdan to'xta.
L.N.Tolstoy

“Amerikalik olim Ostin fikr ifodalashning uchta unsurini ajratadi: lokutsiya (gaplarning tarkibiy qismlari bo'lgan so'zlar), illokutsiya (so'zlarning ma'nosi) va perlokutsiya (so'zlarning yoki nutqning ta'siri, oqibati, samarasi). Bu tasnifni u ilk bor 1955 yilda Garvard universitetida ma'ruzalar to'plamida, keyinchalik “Buyumlarni so'zlar orqali yaratish” nomli kitobida keltiradi.

Xarvi Saks Xomskiyning fikriga zid fikrni beradi. U Xomskiyning lisoniy nutq tartibsiz, uni ilmiy jihatdan o'rganish qiyin, degan fikrini inkor etadi.

Saksning asosiy g'oyasi shundan iboratki oddiy suhbat xaotik va grammatik jihatdan tartibsiz, biroq ijtimoiy tashkil etilgan tartibli hodisa. Suhbat ham ma'lum qoidalarga bo'ysinadi, biroq uning tabiati o'zgacha”.⁴

Ikkita muammo — nutqning axloqiyligi va tinglovchi nuqtai nazari, bir qarashda, bir-biriga mutanosib emasdek, tuyuladi. Aslida esa, ular uzviy bog'liq. Inson ma'lum ruhiy holatda, masalan, tajovuzkor yoki tushkun kayfiyatda bo'lganida va bu

⁴ Ian Hutchby. Media Talk (Conversation Analysis and the Study of Broadcasting). -New York, 2006. Page 20.

holat boshqa insonlarning faoliyati yoki nutqi bilan bog'liq bo'lganda, unda tajovuzkor harakat qilish istagi tug'iladi. Har bir insonda ma'lum bir holatlarda nafrat tuyg'usi paydo bo'lishi, tabiiy. "Jahl chiqqanda aql ketadi" degan xalq maqoli dono xalqimiz tomonidan bekor aytilmagan. Biroq, inson uchun jamiyatda ijtimoiy, axloqiy, shaxsiy chegaralar o'rnatilgan. Har qanday harakat ham amalga oshmaydi, balki istak holida qolib ketadi. Demak, inson ongi ma'lum vaziyatlarda ba'zi harakatlarni amalga oshirishga, boshqalarini esa, amalga oshirmaslikka imkon beradi. Mana shu chegara inson shaxsining axloqiy to'sig'idir. Har bir shaxsning axloqiy to'sig'i jamiyat rivoji axloqiy darajasi bilan bog'liq, biroq shu paytning o'zida har bir inson individual. Uning axloqiy qarashlari jamiyat, davr qarashlaridan keskin farq qilishi mumkin. U axloqiy jihatdan davrdan orqada qolishi yoki, aksincha, ilgarilab ketishi mumkin. Notiqlikdagi eng asosiy qoidalardan biri faqat yaxshi munosabatda bo'lgan insonga qarata nutq bilan murojaat qilishimiz mumkin. Bu talab ko'plab nutqlarga ta'qiq o'rnatadi. Agar bu qoidani mantiqiy nuqtasiga keltirilsa, Bizni asabiylashtirayotgan inson nutqimiz ob'ekti bo'lishi mumkin emas. Bu juda qattiq talab, biroq unga rioya qilishga intilish zarur. Shu nuqtai nazardan "Biz uchun yoqimsiz bo'lgan insonga qarata nima uchun nutq bilan murojaat qilib bo'lmaydi?"- degan savol tug'iladi.

Har bir harakatning negizida harakat sababi yotadi. Nutq ham harakat, uning asosida har doim muayyan ruhiy maqsad yotadi. Tasavvur qiling, o'zingizga yoqmagan insonga nutq bilan murojaat qilyapsiz. Maqsad turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, o'rganiluvchi til sifatida fransuz tilini o'rganishga undash. Bir qarashda, maqsadning o'zida salbiy jihat yo'q. Fransuz tilining chiroyliligi, fransuz nutqining talaffuz jihatidan jozibaliligi bu maqsadning ijobiyligidan dalolat beradi. Biroq, nutq so'zlayotganingizda nafaqat asosiy maqsadingiz, balki o'zingiz anglamagan ichki psixologik maqsadlaringiz ham namoyon bo'la boshlaydi. Chunki nutqning real matni insonning nutq paytidagi ko'plab maqsadlardan kelib chiqadi.

Va bunda nafaqat asosiy maqsad (fransuz tilini tanlash), balki suhbatdoshingizga nisbatan loqaydlik, befarqlik (chunki unga nisbatan munosabatingiz ijobiy emas) amalga osha boshlaydi. Suhbatdoshimiz esa, birinchi navbatda, ong ostida unga nisbatan befarqligimizni his qiladi va asosiy maqsadimizga befarq bo'lad (yoki ishonmaydi). Sababi, biz tomondan o'ziga nisbatan hurmat, ehtirom va do'stona munosabatni his qilmaydi.

Inson shunday yaratilganki, muloqot paytida u ong osti hududidagi axborotni, odatda, yashira olmaydi. Ong osti — insonning haqiqiy his-tuyg'ularini oshkor etuvchi asosiy makondir: u har doim ochiq. Atrofdagilarga nisbatan ichki hissiyotlar muloqot paytida nutq so'zlovchi qanchalik berkitishga harakat qilmasin ko'rinadi yoki eshitiladi. Asosan ko'rinadi, chunki Body Language (tana tili: imo-ishora, jestlar, poza va sh.o'.) ong osti belgilar tizimidir. Mazkur belgilar tizimi nutqda tabiiy til (tinglovchi quloq pardasiga kelib tushadigan tovush to'lqini) bilan parallel mavjud. Tabiiy til — ongning belgilar tizimi, Shuning uchun uni amalga oshirish intellektual to'g'rilashga muhtoj (masalan, inson bironi aldashi, ya'ni, maqsadga muvofiq bo'lsa, noto'g'ri axborot berishi mumkin).

Body Language belgilar tizimini amalga oshirishda aldashing iloji yo'q: inson nima his qilayotgan bo'lsa, yo yuzida, yo turishida, yo harakatida qandaydir aks etadi. Tinglovchilarning ba'zilar nutqimiz orqali nima demoqchiligimizni teran tushunmasliklari mumkin, biroq, shubhasiz, barcha tinglovchilar biz (ya'ni, notiq) qanday inson (shaxsiy fazilatlar egasi) ekanligimizni va o'z nutqiga (mavzuga, kasbiga, qilayotgan ishiga) va tinglovchilarga munosabatimizni osongina bexato anglab yetadilar. Bu erda insoniy muloqotning nostandart imkoniyatlari ochiladi. Nima haqida gapirishimizdan qat'iy nazar, tinglovchi o'ziga nisbatan munosabatni his qiladi.

Notiqlik san'ati - maqsadga muvofiq nutq haqidagi fan. Va shu nuqtai nazardan, faqat zarurat tug'ilgandagina (masalan, tashkiliy vaziyatlarda rahbar bilan, shaxsiy vaziyatlarda biror muhim hayotiy masalani hal etish maqsadida yaqinlaringiz bi-

lan), biz uchun yoqimsiz insonlarga qarata murojaat qilishimiz lozim. Hayotda bunday vaziyatlar sodir bo'lib turadi, biroq imkon qadar ularni kamaytirishga erishish darkor.

Munosabatimiz yomon bo'lgan insonlarga nutq bilan murojaat qilmaslikning ikkinchi sababi axloq bilan bog'liq va so'z orqali talqin qilinmaydi va hatto isbotlanmaydi. Inson yo uni qabul qiladi, yo qabul qilmaydi. Munosabatimiz yomon bo'lgan insonga nutq orqali ezgulik qila olmaymiz. Demak, imkon qadar insonlarga yomonlik qilmagan ma'qul. Birinchidan, bizsiz ham atrofda yomonlik yetarli. Chunki hayot sinovdan iborat. Bu yaxshilikning yomonlik bilan kurashi demakdir. Yomonlik, yovuzlik – bu o'zimizga nimani ravo ko'rmasak boshqa bir insonga aynan shuni tilashdir. birovga ravo ko'rishdir.

Konfutsiy “O'zingga nimani tilamasang, birovga ham tilama” degan fikri dasturil amal bo'lishi lozim. Ikkinchidan, nutqimiz orqali birovga ozor yetkazsak, “qaytar dunyo” qonuniyatiga ko'ra, u o'zimizga (undan yoki boshqasidan o'sha zahoti bo'lmasa ham, vaqt o'tgach) yomonlik bilan qaytadi. Notiqlikning birinchi qoidasidan mantiqan ikkinchi qoidasi kelib chiqadi: nutqni faqat ezgulik tarqatish uchun yaratish lozim. Nutqning barcha (ongli va ong osti) maqsadlari insonlarga, atrofdagilarga yorug'lik tarqatishga qaratilishi lozim. Nima (mavzu), qanday gapirayotganimiz (vositalar) muhim albatta, biroq insonlarga munosabatimiz va ularga ijobiy ta'sirimiz undanda muhimroq.

Insonlarga nutq bilan murojaat qilishdan avval o'zimizni tinglovchi o'rniga qo'yib, “Shu fikrni eshitishni o'zim xohlar-midim”, degan savolni o'z oldimizga qo'ysak, shu nuqtai nazardan nutqlar baholansa, kelajakdagi ko'plab nutqlarimiz yaroqsiz, deb topiladi, sababi boshqalarga yo'naltirmoqchi bo'lgan nutqlarning ko'pini o'zimiz tinglashni istamaymiz.

Insonning nutqiy harakatlari insonlar zarariga emas, foydasiga xizmat qilishi zarur. Nutq samarasini ta'minlash tinglovchi omilini hisobga olishni taqozo etadi. Har bir insonga u kim bo'lishidan, qanday mavqega ega bo'lishidan qat'iy nazar yuk-

sak hurmat bilan munosabatda bo'lish, yuqori madaniyat bilan muomala qilish zarur.

Nazorat uchun savollar

1. Madaniyatli nutqiy muomala deganda nimani tushunasiz?
2. Nutqning axloqiyligi nima?
3. Nutq bilan murojaat qilishda jurnalistning mas'uliyatini auonlashtiring.
4. "Faqat yaxshi munosabatda bo'lgan insoningizga qarata nutq bilan murojaat qilishingiz mumkin", - degan fikrga munosabat bildirsangiz.
5. "Tinglovchi omili" deganda nimani tushunasiz ?

OMMAVIY NUTQ REJASINI TUZISHDA KESISHUV MAKONINI TOPISH

*Notiqlik tinglovchilikdan boshlanadi.
Mualliflardan*

Tinglovchi — nutq yo'naltirilgan shaxs, uning dilini og'ritish mumkin emas. "So'zlovchi — tinglovchi" juftligida tinglovchi nuqtai nazari oldingi o'rinda turadi va nutqiy muloqotda u ustuvorlikka ega. Bu ustuvorlikning ruhiy va fiziologik jihatlari mavjud.

"Tildan foydalanish qobiliyati nafaqat insonni, balki kishilik jamiyatini hayvonot olamidan farqlovchi asosiy omildir, deb ta'kidlashadi ijtimoiy soha vakillari.


Ko'pincha, sotsiolog olimlar tilga zaxira sifatida yondashishadi, ya'ni tildagi o'ziga xosliklar: so'zlovchining qaysi tabaqaga mansubligi, etnik kelib chiqishi, qadriyatlari bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi".⁵

⁵ Ian Hutchby. Media Talk (Conversation Analysis and the Study of Broadcasting). -New York, 2006. Page 20.

Avvalom bor ruhiy jihatni ko'rib chiqamiz. Biz nutqiy muloqotni quyidagi tarzda amalga oshiramiz: *maqsad — g'oya — matn — teskari aloqa*. Nutq g'oyasi, birinchi navbatda, tinglovchi manfaatlari, uning shaxsiy ruhiyati bilan bog'liq. Masalan, o'ta band bir insonni ma'lum bir maqsadda teatrga borishga undamoqchimiz. Uni ishontirish uchun turli xil dalillarni keltirishimiz mumkin: 1) juda qiziqarli pesa qo'yilyapti; 2) spektaklni mashhur rejissyor ... sahnalashtirgan; 3) teatr bufetida juda mazali muzqaymoq sotiladi; 4) uydan tashqarida dam olish imkoniyati tug'ildi; 5) inson vaqti-vaqti bilan madaniy dam olishi darkor. Albatta, keltirgan barcha dalillar tizimini bir kishiga nisbatan qo'llamaymiz. Har bir inson alohida bir dunyo, uning qadriyatlari, ruhiyati, qiziqishlari o'zgacha. Birovni shirinlik bilan qiziqtirib, teatrga taklif qilinsa, boshqa bir insonni spektaklni sahnaga qo'ygan iste'dodli rejissyor omili qiziqishini kuchaytiradi. Faqat va faqat tinglovchining shaxsiy munosabati dalillarning qay biri uning uchun ahamiyatli ekanligini belgilaydi. Shuning uchun so'zlashdan oldin, ayniqsa begona insonlar bilan muloqotga kirishishdan oldin jiddiy tahliliy kuzatuv o'tkazish lozim. Inson shaxsini oldindan o'rganmaslik, tahlil qilmaslik ishontirish paytida noo'rin dalillar keltirishga olib keladi. Natijada, keltirgan asoslar kulgili ahvolga tushishimizga yoki nutq qaratilgan shaxsning g'azabiga yo'liqishimizga sabab bo'lishi mumkin. Bunday nutq maqsadga nomuvofiq nutq deya atalib, natija esa, shubhasiz, kutilmagan (salbiy) bo'ladi. Masalan, tasavvur qilaylik, shirinlikni xush ko'rmaydigan insonga teatr kafesida mazali tort, shirin pishiriqlar sotiladi, - deb spektakl ko'rishga da'vat qilinsa yoki vaqtincha ishsiz, bekorchi insonni "Bir ishdan dam olib kelaylik!" yoki avtomobil haydaydigan insonga "Sizni mashinada bir aylantirib kelaman" deyilsa, albatta, kutilgan natijaga erishilmaydi.

Yakka notiqning ko'plab tinglovchilar bilan aloqa o'rnatishi nisbatan murakkab kommunikativ jarayon hisoblanadi. Bu erda eng muhim jihat auditoriya omilidir. Turli xil qadriyat, e'tiqod, ishontirish tizimi, har xil ruhiy holatdagi auditoriyaga qanday

ta'sir etish mumkin? Buning yo'li bitta — turli xil toifadagi insonlar bir vaqtda bir joyda to'plandimi, demak, asosli sabab mavjud. Har bir insonning makonini shartli ravishda doira orqali belgilasak, ko'plab insonlarni bir joyda yig'ilganini inobatga olib, chizmada ko'plab doiralar kesishmasini ko'ramiz. Natijada, ularni bog'lovchi umumiy kesishuv makonini hosil qilamiz.



Katta ommaga qaratilgan nutq, avvalambor, har bir insonga emas, ommaga yo'naltirilishi, kesishuv makoniga mo'ljallanishi lozim. Shu maqsadda, birinchi navbatda, mana shu kesishuv nuqtasini mantiqan hisoblab topish, ya'ni ularni bir vaqtda bir joyga to'planishga sabab nima ekanligini aniqlash zarur. Majburiy yig'ilish (masalan, o'quv yurtida mashg'ulotlarga majburiy qatnash); notiq shaxsiga, nutq mavzuiga qiziqishning katta bo'lishi bunga sabab bo'lishi mumkin.

Ommaviy nutq tinglayotgan auditoriya haqida gapirar ekanmiz, auditoriya murakkab va o'ta murakkab bo'lishi mumkin. Biz murakkab bo'lmagan oddiy auditoriya bo'lish ehtimolini istisno qilamiz, chunki biz uchun ma'lum bir toifadagi (yosh, qiziqishlar, jins va hok.) insonlar nutqni tinglasa ham, kayfiyatlari, fikrlari, e'tiqodlari o'zgaruvchan bo'ladi. Shuning uchun notiq katta omma oldiga chiqar ekan, albatta, jiddiy tayyorgarlik ko'rib, har qanday vaziyatga, savollarga tayyor turishi kerak.

Talabalar auditoriyasi o'ta murakkab auditoriya toifasiga kirmaydi. Chunki talabalarni birlashtiruvchi omillar juda ko'p — umumiy manfaatlar, so'zlashuv tili, yagona milliy madaniyat omili, yosh, tanlangan yo'l ustuvorligi va boshqalar. Deputatlikka nomzod bilan uchrashuvga kelgan tinglovchilar o'ta murakkab auditoriya hisoblanadi. Sababi, bunday uchrashuvga kelgan omma turli ijtimoiy qatlam, turli yosh, turli xarakterdagi, qiziqishlari har xil, muammolari, tashvishlari, e'tirozlari bir olam insonlar. Ijobiydan ko'ra salbiy xarakterga ega insonlar bunday auditoriyada ko'pchilikni tashkil etish ehtimoli katta. Bunday insonlarni ishonitirish nihoyatda murakkab hisoblanadi.

Nutqiy muloqotda tinlovchining notiqdan ustuvorligi fiziologik jihat bilan bog'liq, chunki so'zlashdan ko'ra tinglash qiyinroq.

Tinglovchi nutq so'zlayotgandagi jarayon ma'nosiga ko'ra nutqning sintezi deb nomlanadi. Nutq sintezi — ma'nodan matnga ko'chish. Bunda matn deganda, fonetik va grafik birliklar majmuasi tushuniladi.

Matn tahlili deganda, matndan ma'noga ko'chish tushuniladi. Tinglash paytida tovush to'lqini quloq pardasiga kelib uriladi, so'ngra miya tovush to'lqinini anglangan birliklarga ajratadi (nutqning uzluksiz oqimida so'zlar farqlanadi).

Tahlil jarayoni sintezga nisbatan qiyinroq kechadigan jarayon hisoblanadi. Inson so'zlayotganda, shovqinsiz sharoitda ishlaydi. Birinchidan, unga fizik shovqin umuman halaqit bermaydi, chunki insonning nutq a'zolari quloqqa yaqin joylashgan, quloq esa, inson nutqini nazorat qiladi. Quloq shunday yaqin joylashganki, gapirishga faqat qattiq shovqin halaqit berishi mumkin. Masalan, o'quv xonasidagi shovqin o'qituvchiga gapirishga u qadar halaqit bermaydi. U har doim o'zini eshitadi. Inson miyasi shunday tuzilganki, bir vaqtning o'zida bitta narsa haqida o'ylab, boshqa narsa haqida gapirishning iloji yo'q. Agar shunday bo'lsa, u albatta fikridan adashadi, chalg'iydi va ongli nutq so'zlay olmaydi. Demak, nutq so'zlovchida fikriy va nutqiy faoliyat birligi mavjud, unga ichki (ruhiy, aqliy) shovqin

halaqit bermaydi. Inson tinglayotganda, u tovush to'liqlarini aniqlay boshlaydi, bu ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, so'zlayotgan shaxsning nutqida nuqsonlar bo'lsa, nutqni tushunish yanada murakkablashadi. Yana bir tomoni: tinglash paytida ichki shovqin bo'ladi. Agar nutq so'zlayotganda nimadir qiynayotgan bo'lsa, uning hayoli shu fikrlar bilan band bo'ladi. Shuning uchun bir vaqtning o'zida ikkita harakat amalga oshadi: qiynayotgan muammo haqida fikrlaydi va uning quloq pardasiga yo'naltirilgan tovush to'liqlarini qabul qiladi. Shu tufayli miya faoliyati uchun nutqni tahlil etish sintez paytidagiga nisbatan murakkabroq. Shu ma'noda so'zlovchiga nisbatan osonroq va aynan shu hodisa sababli nutqiy muloqotda tinglovchi ustuvorlikka ega.

Nazorat uchun savollar

1. Nutq motivatsiyasi nima?
2. Kommunikativ holatning sodda va murakkabligi nimalarda ayon bo'ladi?
3. Sodda va murakkab auditoriya deganda nimani tushunasiz?
4. Tinglovchi auditoriyani yaxshi o'rganmaslik, tahlil qilmaslik ishonitirish paytida qanday qiyinchiliklar tug'diradi?
5. Kesishuv makoni tushunchasini izohlang.

MULOQOTDA MUROSA QILISH SAN'ATI

*Insonlarning nutqlari gohida ularning
niyatlarini yashiradi, ba'zida fosh qiladi.*

Dionisiy Katon

“Suhbatda mantiqiy izchillik analitik yondashuvda muhim hisoblanadi. Ikkita suhbatdosh muloqotda bo'lganda har bir keyingi nutq yoki harakatning maqsadga muvofiqligi avvalgi nutq yoki harakatning mantiqiy izchilligidan dalolat beradi.

Ya'ni avvalgi qadamda Siz fikrni aniq ifodalasangiz, suhbat-doshingiz suhbatni mantiqiy izchil davom etadi. Suhbatda bir marta izchillikning buzilishi zanjirning keyingi halqasi uzilishiga olib keladi"⁶.

Inson tafakkuri ongli va ongsiz qismlardan iborat. Insonni xatti-harakatga rag'batlantiruvchi kuchlarning tabiati ongli yoki ongsiz bo'lishi mumkin. Insonning muayyan xatti-harakatida, xususan nutqiy faoliyatida ongli va ongsiz motivlar mavjud.

Mazkur muammoni nutqiy muloqotning alohida turi — yolg'on so'zlash misolida ko'rib chiqamiz.

Inson nutq so'zlayotganda, 3 xil axborotni uzatadi: 1) axborotning o'zini (bu axborot ongli uzatiladi); 2) axborotga munosabatni; 3) nutqi qaratilgan insonlarga munosabatni. Axborotga va insonlarga munosabatni notiq, odatda, yashirishga urinadi, chunki tinglovchilarga munosabat har doim ham ijobiy bo'lavermaydi. Agar u yolg'on gapirayotgan bo'lsa, axborotga munosabat ham jiddiy bo'lmaydi. U o'zi berayotgan axborotga ishonmaydi. Notiq nutqida yolg'on ishlatsa, qanchalik ishonchli gapirmasin, tinglovchi notiqning o'ziga nisbatan salbiy munosabatini (agar shunday munosabatda bo'linsa), albatta, ong osti bilan his qiladi va tegishli hissiy javobni beradi. Ya'ni, u ong ostida nutqiy muloqotdan qoniqmaslikni his qiladi. Natijada, notiq o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishmaydi.

Belgi tizimlari sifatida tabiiy til va tana tili (Body Language) bir-biridan mohiyatan farq qiladi. Shuni aytish kerakki, insonning aqliy imkoniyatlarini baholash nuqtai nazaridan bir vaqtning o'zida ikkita amaldagi belgilar tizimining mavjudligi kishini hayratga soladi. Buni tushunish uchun ikkita qo'l bilan mohiyatan ikki xil harakatni bajarib ko'rish mumkin. Maxsus tay-yorgarliksiz buni amalga oshirish oson emas, chunki miya tana qismlari uchun turlicha impulslarni qiyinchilik bilan uzatadi. Og'zaki nutqda ikkita turlicha belgi tizimlari muntazam ishlaydi va inson bundan katta noqulaylik sezmaydi. Ya'ni, inson

⁶ Ian Hutchby. Media Talk (Conversation Analysis and the Study of Broadcasting). -New York, 2006. Page 21.

so'zlayotganda fikrlari ongga bog'liq bo'ladi, tana tili- belgi tizimi esa, mustaqil ishlaydi va ong ostini "sotib qo'yadi", chunki uni nazorat qilish uchun aqliy kuchlar etishmaydi. Haqiqatda, yuz ifodamizni, qo'l-oyoqlarimizni boshqaruvimiz kerakligini bilsak ham, ko'pincha bu ishni eplay olmaymiz. Bu ma'noda rol o'ynash nihoyatda mushkul. Inson ong ostida yo'q hislarni tana orqali namoyish qilishi oson ish emas. Birovni sevsak nafratni, nafratlansak muhabbatni, ziqna bo'lsak saxiylikni, saxiy bo'lsak ziqnalikni, befarq bo'lsak katta qiziqishni tana orqali namoyish qila olmaymiz, chunki bu holatlarning barchasi inson ong osti oqimi bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Notiq va tinglovchi o'zaro munosabatlarida zanjir reaksiyasi sodir bo'ladi, ya'ni ular bir-birlariga munosabatni o'zgartirishlari mumkin. Nutq yaxshi qabul qilinayotganini sezgan notiq, nutqini jonlantiradi va tinglovchiga ko'proq hurmat bildiradi. Aksincha, auditoriya nafaol tinglovchi, befarq bo'lsa, notiqning nutqi ham zerikarli tus ola boshlaydi. Hammamizga ma'lumki, notiqqa katta mas'uliyat yuklangan. Auditoriyani qiziqtirish, ishontirish ko'proq unga bog'liq. Lekin auditoriya omili ham muhim ahamiyatga ega. Auditoriya nutqqa, mavzuga va notiqqa qiziqishini sezdirsa, notiq yanada jonlanadi (bor imkoniyati va mahoratini ishga soladi), nutqini maromiga yetkazadi va auditoriyani ruhlantiradi.

Inson o'zi so'zlayotgan gaplariga o'zi ham u qadar ishonmasa bu holat nutqdagi yolg'on deya ataladi. Insonga ob'ektiv yolg'on va ob'ektiv haqiqatni bilish berilmagan, biroq ishonch berilgan. Qiziqarlisi, inson yolg'onning o'zi nima ekanini bilmaydi, lekin aldayotganini his qiladi. Xudoga, haqiqatga, adolatga ishonadi, lekin bu tushunchalarni to'laqonli bilish insonga berilmagan. Bu ishonch ong ostida joylashgan. Shuning uchun ham bu e'tiqodlarni o'zgartirish mushkul. Buning uchun DNK-ni o'zgartirish kerak bo'ladi.

Bu ma'noda, inson nimani yolg'on deb hisoblasa, ya'ni nimaga ishonmasa, o'sha yolg'on. Inson o'zi ishonmagan axborotni uzatayotganda, miya zo'riqadi, ya'ni insonning asab

tizimi stressga tushadi. Shu ma'lumotlarga asoslanib, yolg'on aniqlagich (detektor) yaratilgan. Yolg'on detektorlari asab impulslerini, markaziy asab tizimi hayajonini qabul qiladilar. Stress holatlari uzatgichlar orqali qayd etiladi. Xuddi shu holat tana tili orqali oshkor bo'ladi. Shuning uchun ham E.N.Zaretskaya uni "sotqin til" deb ataydi. Amerikalik tadqiqotchi Karlson rus professori V. N. Pushkin tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, inson aldayotganda, stress holatida undan axboriy bionur taraladi. Bu nur nafaqat insonlar, hatto o'simliklar tomonidan qabul qilinadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, uydagi gullarni yaxshi ko'rib, ular bilan gaplashganda, ular yaxshiroq o'sadi, degan qat'iy fikr mavjud.

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, inson yolg'on so'zlayotganda suhbatdoshiga albatta yomon munosabatda bo'lar ekan. Sababi, suhbatdoshi tufayli u aldayapti va natijada o'ziga ziyon qilyapti. M.Gorkiyning "Klim Samgin hayoti" asarida shunday fikr keltiriladi "Biz insonlarni ularga qilayotgan yaxshilik uchun sevamiz, ularga qilayotgan yomonlik uchun ulardan nafratlanamiz". Chunki kimgadir yaxshilik qilsak, u insonni ko'rganda o'zimizni oliyanobligimizni yana bir bor his qilamiz, kimgadir yomonlik qilsak, u insonni ko'rganda, o'z xudbinligimizni eslaymiz.

Adabiyotlarda, qo'shiqlarda bu dunyoni "yolg'on dunyo", "bevafo dunyo", "tush" deb atashadi. Birovni aldaganimizda, suhbatdoshimizga bu mavhum, murakkab, mo'jizaviy dunyoni anglashda qo'shimcha murakkabliklar yaratamiz, uni qiynaymiz. Aslida, nutqimizdagi haqiqatning har bir zarrasi insonni atrof-muhitda to'g'ri mo'ljalni olishida, moslashuvida katta yordam vazifasini o'taydi. Yolg'on gapirganimizda esa, muloqotdoshimizni foydali axborotdan mahrum qilamiz.

Shunday qilib, yolg'on so'zlaganda, quyidagi muloqot holati yuzaga keladi: tinlovchi 1) axborotni, haqiqiy yo yolg'onligini bilmay, qabul qiladi; 2) nutq so'lovchining markaziy asab tizimi hayajonini his qiladi va bu holat uni ogohlikka chaqiradi va bunga javoban unda asabiylik holati yuzaga keladi; 3) unga

yomon munosabatda bo'layotganliklarini his qiladi. Yomon munosabatga javobning ta'siri ham xuddi shunday: nima yuborilgan bo'lsa, o'sha qaytariladi (bumerang kabi). 2- va 3-axborotlar ong osti bloki orqali uzatilgani uchun, ong osti bloki tomonidan qabul qilinadi. Inson aqli bilan anglamasa ham, shu ko'ngil holatidan kelib chiqib, harakat qiladi. Vaziyatning nozikligi shundaki, ikkala tomon nima uchun bunday harakat qilayotganini anglamaydi. Qabul qilgan yomonlikni tinglovchi qaytaradi. Qanday qilib qaytarishini taxmin qilish qiyin, biroq, albatta yolg'on ishlatish yo'li bilan qaytarishi shart emas. Qachon qaytarishi ham ma'lum emas, ancha vaqt o'tishi ham mumkin, biroq, albatta ongli yoki ongsiz ravishda qaytarishi muqarrar.

Shu dalilni tushungan holda, har bir inson o'z oldiga atrof-dagilarni aldash maqsadga muvofiqmi, degan savolni qo'yishi shart.

Ba'zida yaqinlarimizning foydasini o'ylab, yolg'on ishlatamiz. Biroq, har doim ham bunday aldashdan avval, kimga nisbatan yolg'on ishlataymiz, oxir-oqibat bu nimaga olib keladi, deb jiddiy o'ylab ko'rishimiz lozim. Ko'pincha insonlarda vaziyatga va uning oqibatlarga noto'g'ri baho berish va tashxis qo'yish holatlari uchraydi. Va bu masalada yagona yondoshuv, yagona to'g'ri yo'l mavjud emas. Har bir holat alohida yondoshuv va yechimga muhtoj. Masalan, bir bemor ahvoli og'irligini eshitib, tushkunlikka tushishi va yanada og'irlashishi mumkin. Bunday holatda yaqin mehribonlariga xabar qilib, tuzalishi uchun barcha sharoitni yaratish mumkin. Bunday yondashuv irodasi zaifroq, ojizroq insonlarning ba'zilariga ijobiy natija berishi mumkin. Ba'zan esa aksincha, teskari natija berishi mumkin. Bemor, sog' ekanman deb, nazoratsiz qolib, o'zini zo'rqiqtirishi, urinti-rishi, dorilarni iste'mol qilmasligi, shifokor maslahatlariga rioya qilmasligi natijasida ahvoli og'irlashishi mumkin.

Aksincha, aynan shunday holatda irodasi kuchli, ma'naviy etuk, jamiyatga naf keltirishni oliy maqsad qilib qo'ygan insonga og'ir dardi haqidagi haqiqatni aytish natijasida organizmda

himoyalovchi kuchlarning faollashuvi kuzatilgan: agar insonga halokat yaqinligini ochiq-oydin aytilsa, inson tanasi odatiy sharoitda engib bo'lmaydigan kasallikni yashash ishtiyoqi o'ta kuchliligi sababli engi oladigan ichki kuchlarni, bor imkoniyatlarni ishga soladi. Ba'zi kasalliklarda inson immun tizimi ojizlik qiladi. Davolashning bioenergetik usuli aynan immun tizim faoliyatini rag'batlantirishga asoslangan. Bemorga haqiqatni aytish shunday vaziyatda, aynan shu inson uchun rag'batlantiruvchi omil vazifasini o'tashi mumkin. Shu ma'noda, "ezgu niyatda yolg'on ishlatish" tezisiga nihoyatda katta ehtiyotkorlik bilan va insonning ruhiyatga mos ravishda rioya qilgan ma'qul.

Nazorat uchun savollar

1. 3 xil axborot tihglovchiga qanday uzatiladi?
2. Qanday omillar muloqotning samarasini ta'minlab beradi?
3. Yolg'on ishlatish notiq uchun qanday oqibatlariga olib keladi?
4. Muloqotda yolg'on ishlatilganda qanday holat yuzaga keladi?
5. Notqlikda verbal va noverbal tilning o'rni va ahamiyati nimalardan iborat?

NOLISONIY MULOQOT – NUTQNING KO'RKI

*O'zing asabiylashsang yoki suhbatdoshing
asabiylashayotganini sezsang, so'zlashdan to'xta*
L.N.Tolstoy

Yuqorida nutqiy muloqotda haqiqatning o'rni haqida so'z ketganda, notiq yashirayotgan haqiqatni tinglovchiga aynan tana tili "sotib" qo'yishini ta'kidladik. Bu bilan tana tilining yagona vazifasi "sotqinlik" degan fikrdan yiroqmiz. Tana tilining boshqa vazifalari ham mavjud. Ma'lumki, notiq

nutqining ta'sirli bo'lishida uning og'zaki nutqining ravonligi, ommaga tushunarli tilda so'zlashi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Og'zaki (so'zlar vositasida) verbal nutq bilan bir qatorda insonda imo-ishoralar deb atalmish tana harakatlari ham mavjudki, ular yordamida aytmoqchi bo'lgan fikrimizni tinglovchilarga yanada teranroq va tushunarliroq anglatamiz. Shu kungacha o'z notiqliklari bilan nom qozongan barcha mashhur insonlar o'z nutqlarida tana tiliga muntazam murojaat qilib kelganlar.

“Suhbatning xususiyati nafaqat suhbatdoshlarning alohida e'tiqodlari, qiziqishlari yoki ularning ruhiy hodatlari orqali, balki tuzilmaviy jihatdan ham belgilanadi”⁷.

“Muloqotda kontekstlar ikki yo'l orqali tahlil qilinishi mumkin: muloqotni tashkil etish yo'llari va usullari hamda muloqot natijasida nima sodir etayotganini anglash va tushunish nuqtai nazaridan. Muloqotda verbal va noverbal omillar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular munozarada axborotni to'laonli yetkazishga xizmat qiladi”⁸.

Tana tili – notiqning auditoriyaga noverbal murojaatidir. Tana tili so'zini o'zbek tiliga ba'zi manbalarda tana harakati yoki qo'l harakati degan tarjimalari ham bor, biroq bu tarjimalar so'zning asl ma'nosini to'liq ifodalay olmagan sababli, baynalminal so'z bo'lib qolgan “imo-ishora” so'zini ishlatish o'rinli bo'ladi. Chunki imo-ishoralar bu tananing har qanday harakati emas, balki auditoriyaga biron ma'noni etkazishga xizmat qiladigan tana harakatlaridir.

Olimlar imo-ishoralarning nutqimizda ishlatilishiga ikki asosiy sababni ko'rsatadilar:

1-sabab. So'zlovchining so'z boyligi yetarli bo'lmasa yoki noo'rin so'zlar ishlatayotganini sezsa bularning o'rnini tana harakatlari bilan to'ldirishga harakat qiladi.

⁷ Ian Hutchby. Media Talk (Conversation Analysis and the Study of Broadcasting). -New York, 2006. Page 22.

⁸ Ian Hutchby. Media Talk (Conversation Analysis and the Study of Broadcasting). -New York, 2006. Page 23.

Ushbu sababga ko'ra imo-ishoralarga murojaat qiluvchi notiqqlar nuqsonli hisoblanadilar hamda o'z kamchiliklarini imo-ishoralar yordamida yashirishga urinadilar. Ba'zan esa kuchli hayajondan asabiylashadilar va tanada tushunarsiz harakatlar yuzaga keladi. Aynan ana shu harakatlarni insonlar imo-ishoralar deb yuritadilar.

2-sabab. Notiq tinglovchilarga nafaqat muayyan bir fikrni yoki axborotni, balki o'z hissiyotlarini ham etkazadi. Imo-ishoralar esa, aynan ana shu hislarni tinglovchiga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Bu sababga ko'ra esa hissiyotni tinglovchilarga yetkazish maqsadi bo'lmagan biron bir notiq uchun tana tiliga murojaat qilish ehtiyoji umuman yo'q. Imo-ishoralarga ilmiy ahborotni yetkazuvchi notiqqlar umuman murojaat qilmaydilar. Imo-ishoralardan yozuvchilar, shoirlar, siyosatchilar, jurnalistlar va boshqalar foydalanadilar.

Aslida esa notiqlik san'atida imo-ishoralar o'zida katta ma'no tashuvchi muhim notiqlik unsurlari hisoblanadi. Bu fikrni yanada teranroq tushunish uchun notiq nutq jarayonida imo-ishoralardan qay maqsadlarda foydalanishini ko'rib chiqamiz.

1. Avvalambor, nutq energetikasida imo-ishoralar muhim ahamiyatga ega. Nutq energetikasi — notiqning tinglovchilar bilan muloqotga kirishishda sarflaydigan energiya ko'rsatkichi hisoblanadi. Ba'zan notiq tinglovchilar qarshisida juda sokin vaziyatda turishi mumkin, juda sokin ohangda tinglovchilarga o'z fikrini bayon qilayotgan bo'lishi mumkin, lekin uning energetikasi 20 ballik shkalada 18 ballni ko'rsatadi. Chunki nutq energetikasi bu notiqning butun tevarak-atrofga energiya sochishi, tinglovchilarni hayajonlantirishi, nutqini o'ta baland ovozda auditoriyaga yetkazishi emas, balki nutqni ifodalash uchun ichki energiya zahiralarini sarflashidir. Masalan, nutq jarayonida tinglovchilarning har biri bilan birma-bir ko'z orqali muloqotga kirishish, kerakli joyda tovushni me'yorida balandlatish va aksincha pasaytira olish, berilayotgan har qanday savolga va savol

beruvchiga savolning saviyasidan qat'iy nazar bag'rikenglik bilan javob berish va boshqalar notiqning o'z nutqiga qay darajadagi energiya sarflayotganini bildiradi. Bu ko'rsatkichning faktorlari sifatida harakatchanlik, auditoriyaga yaqinlik, ovoz kuchi hamda rang-baranglik bilan bir qatorda tana tilidan foydalanish ham e'tiborga olinadi. Imo-ishoralardan faol foydalanish natijasida notiq energetikasi 4-5 ballga oshadi.

2. Insonga ta'sir qilishning eng samarali usullaridan biri bu vizual ta'sirdir. Ya'ni, inson quloq bilan eshitgandan ko'ra ko'z bilan ko'rganida bu jarayon unga ikki barobar kuchliroq ta'sir qiladi. Shu bilan birga tasviriy xotira aksariyat hollarda tovush xotirasidan kuchliroq bo'ladi. Tadqiqotlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, notiq nutqining 80 foizi tinglovchilar ongida saqlanib qolishi uchun notiq albatta tana tiliga murojaat qilishi kerak. Imo-ishoralarsiz esa tinglovchilar tomonidan nutqning bor-yo'g'i 40 foizi eslab qolinadi.

3. Yuqorida aytib o'tilganidek, imo-ishoralar his-tuyg'ularimizni tinglovchilarga yetkazish uchun xizmat qiladi. Tillar qalblarga har doim ham (aniqrog'i hech qachon) to'liq tarjimon bo'la olmaydi. Qalbdagi hissiyotlarni imkon qadar to'liqroq yetkazish uchun imo-ishoralarga murojaat qilinadi.

Ayni maqsaddan kelib chiqib fikrimizni xulosalaydigan bo'lsak tana tili, yuz mushaklari harakati, ko'z qarashlardagi samimiylik va mehr notiqalarimiz uchun juda muhim fikr ifodalash vositasi bo'lish bilan birga tinglovchilar uchun ham ajoyib yordamchi vazifasini bajaradi. Notiq o'z nutqining samarali bo'lishi uchun esa imo-ishoralarni qanday ishlatish san'atini ham yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi zarur.

Imo-ishoralarni ishlatishda nimalarga ahamiyat berish kerak?

Aslida notiqning hech qanday harakatsiz tinglovchilar oldida qotib turishi ham imo-ishora hisoblanadi va bu harakat, to'g'rirog'i harakatsizlik ham auditoriyaga muhim ahborotni yetkazadi. Bu axborot – men bu mavzuga umuman qiziqmayman, orangizda mendan ko'ra yaxshiroq biluvchi bo'lsa, men ham uni tinglayman, siz meni tinglashingiz yoki tinglamasligin-

giz menga mutlaqo qiziq emas kabi ma'nolarni anglatishi mumkin. Jismimiz biz istamagan, bildirishni xohlamagan ma'nolarni tinglovchilarga yetkazmasligi uchun tanamizni o'zimiz istagandek boshqarishimiz va natijada tinglovchilarga faqat o'zimiz istagan ma'lumotlarni yetkazishimiz mumkin bo'ladi. Buning uchun tana tilini ishlatishning quyidagi asosiy qoidalarini o'zlashtirish lozim.

1. *Simmetriya*. Ko'p hollarda notiqlarimiz tana tili uchun faqat bir qo'llarini ishlatayotganlarining guvohi bo'lamiz. Bu holat nutqning samaradorligini kamaytiradi. Shu bilan birga tinglovchilarga bunday harakatlanish tabiiy emasdek tuyuladi, ya'ni auditoriya majburiy, atayin diqqatni tortish uchun qilinyotgan harakat sifatida qabul qiladi. Shu sababli nutq davomida ikki qo'lni barobar ishlatgan ma'qul.

2. *Kenglik*. Notiqlarimizning tortinchoqliklaridan yoki boshqa omillardan kelib chiqadigan torlik nutq davomida bizga, albatta, halaqit berishi tabiiy. Ya'ni tanani g'o'ddaygan holda tik tutish, faqatgina qo'limizning tirsakdan past qismi bilan imoishoralarni amalga oshirish ham nutqimiz sanmaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. 50-100 kishilik auditoriyada kichik-kichik tana harakatlarining tinglovchilar tomonidan ilg'ab olinishi qiyin, albatta. Va shu bilan birga harakatlarning g'ayritabiiyligi, deyarli ma'no tashimasligi, majburiy ravishda amalga oshirilish ham nutqimiz saviyasini tushiruvchi omillar hisoblanadi. Shuning uchun ham auditoriya qarshisida o'zini erkin his qilgan holda qo'l va tananing boshqa a'zolarini erkin harakatlantirish yaxshi natija beradi va notiqning o'ziga xosligini ta'minlaydi, Eng muhimi unda o'z bilimiga ishonch borligini ta'kidlaydi.

3. *Tugallanganlik*. Imo-ishoralar, albatta, tugallanishi shart. Ba'zan notiq harakatlarida biron o'zgarish ko'zga tashlanadi. Belida turgan qo'li birdani beldan ajraladi, xuddi qandaydir harakat boshlanadigandek tuyuladi, lekin yarim yo'lda harakatlar to'htab qoladi. Bu zararli odat bo'lish bilan birga, tinglovchilar e'tiborini chalg'itadi va hech qanday ma'no ifodalamaydi. Ustiga-ustak notiqning o'ziga ishonchi yo'qligidan dalolat beradi.

4. *Ochiqlik.* Yopiq imo-ishoralarni auditoriyaga nisbatan ishlatish mavzuning aniq yoritilishiga to'sqinlik qiladi. Ba'zi notiqlar nutq jarayonida panjalarining orqa tarafini tinglovchilarga qaratayotganini yoki qo'llarini ko'krak qismida qovushtirib olganini kuzatish mumkin. Bu harakatlar yopiq harakatlar hisoblanib, tinglovchilar ong ostiga ta'sir qiladi. Auditoriya bu harakatlardan "men sizlarga ochiq emasman" degan ma'noni anglashi mumkin. Tinglovchilarga panjalarning ochiq tomoni ko'rsatilishi, qo'llar qovushtirilmagan holda erkin harakat qilishi nutqni tinglayotgan insonlarda yaxshi taassurot qoldirishda muhim omil sanaladi. Nutq davomida qo'llarni musht qilib tugib olish ham auditoriyaga salbiy ta'sir qiladi. Musht ichida notiq biron narsa berkitib olgandek ko'rinish kasb etadi. Undan ham yomonrog'i tinglovchilar notiq nima uchundir o'ta qattiq hayajonda degan fikrga keladilar.

5. *Keraksiz imo-ishoralar.* Albatta bunday imo-ishoralardan qutulish kerak. Masalan: odat tusiga kirib qolgan imo-ishoralar, ko'zoynakni ushlayverish, burunni qashlash, qo'lda biron predmetni o'ynayverish kabi imo-ishoralar hech qanday ma'no ifodalamasligi bilan birga ommaning fikrini chalg'itadi. Bunday imo-ishoralardan qutulish kerak.

Qisqacha aytganda, imo-ishoralar va og'zaki nutqimiz, qulog'imiz va ko'zimiz kabidir. Biri ikkinchisining aybini berkitishi, biri etkaza olmagan hissiyotni boshqasi bera olishi, bir-birini to'ldirishi mumkin, lekin bir-biriga qarama-qarshi ma'no ifodalamasligi juda muhim. Ya'ni, agar nutqda bir narsani so'zlab turib qo'llarimiz bilan boshqa harakatni amalga oshirsak, ziyrak tinglovchi buni darhol fahmlaydi va ikkalana boshlaydi. Masalan:

"Hurmatli xonimlar va janoblar" deyayotgan paytimizda, "xonimlar" deganimizda erkaklar tomonga, "janoblar" deganingizda ayollar tomonga bir nazar tashlasak bas, hatoimizni to'g'rilamagunimizcha tinglovchilarning ko'ngli tinchlanmaydi, diqqati ham jamlanmaydi. Hatto ba'zilar o'zlaridan ham shubhalana boshlaydi.

Yoki prokurorning: “jinoyatchi, albatta, jazo olishi kerak, bunday bezorilarni qamoqqa tiqish zarur”- degan otashin nutqi davomida sudya tomonga qo‘lini hadeb silkib-silkib harakatlantiraversa, sudya nima bo‘layotganini tushungani holda har safar qamalish eslanganda cho‘chib tushaveradi.

Iqtisodiy hisobot taqdimotidan: mutaxassis “Korxonamizning boshqa korxonalarga nisbatan juda katta moliyaviy imkoniyatlari bor”, - desa-yu, nutqi jarayonida negadir uning boshbarmog‘i va ko‘rsatkich barmog‘i kichkinagina halqachani tashkil etsa. Tinglovchilar juda katta moliyaviy imkoniyatlarning o‘lchovini aynan o‘sha halqachalik tasavvur qila boshlaydilar. Yoki “Sotish hajmi sezilarli darajada ortgan” deyish paytida notiqning ko‘rsatkich barmog‘i tepa chap burchakdan past o‘ng burchakka qarab harakatlandi. Tinglovchilar esa sotish hajmining o‘lishidan biroz chalg‘ib, ohirgi 3-4 kun ichida o‘lish so‘zining lug‘aviy ma‘nosining o‘zgargani yo o‘zgarmagani haqida o‘ylab qoladilar.

Bu holat ertalab uyqumiz o‘chmagan paytda metroda ketayotgan holatimizga o‘xshaydi. Mikrofondan Oybek bekati e‘lon qilindi, lekin siz poezdning tashqarisida Kosmonavtlar bekatini ko‘rib turibsiz. Ko‘zingizga ishonasizmi yoki qulog‘ingizgami. Albatta, ko‘zingizga. Biroq ishonishdan oldin biroz ikkilanasiz. Huddi shunday nutq paytida ham inson ong osti vizual ma‘lumotga ko‘proq ishonadi. Notiq o‘z nutqi paytida auditoriyani boshqarishi kerak. Boshqarish uchun esa tinglovchilarning har biri qay holda uning nutqini tinglayotganini bilishi, his qilishi lozim. Ba‘zi ruhshunoslar tinglovchilar qay darajada nutqga ahamiyat berayotganlarini imo-ishoralar orqali aniqlash mumkinligini o‘rganishgan:

1. Agar auditoriya imo-ishoralarimizni takrorlayotgan bo‘lsa, demak mavzu tushunarli bo‘lyapti va shu sababli tinglovchilar o‘z qiziqishlarini namoyish etmoqdalar. Takrorlash qanday bo‘ladi? Masalan, nutqimiz mobaynida qo‘limizda qalam tutgan bo‘lsak, auditoriyadagi ba‘zilar tinglovchilar ham bu harakatni qaytarayotgan bo‘lishi mumkin. Savol berish vaqtida,

diqqat bilan kuzatish lozim, agar ular biz foydalanayotgan imo-
ishoralarni ishlatishsa, demak bugun biz o'z vazifangizni mu-
vaffaqiyat bilan uddalaganmiz.

2. Auditoriya qo'llarini ko'ksida qovushtirib olgan bo'lsa,
demak ular bizning fikringizga qarshi. Kuzatishda davom eta-
miz, qaysi gap aytilayotganda qo'llarini yanada qattiqroq qo-
vushtirishsa yoki boshqatdan shu harakatni takrorlashsa ana shu
fikringiz ayniqsa ularga yoqmayapti.

3. Qo'llar agar tananing bosh qismida sayr qilayotgan bo'lsa,
dahanda, yuzda yoki peshonada qo'nim topishga intilayotgan
bo'lsa, tinglovchilar bizni tushunmayotganliklarini harakat-
lar orqali bizga yetkazmoqchi bo'lishiyotganini anglatadi. Bu
holatda eng to'g'ri yo'l fikrlarni biroz soddalashtirish, vaqtin-
cha murakkab atamalardan foydalanmaslikka harakat qilish-
dir. Yanada yaxshiroq natijaga erishmoqchi bo'lsak, nutqning
eng murakkab joylarini takrorlash ham kutilgan natijani berishi
mumkin. Auditoriyani kuzatishda davom etamiz agar qo'llar
vaziyati birdan o'zgarsa, ular qidirganini topishdi. Demak nut-
qimizni bemalol davom ettirishimiz mumkin.

4. Agar tinglovchilar ular bilan ko'z urishtirmoqchi bo'lgani-
mizda ko'zlarini olib qochishsa, demak auditoriya bizning
nutqimizga umuman befarq. Demak, nutq davomida imo-
ishoralarga murojaat qilish, ularni o'z o'rnida ishlatish notiq
nutqining zaifligini emas, aksincha uning mahorati yuqoriligini
bildiradi. O'z navbatida, imo-ishoralarni to'g'ri ishlatish nati-
jasida nutqimizning ta'sirchanligi ikki barobar ortishi tadqiqot-
lar orqali isbotlanganligi aniq. Albatta nutqimiz qanday mavzu-
da bo'lishidan qat'iy nazar — ilmiy taqdimot, siyosiy targ'ibot,
diplom himoyasi, to'y tabrigi, savdo kelishuvi, she'r o'qish, ri-
voyat so'zlash — bularning barchasida imo-ishoralarga murojaat
qilishimiz lozim. Tinglovchilarimiz bizni yanada yaxshiroq tu-
shunishlari uchun ularga nafaqat tilimiz balki butun vujudimiz
bilan anglatmog'imiz darkor. Imo-ishoralarni ishlatishda eng
muhim jihatlardan yana biri albatta me'yorni unutmaslikdir.
Me'yorida bajarilgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan har bir ha-

rakat nutqimizni to'ldiradi, Qo'shimcha ma'no beradi, auditoriya bilan notiq o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatishga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Notqlikda verbal va noverbal vositalarning o'rni va ahamiyati nimada?
2. Tana tilida samara beruvchi va keraksiz qanday harakatlar va imo-ishoralarni bilasiz?
3. Muloqot jarayonida notiq va tinglovchi o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan zanjir reaksiyasi qanday sodir bo'ladi?
4. Qanday omillar nutqning samarasini oshiradi va aksincha putur etkazadi?
5. Qanday amaliy mashg'ulotlar (treninglar) notqlik mahoratini oshirishga xizmat qiladi? Misollar keltiring.

III BOB. NOTIQLIKDA TILGA E TIBOR

ALISHER NAVOIY VA BOBIR MIRZO NOTIQLIKNING INSON KAMOLOTIDAGI AHAMIYATI BORASIDA

*Soʻzni koʻngulda pishqormaguncha tilga kelturma,
har nekim koʻngulda bor, tilga surma
A.Navoiy*

Soʻz — ilohiy neʼmat. Uni muqaddas tutish, eʼzozlash azaldan mavjud. “Avesto”da yozilishicha, komillikka “ezgu fikr, ezgu soʻz va ezgu amal” orqali erishiladi. Demak har qanday ezgu soʻzning negizida ezgu fikr, har qanday soʻzning natijasi ezgu amal (harakat) boʻlishi shart. Soʻz faqat va faqat ezgulik uchun xizmat qilishi lozim.

Soʻzning sehrini unga mehr qoʻyganlar yaxshi anglashadi. A.Navoiyning ijodiyoti aslida soʻz qudrati va nafosatini, boyligi va moʻʼjizaviy kuchini namoyon etuvchi koʻzgudir. U ayrim asarlarida soʻz haqida, uning xosiyati va nutqning mohiyati borasida alohida toʻxtalib oʻtgan. Soʻzning ijtimoiy hayotdagi oʻrni va insonning oʻzligi soʻzi bilan bogʻliqligini shoirona tashbehlar bilan izohlagan.

*Soʻz durki, nishon berur oʻlikka jondin,
Soʻz durki, berur jonga xabar jonondin.
Insonni soʻz ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq, yoʻq ondin.*

Shoir boshqa bir o'rinda «Ko'ngul durji ichra guhar so'z durur. Bashar gulshanida samar so'z durur»,—deydi. «Guhari sharif»lik darajasida ta'riflangan so'zga Navoiyning munosabati ayrica. Insonning so'zlagan so'ziga qarab, uning ma'naviyati, ruhiy olamini anglash mumkin. Shuning uchun ham xalqning «o'zingga qarab kutib olarlar, so'zingga qarab kuzatarlar», degan naqli behuda aytilmagan. Har kim so'zlashi, nutq irod etishi mumkin, lekin uning saviyasi, bilimi, dunyoqarashi, qiziqishi, botiniy dunyosi go'zal bo'lmasa, so'zi mazmunli, nutqi jozibali bo'lishi qiyin. Navoiy nutqni bahorga, so'z ma'nosini esa, gulga qiyos qiladi. Gul bahorning kelgani, iforiy islarga boyligini anglatadi. Gulning bo'yidan bahramand bo'lish dilda ajib hislarni uyg'otadi. Bahor anvoyi gullar bilan go'zal. Qog'oz gul ko'zni quvontirar, lekin u xushbo'y hiddan bebahra. Xuddi jimjimador so'z ma'nodan yiroq bo'lgani kabi, Demak, nutqdan, so'zdan maqsad - ma'no. Ma'no - so'zning toji. Sergaplik - laqmalik, nodonlik alomati. «Aytuvchi dono bo'lmasa ham, eshituvchi dono bo'lsin» degan gap zamirida ham shu ma'no bor. Ahli donishlarning biridan so'rashibdi: «Qanday donishmand bo'ldingiz?» U debdi: -Tinglab, tinglab va yana tinglab.

Qolaversa, qisqa, lekin ma'noli so'zlash odob belgisi. Mana, Navoiyning shu haqdagi fikri:

*Har kimsaki, so'z demak shiorida durur,
Ma'no guli nutqining bahorida durur.
So'z kim, demasun ulki ixtiyorida durur,
So'z yaxishligi chu ux mucopuda durur.*

Qisqa so'z va ko'p ma'no anglatish badiiylik mezonlaridan. Navoiy nutqning qisqaligi va soddaligi notiqning fazilati ekani- ni uqtirib qolmasdan, balki so'zga munosabat borasida o'tmish allomalarning shu haqdagi fikrlariga tayanadi ham.

Navoiy nazdida, so'zga o'ta ehtiyotkorlik zarurki, nojo'ya so'z noxush holatga sabab bo'lishi, bir so'z bilan kishi dili xira bo'lishi mumkin. «So'zlagandan so'zlamagan yaxshiroq, so'zlagandim tegdi boshimga tayoq» xalq naqlini Navoiy boshqacha tarzda ifoda etadi, tanbeh beradi, So'zning o'rni

sir. Uni bilish, amalda qo'llay olish zarur. So'z san'atkorlari so'zlashdan oldin o'ylash, ya'ni topish, tanlash va qo'llashda aql-idrok, fahm-farosat lozimligini doim e'tiborda tutishgan. So'z bilan kishi ko'nglini shod etish ham, barbod etish ham mumkin.

*So'zdan kishining g'amu balo hosilidur,
Har nuqtada tili desa, balo doxilidur.*

Navoiy o'titlaridan biri shunday: «So'zni ko'ngulda pishqor-maguncha tilga kelturma, har nekim ko'ngulda bor, tilga surma». Anglashilayaptiki, zarur so'zdan ham eng zarurini ayt, uning ham hojati bo'lsa, degan mazmun Navoiy talabi. Ulug' mutafakkir nutqning xususiyatlari - qisqalik, soddalik, mantiqiylik va ta'sirlilik haqida fikr bildirar ekan, uning qanday aytilishi, ya'ni qay so'zni qay ohangda ifodalanishiga ham diqqat qiladi. Ma'lumki, «Nurnoma» risolasida parvardigorning etti daryo yaratgani borasida so'z ketadi. Ulardan biri ilm daryosi, ikkinchisi hilm daryosi deya e'tirof etiladi. Birinchisi anglash bo'lsa, ikkinchisi mayin, muloyimlik demakdir. Halim tabiatli kishi yumshoq, kishi diliga ozor etkazmaydigai so'zni topib aytadi. Shuning uchun ham kimdir topib so'zlaydi, kimdir qopib deyishadi. Bu, albatta, insonning fe'l-atvori, sajiyasi bilan bog'liq.

*Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,
Har nechaki ag'yor durur, yor aylar.
So'z qattug'i el ko'ngliga ozor aylar,
Yumshog'i ko'ngullarni giriftor aylar.*

Alisher Navoiy so'zga munosabatni tirik jonzotga munosabat tarzida anglaydi. Tanlangan va aytilgan so'z nishonga qanday borishi, qanday samara berishi u uchun muhim. O'zining hayotiy va ijodiy faoliyatida shunga amal qilib yashagan she'riyat mulkining sultoni mulohazalari biz uchun ibratlidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham Sharq allomalarining, jumladan, Alisher Navoiy an'alarini davom ettirib, nutqning to'g'riligi, sofligi, aniqligiga, tilimizning taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan mumtoz ijodkorlardan biridir. U Navoiydan

so'ng mumtoz adabiy tilimizni yangi bosqichga ko'targan tarixiy shaxsdir. U so'zga, nutq ifodaliliga alohida e'tibor qaratgan. "U nutq madaniyatiga, nutqning sodda va ravon, tushunarli bo'lishiga alohida ahamiyat berdi. Ijodiy faoliyatida doimo bunga amal qildi. Boshqalarni ham shunga da'vat etdi... Boburning o'zi ham jangda tahlkaga tushgan askarlarni bir necha bor jangovor va ta'sirchan nutqi orqali g'alabaga ishonch ruhini uyg'otgan va shu tufayli muvaffaqiyat qozongan.

Bobur asarlarini tadqiq qilgan olimlarimiz, hatto chet el olimlari ham uning tilini ortiqcha bezak va jimjimadorlikdan holi ekanligini e'tirof etishgan. Bobur so'zga va uni o'rinni qo'llashga katta e'tibor qaratgan. So'zda uning sohibi aksi, ichki kechinmalari, didi, fe'l-atvori yaqqol ko'rinadi, degan fikrni bildiradi. Demak, so'zning tashqi va ichki ko'rinishlari mavjudligi va buni bilgan holda o'z o'rnida ishlatish, ortiqcha jimjimadorlikdan qochish lozimligini ta'kidlaydi. Buni o'zining ham nasriy, ham she'riy asarlarida isbot qilib beradi. To'g'ri va mantiqiy yozish hamda talaffuz qilishni boshqalardan ham, jumladan, o'z farzandlaridan talab qiladi. Masalan, o'g'li Xumoyunga yozgan maktubida ham ortiqcha jimjimadorliksiz yozish til va nutqning eng muhim belgisidir, deb izohlaydi: "Xat biturda takalluf qilay deysan, ul jihatdan mug'laq (tushunilishi qiyin) bo'ladir. Bundan nari (bundan keyin) betakalluf (jimjimadorsiz, bezaksiz) va ravshan va pok(aniq, to'g'ri) alfoz bila bit; ham senga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qig'uchiga". ("Boburnoma", 1960, 421).

Shuningdek, o'g'li Komron Mirzoga yozgan maktubida ham nutqiy faoliyat va savodxonlik muhim ahamiyatga ega ekanligi, savodxonlikka e'tibor qaratish insonga surur bag'ishlashini ta'kidlaydi: "Ko'kaldoshu emakdosh va ichkularing (saroy ichki mulozimlari) bilan saboq o'qurg'a ruju' kelturubsen. Bu jihatdan ko'ngulga surur, xotirga huzur etib, bisyor (ko'p) xushhollik yuz berdi. Tangri taolo dargohidan umidim borki, jam'i qobiliyat va salohiyat bobinda mukammal bo'lib kamolga yetgaysen". ("Boburnoma"dan).

Demak, Bobur yozuvda, nafaqat yozuvda, balki nutq talaffuzida ham har bir soʻz, iborani oʻz oʻrnida ishlata olish, nutqda qoʻllanilgan til unsurlari nutqdan kutilgan asosiy mohiyatni ochib berishi, eng muhimi, oʻquvchiga tushunarli boʻlishini nutqning asosiy fazilatlari deb hisoblaydi. Boburning ushbu fazilatlari, uning tildan foydalanish mahorati haqida yozuvchi-olim Pirimqul Qodirov shunday deb yozadi: "... Soʻzning shakli faqat qogʻozda koʻrinadi, ammo soʻzning ichki mazmunida surati chizilgan tasvir ham bor. Bu tasvirda Boburning hayoti, boshidan kechirganlari, uning tilida aks etgan dili, ichki kechinmalari – hammasi mavjud. Bobur shuni hisobga olib, "soʻzimni oʻqiganda oʻzimni koʻrganday boʻlasan" ("sogʻingʻaysen oʻzimni") deydi".

Bobur tilshunoslik, notiqlik sanʼati haqida alohida asar yozmagan boʻlsa-da, oʻz asarlarini hayotiy va sodda, elga tushunarli uslub va farzandlariga yoʻllagan maktublari orqali mumtoz nutq madaniyati, notiqlik sanʼati taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshgan. Bu bilan u tilimiz taraqqiyotini taʼminlagan, mumtoz adabiy tildan hozirgi oʻzbek tiliga oʻtish jarayonini birmuncha tezlashtirishda katta xizmat qilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Alisher Navoiy va Bobir Mirzoning nutq va notiqlik borasidagi qanday fikrlaridan boxabarsiz? Izohlab bering.
2. Notiqlik mahorati tugʻma qobiliyatmi yoki unga oʻqish va mehnat orqali erishiladimi? Asoslab bering.
3. Kimlarni va nima sababli namunalik notiq deb hisoblaysiz? Misollar keltirsangiz.
4. Bobur tilshunoslik, notiqlik sanʼati haqida qanday alohida asarlar yaratgan?
5. Alisher Navoiy va Bobir Mirzo oʻzbek tili, nutq va notiqlik rivojiga qanday hissa qoʻshishgan?

NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI

*To so 'zlamaguningcha, aqllimisan yoki beaql,
buyukmisan yoki aksincha - bilolmaymiz.*

Sa'diy

Inson hech qachon yakka yoki to'la erkin bo'la olmaydi, chunki u tabiatan ijtimoiydir. Inson, tug'ilmasdanoq, hatto ona qornida onaga bog'liq bo'ladi, ya'ni u uchun ijtimoiylashuv jarayoni bu dunyoga kelmasdan boshlanadi. Tug'iladigan chaqaloqning sog'ligi, ruhiy holati, ma'naviy qiyofasi onaning jismoniy, ruhiy, ma'naviy holatlaridan kelib chiqib shakllana boshlaydi, ya'ni ona va bola o'rtasida muloqot jarayoni yuzaga keladi. Shuning uchun ona tug'ilajak farzandiga mehr berishi, u bilan muloyim suhbatlashishi, mumtoz musiqalar eshitishi, toza havoda sayr qilishi, xullas uning tarbiyasi bilan shug'ullanishni tug'ilmasidanoq boshlashini ham din, ham zamonaviy ilm tavsiya etadi.

Inson tabiatan ijtimoiylashgan va munosabatlarni muloqot orqali amalga oshiradi. P.f.d. Temirov N. «Barkamollik — yuksak ma'naviyat va ma'rifat timsoli» nomli ilmiy maqolasida "Insonning insoniy fazilatlari, eng avvalo, nasldan o'tadi. Bu fazilatlar inson yashayotgan muhitda mustahkamlanadi va tarbiya orqali boshqariladi. Bu marakkab jarayon ishtirokchisi bo'lmish odam bolasi oilada, o'quv yurtlarida va ijtimoiy hayotda sinovdan o'tadi", degan fikrni bildiradi.

"Mediamuloqot masalalari XX asr o'rtalarida ilmiy tadqiq etilgan. Mediamuloqotning vazifasi shundan iborat ediki, til ijtimoiy amaliyot shakli sifatida ko'rilgan. Til insonlarning fikrlarini, e'tiqodlarini va munosabatlarini ifodalash uchun vosita hisoblangan".⁹

Muloqot inson hayotida eng muhim va eng murakkab jarayonlardan hisoblanadi. Chunki har bir inson muloqot jarayoni-

⁹ Ian Hutchby. Media Talk (Conversation Analysis and the Study of Broadcasting). -New York, 2006. Page 18

da shaxs sifatida shakllanadi va shaxs sifatida o'zini namoyon qiladi. Shundan kelib chiqiladigan bo'lsa, har bir muayyan jarayon muloqotga kirishayotgan shaxs oldiga muayyan bir vazifani qo'yadiki, ushbu vazifa va talablar turli xil sharoitlarda muloqotning turlicha tashkil qilinishiga sabab bo'ladi.

Omma bilan bo'ladigan muloqotimiz samarali bo'lishi, avvalombor, notiqlik san'atidan xabardor bo'lishimizni talab etadi. Har qanday shaxs borki, u avvalombor notiq bo'lmog'i lozim. Nutq madaniyatining ma'naviy-axloqiy omil sifatida inson kamolotida tutgan o'rni beqiyosdir.

Nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. Ma'lumki, shaxsni shakllantirishda Sharq xalqlari tarbiyani ustuvor vazifa deb bilganlar. O'rta Osiyoda axloqiy tarbiya o'z an'analari-ga egadir. Axloq haqidagi ibratli fikrlar qadimiy turkiy yodnomalarda, buyuk allomalarimizning asarlarida va boshqa yozma yodgorliklar orqali bizgacha etib kelgan.

Axloq fan sifatida o'rta asrlarda yuzaga keldi. Bu fanning o'z olimlari paydo bo'ldi, nazariyasi, ta'limotlari yaratildi. Farobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Jaloliddin Davoniy, Sabzavoriy, G'iyosiddin Mansur kabilar axloq fanining mavzui, vazifalari, maqsadini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdilar. Afsuski, hozirga qadar juda ko'p yirik olimlarimizning ilmiy merosi hamon xalq uchun noma'lum bo'lib kelmoqda. Aslida esa, deyarli hamma davrlarda bu fan taraqqiy etib bordi, yangi-yangi asarlar paydo bo'ldi; axloq va ta'lim-tarbiya sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan juda ko'p olimlar yetishib chiqdi. Ta'limni tarbiyadan ajratib bo'lmasligi ma'lum. Lekin shunga qaramasdan, afsuski, ko'p yillar davomida bu ma'naviy merosni o'rganish, tarbiyaga oid adabiyotlarni ommalashtirishga imkon bo'lmadi. Qator mutaxassislarning asarlari asossiz ravishda o'rganilmay kelindi.

Kishining odobi, eng avvalo, uning axloqida, yurish-turishida, nutqida ko'rinadi. Nutq odobi deganda nimani tushunamiz? Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo'lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos, adabiy me'yordagi ifodalar bilan yetkazish tushuniladi.

Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor etkazish mumkin. Buning uchun soʻzlovchi tarbiyalangan boʻlishi, tilni, adabiy til meʼyorlarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, odobli soʻzlash ham oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi. Bundan tashqari, yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lugʻat boyligini egallash, bu borada nutqi ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan oʻrganish orqali maqsadga erishiladi.

Oʻquvchi uchun eng yaxshi namuna bu oʻqituvchi nutqidir. Buni oʻqituvchi har doim his etishi, oʻz nutqida odob-axloq, nutq madaniyati meʼyorlariga rioya qilishi lozim.

Nutqiy muomala samimiy tabassum va iliqlik salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga sharoit yaratadi. Tinglovchida yaxshi kayfiyat va suhbatdoshiga nisbatan ishonch va iliqlik paydo qiladi. Agar salomlashish quruq, iltifotsiz boʻlsa, keyingi suhbatga salbiy taʼsir etishi mumkin. Koʻp asrlik odatiy anʼanalarimizga koʻra, «Assalomu alaykum»ning javobi «Vaalaykum assalom»dan iborat. Keyingi davrlarda yoshlar orasida salom ham, alik ham toʻntoqlashib ketdi, yaʼni salom berish uchun ham, alik olish uchun ham «salom» soʻzi ishlatiladigan boʻldi. Bundan tashqari, keyingi paytlarda yigitlar oʻrtasida rusm boʻlgan bosh urishtirib salomlashish odati tarixiy anʼanalarimizga, koʻp asrlik odob-axloqqa oid estetik qarashlarimizga ziddir.

Madaniyatli kishi oʻz aybini boʻyniga ola bilishi, aybi uchun kechirim soʻrashni ham bilishi zarur. Oʻz aybi uchun kechirim soʻrash, oʻz gʻururini erga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir. «Kechirasiz, mendan oʻtibdi» yoki «Avf eting, bundan soʻng takrorlanmaydi» deyish bilan kishi oʻzining odobliligini namoyish etadi, xolos. Aybdor holatda kechirim soʻrash zaiflik emas, balki mardlikdir.

Bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan yumushni, iltimosni bajar-gan kishilarga minnatdorchilik bildirish odobini ham oʻrgatib borish lozim. Tilimizda ragʻbatlantirishni, minnatdorchilikni ifodalaydigan chiroyli ifodalar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, oʻz oʻrnida ishlatish kishi xulqini mukammallashtiradi,

bezaydi. Minnatdorchilik bildirib, «ofarin», «barakalla», «rahmat», «otangizga rahmat», «minnatdorman» kabi soʻzlar bilan ragʻbatlantirish mumkin. Shunda insonning koʻngli togʻdek koʻtariladi.

Fikrimizcha, agar biz chiroyli muomala qilsak, atrofdagilar ham munosib javob qaytarishadi, farzandlarimiz ham izimizdan ketishadi, ibrat boʻlamiz. Unutmaylikki, biz qadimgi tarixga va boy madaniy merosga ega buyuk xalq vakillarimiz. Bu anʼanani davom ettirib, bizdan keyingilar ham biz haqimizda shunday deyişlariga erishishimiz lozim.

Maʼlumki, taʼsir etish nuqtai nazaridan nutqda nima haqida soʻzlashdan koʻra, qanday soʻzlash koʻproq ahamiyat kasb etadi. Maʼlumki, nutqning yuzaga chiqishida aniq bir maqsad — tinglovchi, suhbatdosh ongiga taʼsir etish vazifa qilib qoʻyiladi. Shuning uchun ham taʼsirchanlik nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi va qolaversa, nutqning toʻgʻriligi; nutqning aniqli-gi; nutqning tozaligi; nutqning mantiqiyli-gi; nutqning maqsadga muvofiqli-gi ham tinglovchiga taʼsir etishga qaratilgan boʻladi. Bu sanab oʻtilgan sifatlarda lisoniy omillar birinchi oʻrinda tur-sa, ularning hammasidan foydalangan holda, taʼsirchanlik keng doirada nolingvistik omillarni ham qamrab oladi.

Nutqning taʼsirchanli-gi deganda, asosan, ogʻzaki nutq ja-rayoni nazarda tutiladi va Shuning uchun uning tinglovchi to-monidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni eʼtiborga olish ham muhimdir. Yaʼni, notiq tinglovchilar auditoriyasini hisobga olishi, kishilarning bilim darajasidan tortib, hatto yoshigacha, nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatigacha kuzatib turishi, oʻz nutqining tinglovchilar tomonidan qanday qabul qilinayotganini nazorat qilishi lozim. Chuqur bilimga ega boʻlgan kishilar oldida joʻn, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq boʻlmagani kabi, oddiy yetarli darajada maʼlumotga ega boʻlmagan tinglovchilar oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilish yax-shi natija bermaydi. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi boʻlgan fikrini toʻlaligicha ting-lovchilarga yetkazishga harakat qilish vazifasi qoʻyiladi.

Soʻzlovchining oʻz nutqiga munosabati ham muhimdir, chunki shunday boʻlgandagina, quruq rasmiyatchilikdan qochish mumkin. Shunda soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi munosabat yaxshi samara beradi, bir-biriga ishonch va teng huquqlilikka asoslangan aloqa yuzaga keladi. Notiq fikrlarini oʻzi yoki tinglovchilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirsa, nutq yana ham ishonarli va taʼsirli chiqadi.

Tinglovchiga hissiy taʼsir oʻtkazishga erishish notiqqa materialni ularga toʻliq yetkazishda koʻmaklashadi. Mashhur rus notigʻi, prof. V. O. Klyuchkovskiy bu haqda shunday degan edi: “Jamoat orasida soʻzlaganimizda, tinglovchilarning qulogʻiga, aqliga murojaat qilmang, shundoq gapiringki, ular sizni tinglab turib, soʻzlaringizni eshitsin, hodisalarni siz bilan koʻrib, sizning holatingizga tushsin. Tinglovchilar sizning tasviringizsiz ham aqli, yuragi, fikri bilan shu narsani yaxshiroq kuzatadi.

Nutqda fikrni rivojlantira borib, dastlab uning tuzilishini tinglovchining ongiga singdirish, keyin uning tasavvuriga aniq solishtirmalarni taqdim etish kerak, nihoyat, chiroyli lirik tasvirlar bilan ehtiyotkorona uni tinglovchining yuragiga jo qilish lozim, shunda tinglovchi — asirimiz qochib ketmaydi, hatto biz uni erkin qoʻyib yuborsak ham bizning abadiy itoatgoʻy mijozimiz boʻlib qoladi”.

Tildan foydalanish muloqot ijtimoiy taʼsir shakllaridan biri hisoblanadi. Uni matnlar interaksiasidan ajratib oʻrganishning ilojimi yoʻq. Muloqot nafaqat lisoniy hodisa, balki ijtimoiy hodisadir.¹⁰

Nutqning taʼsirchanligi, ifodaliligi haqidagi gap maʼlum maʼnoda nutq sifatlari haqida aytilgan gaplarga yakun yasashdir. Chunki, yaxshi nutqning fazilatlarini koʻrsatib oʻtish, nutqda koʻp uchraydigan ayrim xatolarni tahlil qilish pirovard natijada taʼsirchan nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. Nutqdagi fikrlarning tinglovchilarga yoki oʻquvchilarga toʻlaroq yetkazish-

¹⁰ Ian Hutchby. Media Talk (Conversation Analysis and the Study of Broadcasting). -New York, 2006. Page 20

ning xilma-xil yo'llari va vositalari mavjud. Ularni yordamchi vositalar deb ham atash mumkin. Masalan, yumorni olaylik. Nutqdagi uzluksiz ilmiy-ommabop fikr oqimi, uning bir maromda bayon qilinishi tinglovchini ham, kitobxonni ham zerkirib qo'yishi mumkin. Shunday paytda yumor notiqqa juda qo'l keladi. Yumorning nutq mazmuniga mos holda keltirilishi nutqning samarasini yanada oshiradi. Shunday qilinsa, tinglovchi ham dam oladi, ham fikrni osongina uqib oladi.

Ammo, bu fikrlardan nutqda yumor albatta zarur ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. U nutqning ta'sirchan bo'lishi uchun yordamchi vosita ekanligini unutmasligimiz kerak. Uning noo'rin ishlatilishi zo'rma – zo'rakilikni keltirib chiqarishi mumkin. Nutq jarayonida mavzu doirasida ba'zi hayotiy misollarni, shaxsiy fikrlarni keltirish ham maqsadga muvofiqdir. Bunday fikrlar notiq fikrining to'g'riligini, haqqoniy ekanligini isbotlash uchun kerak, faqat ulardan foydalanishni suiste'mol qilmaslik lozim. Badiiy adabiyot namunalaridan, xalq maqollari, matallari, hikmatli so'zlaridan, tildagi ifoda – tasvir vositalaridan nutqda o'rni bilan foydalanish ham nutqning o'ziga xosligini, notiqning mahorati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Nutqning tinglovchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida notiqning nutqiy jarayon davomida o'zini tuta bilishi, imo – ishoralari, hatto tashqi ko'rinishi, kiyinish madaniyati kabi omillarning ham ahamiyatga ega. Samimiylik, xushmuomalalik, odoblilik, tinglovchilarga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning kishilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida namunaviy nutqning asosiy talablariga qisqacha to'xtalib o'tildi. Ulardan xulosa qilib aytish mumkinki, yaxshi nutq so'zlovchi va yozuvchidan katta mehnat talab qiladigan murakkab jarayondir. Nutqning o'tkirligi, yorqinligi, o'ziga xos va betakrorligi tinglovchi hamda o'quvchida ijobiy his-tuyg'u, qiziqish uyg'otish, uning e'tiborini qaratish, aytilayotgan fikrning mazmunini yaxshilab yetkazish uchun zarurdir. Nutqdagi

bir xil shakl, bir maromdagi ohang, bir xil nutqiy vositalarning qayta-qayta takrorlanishi nutqning ta'sirchanligini kamaytiradi, tinglovchini, kitobxonni hatto aytilayotgan fikrga ham befarq qilib qo'yadi.

Rossiya Federatsiyasi MDU professori E.N. Zaretskayaning fikricha, tinglovchilarga, suhbatdoshlarga qaratilgan nutq axloq nuqtai nazaridan ham ma'lum talablarga javob berishi kerak, ya'ni inson imkon qadar o'zi xushlamaydigan insonlarga qarata nutq bilan murojaat qilmasligi lozim. Sababi, bunday nutq tinglovchilarga, suhbatdoshlarga, ularning ruhiyatiga, salomatligiga yomon ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, nutqning axloqiyligi uning samimiyligida, ya'ni yolg'on ishlatmaslikdadir.

Demak, nutq aniq va ravon bo'lishi, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi, adabiy talaffuz qoidalariga bo'ysunishi, boshdan-oyoq izchil bayon qilinishi lozim. Faqat ana shunday nutqgina tinglovchi va o'quvchi qalbiga yetib boradi. Shunday nutqgina madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun esa, jurnalistdan, ya'ni omma oldida nutq so'zlovchi kishidan tinimsiz izlanish va o'z ustida ishlash, filologik, jurnalistik bilim va muttasil nutqiy mashq talab qilinadi.

Qayd etilgan ushbu talablar hozirgi zamon notiqligi oldiga qo'yilgan asosiy tamoyillar sirasiga kiradi. Bugungi kun notiqdari ommaviy muloqot sohasi mutaxassislari - jurnalistlar hisoblanadi. Bu jurnalistlar zimmasiga alohida ijtimoiy mas'uliyat yuklaydi. Jurnalist mas'uliyati kasbiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy mas'uliyatdir. Jurnalistlarning kasbiy-axboriy madaniyati, jamiyat va xalq oldidagi ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy, axloqiy mas'uliyati haqida ko'p gapirish mumkin. Ushbu o'rinda uning bir jihatinigina eslatib o'tamiz. Yusuf Hos Hojib o'z vaqtida "Qalam el tuzadi", "Hamma el ishining barchasini xat izga soladi", "Yozuv bilan beglar elni idora qiladi, el boshqarilsa, qalam bilan boshqariladi" deb ta'kidlagan edi. Mazkur fikrni hozirgi zamon rasmiy-ma'muriy hamda ommaviy axborot sohalariga, ayniqsa, "to'rtinchi hokimiyat" vakillari bo'lmish jurnalistlarga ham bermalol tadbiq etish mumkin. Zero, qalam

bilan el tuzish, elni boshqarish, jamiyat tafakkurini xat (matn) vositasida izga (tartibga) solish jurnalist ahlidan yuksak muloqot madaniyatini talab qiladi. Muloqot madaniyatini ta'minlashda nutqning axloq mezonlariga rioya qilish eng muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun keyingi mavzuda nutqda axloq mezonlariga qay darajada rioya qilish lozimligi masalalarini ko'rib chiqamiz.

Notiqlik qadim davrlardan beri, birinchi navbatda, fan sifatida emas, balki san'at, mahorat, insondagi noyob qobiliyat sifatida talqin etib kelinadi. Notiqlik san'atida tinglovchilarni ishontirish, ommani o'ziga tortishga intilish maqsadi birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun ham zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarda "Notiqlik — ishontirish usullarini o'rgatuvchi fan" deb aytilgan. Notiqning nutqi chiroyli, jozibali, ta'sirchan bo'lishi shart. Ta'sirchanlikka, maftunkorlikka erishish maqsadida nutqning mazmuniga, mantiqiy izchilligiga, jumlarlar jimjimadorligiga katta e'tibor beriladi.

G.O.Vinokur o'zining «Kultura yazika» («Til madaniyati») asarida nutq madaniyatining notiqlik bilan bog'liq tomonlariga alohida to'xtaladi: «Notiqning nutqi deganda men har qanday monologik og'zaki nutqni emas, balki tinglovchilarni ma'lum harakatga chorlovchi yoki ularda qandaydir g'oyalar, tasavvurlar tizimini uyg'otishga qaratilgan maxsus vazifa bajaruvchi nutqni tushunaman».

Har bir kishi ona tilining imkoniyat va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob bera oladigan so'zamol shaxs bo'lishi mumkin. Ammo har bir shaxs ham san'atkor ma'nosidagi notiq bo'la olmasligi aniq. Lekin adabiy tildan foydalanuvchi har bir notiq nutq madaniyatidan xabardor bo'lishi shart. Notiqlik bu, avvalo, qobiliyatdir.

Nutq madaniyati — faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham, ya'ni adabiy til va uning me'yorlarini o'rganish va bu me'yorlarni qayta ishlash bilan ham shug'ullanadi. Notiqlik san'ati esa, bunday ilmiy-me'yoriy faoliyatni ko'zda tutmaydi.

“Amerikaning ijtimoiy soha vakili Xarvi Saks 1960 yillarda muloqot tahlili bilan shug‘ullanib kitob yozadi. U 1962 yilgacha Kaliforniya universitetida dars beradi. O‘zinining original g‘o-yalarini ma‘ruzalariga ko‘chiradi va talabalarga taqdim etadi. Xarvi Saks tilni o‘rganishda ikkita buyuk tilshunos olimlar: Ferdinand de Sossyur, Lyudvig Vitgenshteynga o‘xshaydi. Uning eshitish imkoniyatini beradigan tasmali kitobi u vafot etgach, 1992 yilda dunyo yuzini ko‘radi. Saks, shuningdek, ikkita yirik olim Emmanuel Shegloff va Gail Djefferson bilan hammualliflikda an‘anaviy akademik uslubda bir nechta maqolalarni chop ettirgan. Uning tadqiqotlari insonlar muloqoti amaliyoti tadqiqotlariga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Birinchi navbatda, u institutsional dialog va omma kontekstidagi shaxslararo munosabatlarga urg‘u bergan”.¹¹

Notiqlik ko‘proq nutqning mazmuniga, mantiqiy asoslariga, mundarijaviy tuzilishiga e‘tibor beradi, nutq madaniyati sohasi esa, ko‘proq nutqning til qurilishi – lisoniy tuzilishiga e‘tibor qiladi. Notiqlik, asosan aniq bir shaxs, notiq yoki guruhlar notiq-lari nutqi haqida qayg‘uradi. Bunda u notiqni tinglayotganlar, ya‘ni keng ma‘noda tinglovchilar ommasi nutqini ham ko‘zda tutmaydi. Nutq madaniyati esa, bundan farqli ravishda umuman kishilarning nutqiy faoliyatini, nutq madaniyatini maqsadiga ko‘ra va nutqiy faoliyati nuqtai nazaridan keng maqsadli soha, notiqlik esa, undan farqli ravishda tor sohasidir. Notiqlik san‘ati notiq uchun oldindan qanday so‘zlash chizmasi va rejasini bermaydi va bu tip nutq hamisha ham oldindan tayyorlangan, tayyorgarlik ko‘rilgan nutq hisoblanmaydi. Nutq madaniyati sohasi esa, jamiyat a‘zolarining ona tili, ya‘ni adabiy til boyliklari va vositalaridan maqsadga muvofiq sharoit va uslub taqozosiga ko‘ra o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasini beradi. Bunday ko‘nikma, aslida har qanday notiq uchun ham zarur.

Oramizda so‘zga chechan, so‘zga usta, so‘z ustasi, so‘zamol, so‘zamollik, so‘zni boplaydi, gapni do‘ndiradi, gapga usta, chi-

¹¹ Ian Hutchby. Media Talk (Conversation Analysis and the Study of Broadcasting). -New York, 2006. Page 18.

royli gapiradi kabi iboralar bor. Keltirilgan soʻz va iboralarning barchasi inson nutqining, inson nutqi kamolotining darajasini umumiy, joʻn nutqdan farqlanadigan nutq namunalarini ifoda qiladi. Ammo hamma ham bir xilda gapga chechan, oʻta chiroyli gapiruvchi boʻlavermaydi. Nutqiy chechanlik, notiqlik, alohida qobiliyatdir. Chinakam notiqlik mahoratiga, notiqlik sanʼatiga tabiiy qobiliyat, shu bilan bir qatorida oʻz tili, nutqi ustida tinimsiz ishlash natijasida erishadilar. Gap notiqlik ustida borar ekan, uning eng qadimiy turlaridan biri – voizlik toʻgʻrisida toʻxtalishimiz tabiiy. Voizlik sanʼati bilan shugʻullanadigan kishilar xalqning nazaridagi yetuk alloma boʻlganlar va ular nodir isteʼdod sohibi sifatida qadrlanganlar. Binobarin, koʻhna Sharqda vaʼz va voizlar hamda voizlik sanʼati nazariyasi haqida boy meros qoldirilgan. Bu meros Xorazmiy, Fargʻoniy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshgʻariy, Navoiy, Jomiy kabi buyuk siymolarning nomlari bilan bogʻliq. Sharq uygʻonish davrining mutafakkiri, tabobat ilmi asoschilaridan biri Ar-Roziyning “Voizu vaʼzxonlar **oliy mavqega** loyiq”, – degan fikrlarini keltirish mumkin (Ar-Roziy IX asr oxiri va X asr boshlarida yashab oʻtgan). Bu borada Abu Nasr Farobiyning fikrlari alohida ahamiyatga molik. Uning notiqlik haqidagi mulohazalari poetika va ritorikaga oid asarlarida, Aristotel asarlariga yozgan sharhlarida uchraydi. Farobiy fikricha, axloqli kishilar 12 ta muhim fazilatga ega boʻlib, bunda notiqlik (5-sifat) alohida oʻrin tutadi. Kishining “soʻzlari aniq boʻlsin, fikrini va aytmoqchi boʻlgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin”, – deydi. Uning taʼkidlashicha, mantiq shunday bir sanʼatki, kishi notiq nutq jarayonida adashsa, toʻgʻri fikrlashga olib keluvchi va aql yordamida biror xulosa chiqariladigan boʻlsa, xatolarning oldini oluvchi omillarni oʻz ichiga oladi. Uning aqlga munosabati grammatika sanʼatining tilga munosabati kabidir.

Farobiyning nutq va notiqlikda mantiq va grammatikaning muhim oʻrni haqidagi fikrlari notiqlik sanʼati taraqqiyoti uchun katta nazariy asos boʻldi va bu fikr hozirgi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan.

Sharqning yetuk mutafakkirlaridan Abu Ali ibn Sino (980-1037) notiq quyidagilarga amal qilishi zarur deb hisoblagan.

1. Pand-nasihat muloyim ohangda aytilishi zarur.
2. Suhbatdoshning bilim darajasi hisobga olinishi lozim.
3. Nasihatga-va'zxonlikka ortiqcha o'rin berilmasligi, suhbat do'stona tarzda borishi kerak.

4. Ta'na qilmoqchi bo'lganda boshqalar bilan qiyoslab, o'sha insonga xos yaxshi jihatlarni sanab ta'na qilinishi, iloji bo'lsa umuman ta'na qilmaslik.

5. Inson o'z e'tiqodini faqat bir faktga tayanib emas, ko'plab dalillar bilan isbotlab, suhbatdoshni o'ylashga, haqiqatni izlashga ishontirish va shu orqali notiq mulohazasini yuragiga yaqin olishga erishish lozim, - deya hisoblaydi.

Ibn Sino notiqning bilimdon bo'lishi, gap ketayotgan mavzuni yaxshi o'rganishi, eng mayda kamchiliklarga ham e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi. U notqlikda demokratiyaning o'rnini yuqori baholaydi.

XI asrning mashhur adiblaridan biri Kaykovusning Sharq ta'limiga oid "Qobusnoma" asarida (6- va 7- boblar) notqlik sharhiga maxsus boblar ajratilgan bo'lib, unda notqlik fazilat-lari, suxandonlik ahamiyati va bu san'atni egallash yo'llariga doir qimmatli nasihatlar berilgan. "Qobusnoma" muallifi "Bil-gilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi" deb uqtiradi. U bu hunarni egallash uchun quyidagilarga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

1. Tinimsiz mehnat va o'rganish.
2. "Xalq oldida gapiradigan so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin". U: "So'zning ikki tomoni bordir: biri go'zal tomoni, ikkinchisi xunuk tomonidir", - deydi.

Nutq shaklini to'g'ri tanlash "...bir so'zni bir ibora bilan aytsa, eshitgan kishining ko'ngli parishon bo'ladi, shu so'zni boshqa bir ibora bilan aytsa, eshitgan kishining ko'ngli bah-ra oladi", - deydi va bu fikrning isboti sifatida xalqimiz orasi mashhur bo'lgan Xorun ar-Rashidning tushi haqidagi rivoyatni keltiradi.

Alisher Navoiyning notiqlik san'ati xususidagi fikrlari biz uchun qimmatli va boy merosdir. U "Mahbubul-qulub" asarining "Nasihat ahli va voizlar zikrida" (24-fasl) deb nomlangan qismida voizlik san'ati haqidagi fikrlarini bayon etgan. Alisher Navoiyning uqdirishicha, voiz quyidagi xislatlarga ega bo'lishi lozim:

1. Voiz kerakki, «kolalloh» so'z aytsa. ya'ni so'zlari foydali va ta'sirli bo'lsa.

2. Va'z bu murshid va ogoh ishidir va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidir. Va'z yangiliklar va o'zgarishlar ogohchisi bo'lishi kerak.

3. Voizning o'zi biror kasbni egallagan bo'lishi kerak va shundan keyingina u kishilarga ta'sir eta oladi.

4. Voizkim, bo'lg'ay olim va mutaqqiy-aning nasihatidin chiqqay shaqiy".

5. Ulkim o'zi buyurib o'zi qilmag'ay, hech kimga foyda va asar aning so'zi qilmag'ay. Demak, so'zi bilan ishi bir bo'lsin.

Xullas, ko'hna Sharqning mohir va mashhur notiqalarining siru sanoatlarini o'rganish muhim ahamiyatga molik ish. Notiqlik san'ati nazariyasi va amaliyotiga doir boy merosimiz bor. Lekin bu meros uzoq vaqt e'tibordan chetda qolib keldi. Qadim Rim notiqligidan biroz bo'lsa ham xabardor bo'ldik, ammo o'z voizlik merosimiz tarixini mensimay keldik — bexabar qoldik. O'rgansa, tadqiq etsa arziydigan asarlar bor. Chunonchi, Voiz Muhammad Vafilning "Abvob-ul jinon" risolasi, Voiz Kazviniyning "Zilolu maqol", Voiz Shirvoniyning "Axsan-ul ahdis", Muhammad Bobur binni Muhammad Voizning "Hidoyatul takvil", Mulla Kalon Voiz Samarqandiyning "Ravzobul voizin", Qozi Ushiyning, "Miftaxun najjoh" kabi asarlari borligidan hanuz bexabarmiz. Bu qimmatli manbalar ko'plab ilmiy-tadqiqotlarga asos bo'luvchi qimmatbaho merosdir.

Alisher Navoiy "Majolis-un nafois" asarida voizlikda nom chiqargan Hoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Mavlono Husayn Voiz Koshifiy, Mavlono Muin Voiz kabi notiqalarni hurmat bilan tilga oladi.

Sohibqiron Amir Temur, umuman temuriylarning, jumladan, Bobur Mirzo hamda Mirzo Ulug‘bek saroyida, tibbiy olimlar, munajjimlar, Shayxul Islom qatorida albatta, notiqlar, sarkardalar bilan voizlar ham saroy ahli nazarida katta hurmatda bo‘lishgan. Ba‘zi shaxslarda uchraydigan notqlik san‘ati og‘zaki nutq sohasida shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishiluvchi alohida san‘atdir. Notqlikda qobiliyat va mahoratni mehnat bilan qo‘shilib kelganini kuzatish mumkin, har bir xalqning o‘tmish madaniy hayotida u xalqdan yetishib chiqqan va chin ma’noda notiq degan mo‘tabar nomga sazovor bo‘lgan shaxslarning unchalik ko‘p emasligi ham aslida ana shunday omil tufaylidir.

Nazorat uchun savollar

1. Notiqning nutqiga qanday talablar qo‘yiladi?
2. Nutq odobi deganda nimani tushunasiz?
3. Nima uchun nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi?
4. Nutqning ta’sirchanligi deganda nimani tushunasiz?
5. Qanday lisoniy-uslubiy vositalar nutqning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi?

OMMAVIY NUTQ TA’SIRCHANLIGINI OSHIRISHDA SITATALAR, IBORALAR, MAQOL, HIKMATLI SO‘ZLARNING O‘RNI

*Ko‘p gapirish va ko‘p fikrni berish boshqa-boshqa.
Suqrot.*

Ommaviy nutq ta’sir etish va ishontirishning muhim vositalaridan biri-sitatalardan foydalanishdir. Notiq o‘z nutqida sitatani fikrni quvvatlash, unda keltirilgan faktlar, olg‘a surilgan g‘oyalarning to‘g‘riligi, haqqoniyligini isbotlash, tasdiqlash uchun ishlatadi. Sitatani ahamiyati-uning ishonchliligi, haqqoniyligi, yuqori axborotliligiga ham bog‘liq.

Notiqlar ko'pincha sitatalarni keltiribgina qolmay, shu yer-ning o'zida uni izohlaydilar va unga o'z munosabatlarini bildiradilar. Bu usul - to'la oqlangandir, chunki bu usul, birinchidan - munozara sharoitini yuzaga keltiradi yoki eshituvchilarni obro'li shaxsning nuqtai nazari bilan tanishtiradi; ikkinchidan - sitata g'oyasini tinglovchilar ongiga etkazishga yordam beradi.

Agar nutqda biror muammo bo'yicha turli nuqtai nazarlar, turli qarashlar muhokama qilinayotgan bo'lsa, sitatalarni faktik material sifatida keltirish ayniqsa muhimdir. Bu holda sitata aytilgan nazariy qoidalarga nisbatan illyustratsiya vazifasini o'taydi. Sitata keltirish opponent va g'oyaviy muholiflar bilan bahslashuvda ta'sirli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ommaviy nutqda o'rinli va muvaffaqiyatli ishlatilgan sitatalar nutqning ta'sirchanligini, uning ma'noviy - emotsional ahamiyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, sitata keltirish nutqning bir xil bo'lishdan, tinglovchilarni toliqishdan saqlashga yordam beradi. Sitata notiq fikrini takrorlash shakli sifatida ham muhim rol o'ynaydi, chunki g'oyaning to'liq o'zlashtirilishi uchun, uni turli shaklda takrorlash talab etiladi. Sitatalar - shunday takrorlash formalaridan biridir.

Ba'zi hollarda sitatalarni qisqartirish maqsadga muvofiq, lekin shuni esda tutish kerakki, bunday qisqartirish birinchi manba ma'nosini buzmasligi kerak. Biroq ba'zida sitatani qisqartirish mumkin bo'lmay qoladi. Sababi - qisqartirilganda ma'nosi buziladi. Bunday hollarda sitataning mazmunini notiq o'z so'zlari orqali bayon etadi.

Sitatalarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kerak, chunki joyida, o'rinli ishlatilmagan sitata nutqning bo'sh chiqishiga, tanglovchilarda esa notiqqa nisbatan yomon taassurot qoldirishga olib keladi. Sitatani qo'llashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

birinchidan, boshqa asarlardan olingan parchalar (sitatalar) to'g'ri bo'lishi, birinchi manba bilan solishtirib chiqilishi lozim,

chunki sitatalarda yo‘l qo‘yiladigan xato ba‘zi hollarda fikr yoki faktning buzib ko‘rsatilishiga olib keladi;

ikkinchidan, sitatani to‘g‘ri talqin qilish kerak, chunki buzib, ishonchsiz tushuntirish eshituvchilar fikrini chalg‘itadi, ularda yanglish tushuncha qoldiriladi, bu esa notiqni obro‘sizlantiradi;

uchinchidan, sitatalarning tinglovchilarga tushunarli bo‘lishini hisobga olish kerak; zarur hollarda uni sharhlash (tushuntirish), muallif fikrini har bir tinglovchi ongiga etkazish lozim.

Albatta, sitatalar har qachon va har erda ishlataverilishi o‘rin-siz hisoblanadi. Keltirilgan sitatalar ma‘lum bir vazifani bajarmasa, nutqda ortiqcha yuk bo‘lib qoladi, “sitatabozlik”ka olib keladi, nutqning ta‘sirini kamaytiradi, auditoriyaga aks ta‘sir etadi.

Sitatalarning kuchi ularning sonida emas, balki to‘g‘ri va o‘rinli foydalana bilishda, nutqda maqsadga muvofiq va unumli ishlatilishidadir. Sitatalar nutqni quruq, chegaralangan, o‘ta jo‘n qilishga emas, balki uni ishonchli, dalillangan, mantiqqa asoslangan bo‘lishiga xizmat qilishi lozim. Ana shundagina sitata ishlatishda kutilgan maqsadga erishiladi. Notiqning sitatalarni o‘zining chala-yarim sub‘ektiv fikrlarini, unchalik to‘g‘ri kelmaydigan g‘oyalarini boshqa bir shaxsning fikrlari yordamida, uning asaridan olingan sitata “orqasiga” yashirib. “tasdiqlab”, isbotlab olish niyatida ishlatishi mutlaqo xato bo‘lib, notiqlikda keskin qoralanadi.

Ma‘lumki badiiy adabiyot kishilarning ruhiyatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi eng kuchli san‘at turlaridan biridir. Notiqlik san‘atida badiiy adabiyot muhim ahamiyatga ega. Badiiy adabiyotdan mohirlik bilan foydalanish nutqning jonli, ifodali va ta‘sirchan bo‘lishiga olib keladi. Masalan, taniqli mutaxassis-lardan biri Siddiq Mo‘minning “Suhbatga tayyormisiz?” nomli ma‘ruzalaridan bir parcha keltiramiz: “O‘zbek ayollarining muomala bobida bunday ustakorligi, ayniqsa, peshonasiga jo-hilroq er bitilganlarga juda qo‘l keladi. Masalan, Cho‘lponning

mashhur “Kecha va kunduz” romanidagi Qurvonbibi soʻzga qancha epchil boʻlsa, Razzoq soʻfi shu qadar kamgap, indamas, damini ichiga solgan, ziqna, shu tufayli doimo qovogʻidan qor yogʻib turadigan odam. Shuning uchun Qurvonbibi biror sohada erining roziligini olmoqchi boʻlsa, gapni uzoqdan — Razzoq soʻfi taʼbiga mos keladigan, uni eritib yuboradigan soʻzlarni muloyim ohangda aytishdan boshlaydi. Xotini nima desa “yoʻq” deyidigan soʻfi bunday kezlarda unga yon bosishga, uning gaplariga koʻnishga majbur boʻlardi.

Bunday yoʻl bilan hatto Akbarali mingboshining odamlari soʻfidan qizini mingboshiga toʻrtinchi xotin qilib berishga roziligini ham oladilar. Bu haqda Razzoq soʻfi xotini bilan boʻlgan suhbatda: “Ularing allaqanday daromad qilib kelib zoʻrgʻa ipning uchini chiqaradi-yu, men “yoʻq” deb “tomdan tarasha tushganday” javob beramanmi q...” — deydi va oʻzining qanday rozilik berib yuborganligiga ham hayron qoladi.

Xalqimiz orasida “Berdisini aytguncha shoshmay tur”, “Tomdan tarasha tushganday gapirma”, degan naqlar bor. Zero, tadbirkor va aqlli odamlar suhbatdoshlariga biron jiddiyroq fikrni aytishdan oldin tinglovchini suhbat mavzuiga obdon tayyorlab olishga harakat qiladilar.”

Yuqorida keltirilganlardan koʻrishimiz mumkinki, nutq jarayonida badiiy adabiyotdan parchalar keltirish, maqollardan oʻrinli foydalanish nutqimizning taʼsirli va xalqqa yaqin boʻlishiga katta yordam beradi. Ammo badiiy asardan parcha keltirilayotganda oʻsha asarning omma ongiga singib ketganmi, yoʻqmi, shu taraflariga ham eʼtibor berishimiz kerak. Chunki koʻpchilik oʻqimagan badiiy asardan olingan parcha tinglovchiga tushunarsiz boʻlib, uni chalgʻitadi. Buning uchun notiq oʻta zukko va bilimli boʻlishi talab etiladi.

Nutqda maqol, matal, frazeologik iboralar, hikmatli soʻzlarni oʻrinli ishlata bilish ham oʻziga xos bir sanʼatdir. Maqol, matal, hikmatli soʻzlar oʻz maʼnodorligi, yorqin va ixcham shakli bilan kishilarning ong va hissiyotlariga kuchli taʼsir eta-

di. Maqol, matal, hikmatli soʻzlar bir necha yuz ming yillar davomida tarkib topgan xalq donishmandligining durdonalari-dir. Bular bilan bezatilgan nutqni tinglovchilar qiziqib eshitadi-lar. Maqol, matal va hikmatli soʻzlar notiq nutqini jonli qiladi, uning taʼsirchanligini kuchaytiradi.

Maqol va matal muayyan xalqning, bir necha oʻnlab avlod-larning aql-farosati, tajribasining yakunidir.

Uzukka yoqut koʻz qanday yarashsa, maqol ham notiqning nutqiga shunday goʻzallik bagʻishlaydi. Xalqimizning “Soʻz koʻrki-maqol”, deb aytgani bejiz emas. Masalan, “Qozonga yaqin yursang qorasi yuqar”, “Yaxshidan bogʻ qolar, yomondan dogʻ”, “Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar” va boshqalar.

Biz ijtimoiy hayotning baʼzi sohalariga taalluqli, ayrim hik-matli soʻz va maqollarni misol tariqasida keltirdik, xolos.

Maqol va matallarni oʻrinli ishlata bilish notiqdan katta ma-horat talab qiladi, uning notqlik sanʼatini qanchalik egallaga-nini isbotlaydi.

Bulardan tashqari, nutqda taʼsirchanlikni taʼminlash uchun maqollardan, matallar, hikmatli soʻz va iboralardan, ayniq-sa, frazeologizmlardan unumli foydalanish zarur. Yozuvchi A.Qahhor oʻz hikoyalarida epigraf sifatida berilgan maqollar orqali oʻquvchilar diqqatini darhol egallaydi. “ Osmon yiroq - yer qattiq” (“Bemor”), “Otning oʻlimi - itning bayrami” (“Oʻgʻri”) va b.

Notqlik sanʼati juda murakkab va masʼuliyatli soha boʻlib, notiqdan oʻz ustida tinmay ishlashni, notqlik mahoratini to-bora oshirib borishni talab qiladi. Buning uchun notiq yoki no-tqlikka daʼvogar shaxs til boyligini oshirib borish ustida tinim-siz ishlashi, xalq ogʻzaki ijodini, yozma adabiyotning jahonga tanilgan durdonalarini, oʻzbek xalqi sevib, ardoqlab oʻqigan va oʻqiyotgan badiiy asarlarni muntazam oʻqib oʻrganib borishi, hikmatli soʻzlar, maqol va matallarni oʻrinli ishlata bilish texni-kasini oʻzlashtirib olishi lozim. Shu bilan birga, nutqda badiiy adabiyot, hikmatli soʻz, maqollar va matallarni keragidan ortiq-

cha ishlatish maqsadga muvofiq emas, chunki tinglovchilarda ko'ngilsiz taassurot qolishi mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Qanday vositalar nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi?
2. Nutqda yumorning roli va me'yori haqidagi tasavvuringiz.
3. Notqlik san'atida uslubiyatning o'rni nimada?
4. Notqlikda sitatalar, iboralar, maqol, hikmatli so'zlarning o'rni haqida ma'lumot bering.
5. Suqrotning "Ko'p gapirish va ko'p fikrni berish boshqaboshqa" degan fikrini izohlab bersangiz.

YOZMA MATN VA OG'ZAKI NUTQDA VAZIFAVIY USLUBLARNING O'RNI

*Go'zal fikr xunuk ifodalansa, o'z qadrini yo'qotadi.
Volter.*

Uslubiyat me'yorlarini shakllantirish nutq madaniyatining o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi, uning eng muhim vazifasidir. Chunki uslubiyat me'yorini yaxshi bilmasdan, ularni mukammal egallamasdan turib, nutq madaniyatiga, madaniy nutqqa erishib bo'lmaydi.

Ma'lumki, har bir so'zni o'ylab, tanlab, ularning har bir ma'nosiga, ma'no qirralariga yaxshi e'tibor qilib, o'rinli ishlatish haqida juda ko'plab xalq maqollari, hikmatlari mavjud. Bu haqda qadimgi davr faylasufi Aristolelning "Poetika" va Sharqning buyuk mutafakkir ijojkorlari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning "Mahbub ul - qulub" asarlarida ham qimmatli fikrlar aytilgan.

"Tilshunoslikda so'zlarni, gaplarni va ularning ma'nolarini mavhum va umumiy terminlar orqali ochib berish markaziy

tendensiya edi. Bu tilni undan foydalanishning real kontekstlaridan ajratishni talab qilar edi. Noam Xomskiy (1965) fikricha, til ikkita analitik turlicha bo'lgan unsur atamaları orqali ta'riflanishi mumkin deb hisoblagan. Bu – lisoniy layoqat va lisoniy tasavvur. Lisoniy layoqat deganda, u insonlar tilni o'rganayotganda grammatik tuzilmani o'rganishlari va mazkur bilim orqali mantiqiy bog'langan gaplar tuzish qobiliyatini tushungan. Amalda tildan muayyan fikr ifodalashda foydalanish samarali bo'lgan. Uning fikricha, layoqat (sintaksis tuzilmasini bilish) ilmiy nuqtai nazardan ta'riflanishi mumkin, samara esa, bunday ta'riflana olmaydi, chunki u tartibga solinmagan”.¹²

Tilda har bir so'zni, grammatik formani, har bir sintaktik qurilmani o'z o'rnida, ya'ni shu so'z, shu grammatik shakl yoki sintaktik qurilma (gap) ishlatilayotgan vaziyatni (tinglovchi saviyasi, ularning holati kabilar) hisobga olgan holda to'g'ri qo'llash, ularning shu vaziyatiga eng mos tushadiganini tanlab, nutq jarayonida ulardan unumli foydalanish, eng ixcham va fikrni lo'nda ifodalanganini, eng sodda va hammaga tushunarlisini ishlatish nutqning ravonligini, tushunarligini, aniqligini ta'minlaydi, uni g'alizliklardan xalos etadi.

“Samara, boshqacha qilib aytganda, lisoniy layoqatning amalga oshirilishidir (Xomskiy, 1965). Lisoniy tahlilni o'ylab tuzilgan gaplarda amalga oshirish mumkin. Kundalik nutqimizda ishlatiladigan matnlarni esa, lisoniy tahlilga tortish mushkul. Tabiiy nutqda grammatika, sintaksis qoidalari mukammal ishlamaydi. 19-bet Alternativ nuqtai nazar pragmatika sohasi bilan shug'ullangan “tilning oddiy faylasuflari” hisoblangan Lyudvig Vitgenshteyn (1953) va J.I. Ostin (1962)ga tegishli. Ularning fikrlaricha, istalgan bir gapning ma'nosi, agar u hosil bo'lgan kontekstda ijtimoiy ta'sir inobatga olinmasa, to'la anglanmaydi. Vitgenshteyn 1953 yilda til – ijtimoiy hayotning

¹² Ian Hutchby. Media Talk (Conversation Analysis and the Study of Broadcasting). -New York, 2006. Page 19

muayyan sharoitlaridagi muayyan maqsadlarga erishish uchun vosita, degan nuqtai nazarni ilgari suradi¹³.

Soʻzlarni, grammatik shakllarni beixtiyor, nazoratsiz aytib yuborish, boʻlar-boʻlmasga u yoki bu soʻzdan yoki grammatik shakllardan foydalanaverish, umuman, ularni ortiqcha qoʻllash, oʻrinli-oʻrinsiz takrorlayverish nutqni bachkana qiladi, fikrni xiralashtiradi, uning taʼsirchanligiga putur etkazadi. Zero, donolar aytganidek:

*Nodonlardek yuzlab soʻzni qilma qator,
Donolardek bir soʻz degil, lek maʼnodor.
Saʼdiy Sheroziy*

yoki

*Soʻz joyu vaqtiga boʻlar ekan mos,
Sehru afsun uchun u boʻlar asos.
Abdurahmon Jomiy.*

Maʼlumki, uslubiyat - fikrni ifodalash yoʻllari, til vositalarini - materiallarini toʻgʻri tanlay bilish haqidagi taʼlimot-uslublar ilmi boʻlib, tilning vazifalariga mos ravishda bir nechta koʻrinishlarga ega: soʻzlashuv uslubi, ilmiy-ommabop uslub, rasmiy, publitsistik va badiiy uslub kabilar.

Xuddi shu fikrni uslubiyatning tarkibiy qismiga kiruvchi grammatik uslubiyat haqida ham aytish mumkin.

Grammatikaning morfologiya va sintaksis nomlari ostida ikki qismga ajratilish holati grammatik uslubiyatda ham saqlanadi va morfologik uslubiyatga hamda sintaktik uslubiyat kabi ikki koʻrinishda boʻladi.

Grammatika soʻzning shakl yoki sintaktik qurilmaning lugʻaviy va grammatik maʼnolarini oʻrgansa, grammatik uslubiyat ularning qoʻshimcha-ekspressiv maʼnolarini, vazifaviy xususiyatlarini oʻrganadi.

¹³ Ian Hutchby. Media Talk (Conversation Analysis and the Study of Broadcasting). -New York, 2006. Page 19

Grammatika bilan uslubiyat birgalikda faqat grammatik shakllarning nimani ifodalanishini emas, balki qanday ifodalanishini ham o'rganadi.

Grammatik uslubiyatning bir qismi bo'lgan morfologik uslubiyat har bir grammatik shaklning, so'z yasovchi vositalar va har xil boshqa shakllarning uslubiy xususiyatlarini o'rganadi.

O'zbek tilida qo'shimchalar doirasidagi ma'nodoshlik (sinonimiya) hodisasi ham keng tarqalgan: shu sababli - shu sababdan; talabalardan biri - talabalarning biri; otga mindi - otni mindi; savlatli - savlatdor; kabi.

O'zbek tilida so'z yasovchi va grammatik ma'no ifodalovchi juda ko'p qo'shimchalar o'z variantlariga ega bir-biri bilan o'zaro sinonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, jo'nalish kelishigi ko'rsatkichi **-ga** hozirgi tilimizda **-ka**, **-qa** variantlarida uchrasa, eski o'zbek tilida **-g'a** (borag'a- qilurg'a, so'rag'a) ko'rinishida uchraydi. Fe'llardagi **-giz** ko'rsatkichi **-kiz**, **-g'iz**, **-qaz**, **-gaz** va hatto, ba'zan **-kar** (o'tkar, etkar) variantlarida uchraydi.

Bundan tashqari, bir kelishik qo'shimchasi o'rnida ikkinchi kelishik qo'shimchasi qo'llanadi va ikki xil sintaktik qurilma xosil qiladi. Bu hodisa hozirda morfologik uslubiyatning tekshirish ob'ekti sifatida qaralmoqda. Har holda o'zbek tilida shu sababli - shu sababdan; talabalardan biri - talabalarning biri tipidagi qo'llanishlarda go'yo **-li** qo'shimchasi bilan **-dan** qo'shimchasi yoki **-dan** qo'shimchasi bilan **-ning** qo'shimchasi sinonim sifatida qo'llanayotgan bo'lsa ham, boshqacha aytganda, gap go'yo **-li**, **-dan** va **-ning** qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari haqida borayotgan bo'lsa ham aslida bunday holatlar sintaktik uslubiyatning tekshirish ob'ekti bo'lishi kerak. Chunki ular faqat shunday sintaktik qurilmalar, shunday qurshovlardagina shu holatda ishlatiladi: bu o'rnida lisoniy birliklar yaxlit holida o'zaro munosabatda bo'ladi. Quyidagi holatda ham shu hodisani kuzatish mumkin: *Pul berib daftar, qalam olib kelishga buyurdi (kelishni buyurdi); Barcha kerakli adabiyotlarni ko'rib chiqishga -*

chiqishni tavsiya qilaman; Ba'zan bunday qurilmalarda sintaktik shakl o'rnida analitik shaklni ishlatish hollari ham uchraydi: *O'z qarashlarini gapirdi - o'z qarashlari haqida gapirdi* kabi.

Ma'lumki, bunday qurilmalarning har birini sintaktik uslubiyat o'ziga xos xususiyatlari hamda imkoniyatlarini talqin qilib berishi, har birining qaysi nutq uslubiga xoslanganligini ajratib berishi lozim. Jumladan, sintaktik shakl ishtirok etgan holatlar jonli so'zlashuv nutqi uchun xoslangan bo'lib, analitik shakl ishtirok etgan holatlar publitsistik, rasmiy nutq uslublariga xoslangandir.

Tilimizda ba'zan ayrim grammatik shakl pleonastik (qo'sh) qo'llaniladi. Bunday qo'llash nutqda ortiqchalikni vujudga keltirishi, nutq aniqligiga putur etkazishi, fikrni xiralashtirishi, bachkanalashtirishi mumkin: *toychoqchaginam, kichkinagina, ichilib qo'yildi, to makdabgacha, Yangiqishloq qishlog'i, bir kalima so'z, o'n yillar o'tdi. 6ta o'g'il - qizlarim bor, har bir dalillarni* kabi qo'llanishlarda grammatik shakllar yoki so'zlarning o'rinsiz, maqsadsiz qo'llanishi natijasida ana shunday hol yuz berganini kuzatamiz: kichginagina tipidagi qo'llashlarida **gina**, solib bo'lindi qo'llanishidagi **in**, ichilib qo'yildi qo'llanishlarda oldingi so'zdagi **il**, to maktabgacha qo'llanishida to elementi (bunda ba'zan kuchaytirish ifodalanishi mumkin, ana shunday vaqtda to elementning ishlatilishi o'zini oqlaydi), keyingi birikmalarda *qishlog'i, kalima so'zlari, o'n yillar o'tdi, 6ta o'g'il-qizlarim bor, har bir dalillarni* birikmalarida **lar** qo'shimchai ortiqcha ishlatilgan va nutqda g'alizlik tug'dirgan.

Har bir dalillarni birikmasida **har bir** belgilash olmoshining ishlatilishi **lar** qo'shimchasining qo'llanishiga yo'l qo'ymaydi va aksincha. Chunki **har bir** olmoshi miqdorni chegaralab, umuman ajratishni yakkafigini bildiradi, ya'ni ko'pdan birni ajratadi, **lar** qo'shimchai esa, ko'plik ko'rsatkichi. Shuning uchun **har bir** olmoshi ishlatilgan o'rnida **lar** qo'shimchai va **lar** ishlatilgan o'rnida har bir olmoshini ishlatish o'zini oqlamaydi.

Biroq, shuni ham aytish kerakki, grammatik shakl yoki boshqa vositalarni qo'shaloq holatda qo'llash hamma vaqt ham nutqda ortiqchalik tug'diravermaydi. Ba'zan, juda o'rinli, tushungan holda, ma'lum bir maqsadni ko'zda tutib, shunday qilinsa, nutqni ravon qiladi, fikrni aniq, lo'nda, bor nozikliklari bilan ifodalanishga yordam beradi, nutq ta'sirchanligini oshiradi, ma'noni kuchaytiradi, bo'rttiradi: **Ulug' ayyom kunlari; shuncha yil tuz-namak bo'ldik; besh panjasini og'ziga tiqadi; aytganini qilmay qo'ymaydi; biz o'zimiz aytib qo'yamiz** kabi qo'lanishlarda ana shu holni kuzatamiz. To'g'ri, **namak, kalima, ayyom, panj** so'zlari fors-tojik tillarida **tuz, so'z, kun, besh** so'zlariga to'g'ri keladi. Biroq, o'zbek tilida ular, birinchidan, boshqa ma'noda qo'llanilishi mumkin bo'lsa, ikkinchidan, kuchaytiruvchi vosita vazifasini bajaruvchi sifatida ishlatilishi mumkin. Jumladan, **ulug' ayyom kunlari** birikmasida **ayyom** so'zi **kun** ma'nosida qo'llangan emas, u ma'lum bir sanani ifodalagan, **besh panjasini** birikmasida **panja** so'zi barmoq bir ma'nosida, bir kalima **so'z** birikmasida kalima so'zi so'z leksemasining aniqlovchisi bo'lib kelgan va aqlli, fikrli, lo'nda so'zlari ma'nosida qo'llangan; **tuz-namak** qo'llanishida esa o'zbek tilida, og'zaki nutqda ko'p uchraydigan non-pon, choy-poy tipidagi holatni kuzatamiz.

Bundan tashqari, bu qo'llanishda **tuz-namakning** ibora holida kelib qolgani ko'zga tashlanadi va u birga turdik, birga bo'ldik birikmalari ifodalagan ma'noni anglatadi. Xuddi shu birikmada ulardan bittasini qo'llash hech mumkin emas.

Keyingi misolda inkor shaklining (-ma) ikkala so'zda ham ishtirok etishi tasdiq ma'nosini ancha kuchaytirib, bo'rttirib bayon qilishni ta'minlangan.

Quyidagi misolga e'tibor qilaylik: Birlari mo'ltotinamo xiylag'ar, birlaridir gavsiyatu gavda har (Muqimiy). Bu misoldagi birlari so'zi tarkibidagi -lar qo'shimchasi go'yo ortiqchadek. Chunki bir sonidan keyin ko'plikni bildiruvchi -lar ko'rsatkichi, odatda, ishlatilmaydi. Biroq shoir bu o'rinda us-

lubiy maqsaddan juda o'rinli foydalangan (-lar qo'shimchasini kinoyani ifodalash uchun unga yangi vazifa yuklab ishlatilgan). Shuningdek, nutqimizda (asosan, og'zaki nutqda) kelingizlar, hormanglar o'rnida hormangizlar tipida qo'llashlar uchraydi. Bunday o'rinda ham **-lar** va **-iz** ko'rsatkichlarini pleonastik (qo'shaloq) tarzda qo'llash o'zini oqlaydi. Chunki bunda hurmat ma'nosi biroz bo'rttirib berilgan, so'zlovchining sub'ektiv munosabati, holati, hatto xursandligi, samimiyligi, hech bo'lmaganda o'zini shunday qilib ko'rsatmoqchi bo'lganligi yoki, qolaversa, o'zini shirinnsuxan qilib ko'rsatmoqchiligi ifodalangan bo'ladi. Misollar: -Kelishdilar, taqsir, kirsinlarmi? O'g'il o'stirish bu turda bo'lmas: u tilasin-tilamasin shartta-shartta tilaganingizcha qilingizda, qarab tura beringiz, Otabek uning ortiqcha bir e'tibor bilan eshitar edi, sarxushchasiga:

- So'zlay beringiz! - dedi... (A.Qodiriy)

Keltirilgan misollardagi **kelingiz-da**, **so'zlay beringiz** so'zlaridagi **-iz** qo'rsatgichiga aslida ehtiyoj yo'qdek. Chunki hurmat ma'nosi kechiring, so'zlang so'zlaridagi **-ing** qo'shimchasi vositasida ifodalangan. Yozuvchi esa o'sha hurmatni yanada bo'rttirish uchun bu shakl ketidan yana **-iz** ko'rsatkichini qo'llagan va o'z fikrini, o'z munosabatini yanada aniqroq ifodalagan.

O'zbek tilida, umuman olganda, -lar qo'shimchasi turli-tuman ma'nolarni ifodalab keladi. Boshlarim og'ridi. Samarqandga olib bordi, shunchalar kuttirasizmi tarzidagi qo'llanishlarda ham buni kuzatish mumkin.

Grammatik uslubiyatda ayrim grammatik shakllarning o'zni almashtirib qo'llashning o'ziga xos tomonlari borligi keng o'rganilishi kerak. Adabiy me'yorda har bir ko'rsatkichning o'zak-negizlarga qo'shilishdagi o'zni qat'iy belgilangan. Ammo ma'lum bir uslubiy maqsadni ko'zda tutgan holda ularning o'rnini almashtirish mumkin: Qalbimni sen ko'zimdanmi anglading; Osmondagi bulutlarning xo'mrayishidanmi qo'rqdingiz, (Oybek); boringlar-borlaring, ketinglar-ketlaring; bor-

ganmi edi- borganim edimi,(og'zaki nutqda). Keltirgan misollarga diqqat qilsak, birinchi ikki gapda —mi yuklamasi aslida adabiy me'yorga ko'ra, anglading va qo'rqdingiz so'zlariga qo'shilib kelishi kerak edi: angladingmi, qo'rqdingizmi holida. Ammo yozuvchi bu shaklni oldingi so'zga qo'shadi va bu bilan o'ziga xos ekspressivlik hosil qiladi, ta'sirchanlikni oshiradi, nutqqa poetiklik ato etadi. Keyingi misollarda —ing va —lar qo'shimchalarining o'rni almashtirish hurmat yoki hurmatsizlik ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan bo'lsa, borganmi edi - borgan edim tipidagi qo'llanishlarda ma'noni kuchaytirish, nutqqa ekspressivlik ato etish, ta'kidlash, jonlilik, jo'nlik, tasviriylilik o'z ifodasini topgan.

Ko'rinib turibdiki, hozirgi o'zbek tilshunosligida, notiqlik san'atida grammatik shakllar uslubiyatini o'rganish alohida ahamiyatga egadir. Grammatik shakllarni o'z o'rnida to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llash, ulardan o'rinli foydalanish nutqimizning ta'sir kuchini oshiradi, uni har hil g'alizliklardan xalos etadi.

Nutqda bir xillikdan qochish, ta'sirchanlikni ta'minlash, nutqqa ekspressiv-uslubiy bo'yoq berish, har bir uslubning o'ziga xosligiga e'tibor berish va uni ta'minlash, grammatik sinonimlardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish ham uslubiyatning diqqat markazida bo'lsagina amalga oshadi. Xullas, tili-mizda ishlatilayotgan grammatik shakllarning qo'shaloq holda qo'llanilishi, nutqda ortiqchalikni tug'dirsa ham, agar ulardan ma'lum bir maqsadda to'g'ri foydalanilsa, ortiqchalik umuman sezilmaydi. Ayniqsa, bunday qo'llash nutq ta'sirchanligini oshiradi, nutq aniqligi, ifodaliligini ta'minlaydi, u tasviriyl vosita vazifasini bajaradi. Shuningdek, ayrim grammatik shakllarni adabiy me'yorda belgilanganidan (odatdagidan) boshqacharoq qo'llash, ma'lum bir nutq uslubining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib qo'llash nutqning buzilishiga olib kelmay, balki nutqning rang-barangligini ta'minlaydi, ekspressivligini oshiradi, hatto xarakter yaratish uchun ham xizmat qiladi. Ammo

bundan boshqacharoq qo'llash u yoki bu uslubning o'ziga xos uslubiy me'yorlari taqozo etgan darajada bo'lsagina o'zini oqlaydi. Masalan, qora, ora, menga so'zlarini faqat she'riyatdagina qaro, aro, mango tipida qo'llash, -ur, -mak kabi shakllarni ham faqat she'riyatdagina, poetik uslubdagina ishlatish ana shunday natija berishi mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Nutq madaniyati, notiqlik san'ati va uslubiyatning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Notiqlik san'atida uslubiyatning o'rni nimada?
3. Notiqlik mahoratini oshirishga yordam so'rab, Sizga murojaat qilishsa, qanday amaliy yordam ko'rsata olasiz?
4. Nutq jarayonida qanday xatolar kechirilmaydi?
5. Volterning "Go'zal fikr xunuk ifodalansa, o'z qadrini yo'qotadi" qanday izohlaysiz?

IY BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA NUTQIY MAHORATNI OSHIRUVCI TRENINGLAR

(1-mavzu. «Tanishuv» treningi)

Har bir trening mashg'ulotingizning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulot xonasida o'rnatilgan psixologik muhitga bog'liq. Tinglovchilaringiz o'zlarini erkin his etib, erkin harakatlanishlari ularni qanday qarshi olishingizga, bir-birlarini qay darajada bilib olishlari va hamkorlikka qay darajada tayyorliklariga bog'liq. Shuning uchun, birinchi mashg'ulotingiz boshlanishidan avval, mashg'ulot xonasining bezagiga, mebel-larning joylanishiga, iqlimiga va kerakli bo'lgan vositalarning tayyorligiga e'tiboringizni qarating. Kayfiyatni ko'tarish va fikr-lashga chorlash maqsadida yengil, relaktiv musiqalardan foy-dalanish tavsiya etiladi. Stullarni "Doira" shaklida joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu tinglovchilarning bir-birlarini ko'-rib erkin muloqotga kirishishlariga yordam beradi. Beydjiklar (ko'krak nishonasi) tinglovchilarga xonaga kirishgan zahoti be-rilishi – ularni bir-birlari bilan tanishib, ismlarini eslab qolishga yordam beradi.

Tinglovchilar o'rtasidagi devorni, pardani, "muzni" bartaraf etib, do'stona iliq munosabatlar o'rnatish maqsadida quyidagi «Muzyorar» mashqlardan foydalanib o'quv jamoasi ishtirokchi-larini bir-biri bilan uch bosqich bo'yicha tanishtirish tavsiya etiladi: o'zim, men va do'stim, guruhim:

O'z-o'zini reklama qilish: Har bir tinglovchi ismi-sharifini, qayerdan kelganini aytib hayotida erishgan yutuqlaridan uchta-

sini qayd etadi. Hayotidagi asosiy shiori bilan tanishtirib, ushbu mashg'ulotdan nima kutib qolishini bildiradi.

Kutilayotgan natija: Tinglovchilar bir-birlarini bilishadi. Hayotda mehnat bilan erishilgan yutuqlarni baralla ovozda qayd etib, o'zlaridan qoniqishadi. Do'stona muhit yuzaga keladi.

"Ismlarni ayting": Tinglovchilar doira bo'yicha ketma-ketlikda avval o'zlarining, keyin esa ulardan oldin o'zlarini tanishtirgan guruhdoshlarining ismini aytib chiqishadi. Misol uchun:

1-tinglovchi: Men — Nargizaman.

2-tinglovchi: Men — Hasanman. Bu esa — Nargiza.

3-tinglovchi: Men — Dilbarman. Bular esa Nargiza va Hasan va h.

Kutilayotgan natija: Tinglovchilar keyingi mashqlarga o'tishdan avval bir-birlarining ismlarni eslab qolishadi.

"Avtoportret": Tinglovchilardan guruhda chapaqaylar bormi-yo'qmi — oldin aniqlab oling. Doiraning o'rtasiga stol qo'yib, ustiga kerakli ish qurollari, ya'ni flamasterlar va qog'ozlar qo'ying. Barcha tinglovchilarga ushbu vositalardan olishini ayting. Vazifa: chap qo'ldan foydalanib ikki daqiqa ichida o'zlarining portretlarini yaratish. Iloji boricha, avtoportretlarni guruhdoshlariga ko'rsatmay chizishlari kerak va ismlari yozilmaydi. Vaqt tugagach, "ijod namunalari" ustozga topshiriladi. Hamma joy-joyini egallaydi. Psixologik baryer bo'lmish stol davradan olib qo'yiladi.

Kutilayotgan natija: Guruh dinamikasini jadallashtirish, qatnashchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish.

"Bu kim?": Ustoz rasmlar gallereyasini ochiq deb e'lon qiladi va avtoportretlarni birma-bir barcha tinglovchilarga ko'rsatib "Bu kim?" degan savol bilan murojaat etadi. Vazifa: rasimga qarab guruhdoshlarni tanish va ularning ismlarini qayd etish. Ba'zida, rasm mualliflari o'zlarini ham tanimay qolishadi.

Rasm muallifi aniqlangach, yordamchi avtoportretning tagiga ismini yozib qo'yadi.

Kutilayotgan natija: Tinglovchilarning bir-birlarining ismini va shaxsiy sifatlarini qay darajada bilib olganlarini tekshirib ko'radilar. Zavqlanib, kayfiyatlari ko'tariladi.

“Intervyu” va “Niqob”: Vazifa: har bir tinglovchi guruhdoshi bilan suhbatlashib, u haqida ko'proq ma'lumot to'plash. Bar-cha yuziga niqob tortadi va yonidagi qo'shnisi bilan 2 daqiqa davomida suhbat olib boradi. So'ng, niqobni olib tashlab, yana ikki daqiqa davomida suhbatni davom ettiradi. Ba'zilar nafasi qaytib, niqobni belgilangan vaqtdan oldin olib tashlashadi.

Kutilayotgan natija: Tinglovchilar muloqatga kirishishadi. Savol berish va javob berish mahoratlarini sinashadi. Niqobsiz suhbatlashishning afzalligini anglab, hayotda yuzdan har qanday niqobni olib tashlab, suhbatdoshining ko'ziga va yuziga qarab samimiy gaplashishga qaror qilishadi.

“Do'stimning ramzi”: Suhbat davomida olingan ma'lumotlar asosida do'stning ramzi yaratiladi. Masalan: mash'al, ochilayotgan gulg'uncha, daraxt va x.

Kutilayotgan natija: Tinglovchilar suhbatdoshlarining o'zlariga xos sifatlarini ochib, ijodkorliklarini namoyon qilib, ramzlar yaratishadi. Ramz — bu shakl orqali ko'p ma'noni belgilash uslubi ekanligini tushunishadi.

“Do'stim haqida hikoya”: Suhbatdoshlar markazga chiqishib do'stlarini guruhga tanishtirishadi. Tanlagan ramzlarini namoyish qilib, izoh berishadi.

Kutilayotgan natija: Tinglovchilar o'zlarining notiqlik mahoratlarini, taqdimot qilish ko'nikmalarini va ijodkorliklarini namoyish etadilar va bir-birlarini yanada yaxshiroq bilib oladilar.

Mashg'ulot so'ngida do'stona munosabat va ijodiy muhit yuzaga keladi va auditoriyaning ishlashi uchun qulay sharoit vujudga keladi.

Qo'llanadigan vositalar: qog'oz, flomaster, niqoblar.

2-mavzu. Jamoa tuzish, jamoada ishlash va jamoani boshqarishda notiqlik mahorati.

Tinglovchilar 4-5 kishidan iborat bo'lgan kichik jamoalarga bo'linadi. Ularga hayotda doimo insonlar orasida, jamoada yashashlari va ishlashlari lozimligi ta'kidlanib, shunga oid bo'lgan maqollarni, hikmatli so'zlarni eslash tavsiya etiladi.

Sekin-asta tanishuvning uchinchi bosqichiga, ya'ni jamoa (komanda) tuzish bosqichiga o'tiladi.

G'oya — jamoa bamisoli kichik mamlakat, ya'ni o'z nomi-ga, ramzi, madhiyasiga va albatta, yurtboshisiga egadir. Vazifa: bir necha daqiqa davomida jamoa bo'lib fikrlab, nom tanlash, ramzni belgilash, jamoa shiorini aniqlash, guruh qo'shig'ini yaratish va jamoa liderini tanlash. Vazifa vatman qog'ozda bajariladi. Jamoalar taqdimoti.

Kutilayotgan natija: Tinglovchilar jamoada ishlash ko'nikmalarini faollashtirishadi. Ijodkorlik ruhi avj oladi. Tinglovchilar tortishadi, fikrlarini himoya qilishadi, rasm chizishadi, qo'shiq aytishadi va, albatta, rollarni - vazifalarni taqsimlashadi.

Qo'llaniladigan vositalar: doska, marker, vatman-qog'oz, flomasterlar, magnitlar.

3-mavzu. Mavzuga muhtojlik tahlili — nutq samarasi omillaridan biri

“Aqliy hujum” uslubidan foydalanib “trening” iborasining ta'rifini aniqlang. Guruh bilan birgalikla hozirgi kunda treningning boshqa ta'lim uslublaridan afzalligini muhokama qiling. Aynan shuning uchun mashg'ulotlarni tashkil etishda ko'proq noan'anaviy, interfaol innovatsion uslublardan foydalanish tavsiya etiladi.

Siz ustozsiz. Har bir ishingizni, albatta, oldindan rejalashtirishga odatlangansiz. Mashg'ulotlarni va tarbiyaviy tadbirlarni ham har o'quv yilning boshida oldingizga qo'yilgan maqsadlarga asoslanib tuzasiz. Bu yo'sinda yana bir tavsiyamiz — avvalom bor

guruhingizni yaxshilab o'rganib, tahlil qiling. Siz ko'zlayotgan va hozirgi holat o'rtasidagi tafovutni belgilang, ya'ni treningga (mashg'ulotga) muhtojlikni aniqlang. Misol uchun, sizning guruhingizdagi muammo, yoki muhtojlik belgisi boshqa guruhda mavjud bo'lmashligi mumkin. Aynan shu muhtojlikni bartaraf qilishga qaratilgan mavzu tanlasangiz ayni muddao.

Amaliy mashq:

(1) Har bir tinglovchi daftariga aynan o'zining guruhi uchun dolzarb bo'lgan treningga muhtojlik belgilarini, ya'ni mavjud bo'lgan muammolarni belgilaydi;

(2) Jamoani ta'kidlangan muammolar bilan tanishtiradi va izohlaydi;

(3) Jamoa bo'lib fikrlarni umumlashtirib, A-4 formatdagi qog'ozga umumiy jamoa fikri yoziladi.

Taqdimot. Guruh muhokamasi.

Treningga muhtojlik ham aniqlandi. Endi tahlilga o'tamiz. Treningga muhtojlik tahlilining jarayoni:

- muammoni aniqlash;
- ma'lumot yig'ish.

Ma'lumot yig'ish muammoni yorituvchi fakt yoki fikrlarni jamlash demakdir. Buning uchun quyidagi usullar ishlatiladi:

- intervyu
- kuzatuv
- anketa o'tkazish
- imtihon (test)
- muhokama
- majlis o'tkazish
- ishtirokni baholash
- ko'rsatkichlar va hisobotlar

Ma'lumotlarni yig'ish usulini tanlash muammoning hajmiga, imkoniyatlarga va vaqtga bog'liq. Har bir usulning afzalligi va kamchiligi bor. Masalan, anketa o'tkazish texnikasi javoblar sonini ko'paytiradi, ya'ni qisqa vaqt ichida ko'pchilikning ochiq-

oydin fikrini aniqlaydi, lekin chuqur ma'lumotni bermaydi, va shuning uchun, muammoni hal etish uchun to'g'ri qaror qabul qilishning samarali yo'li emas.

Yana bir yo'li — bir necha usullarni ishlatish. Masalan, anketa so'rovi o'tkazish bilan birgalikda intervyu olish va ko'rsatkichlarni o'rganish, ma'lumotlarni tahlil qilish; muammo hal etish yo'llarini tavsiya etish mumkin, treningli yoki treningsiz amalga oshirish mumkin.

Holat tashhis qilingandan keyin, holatni o'zgartiruvchi harakatlar haqida qaror qabul qilinadi. Qaror doimo ham treningga muhtojlikni ko'rsatishi shart emas. Ba'zi holatlarda ma'muriy chora yoki ko'rsatma ishlab chiqarish bilan ham chetlansa bo'ladi. Qaror shuningdek vaqt, byudjet, ish kuchi va shoshi-linchligiga bog'liq.

Kutilayotgan natija: Tinglovchilar mavzu tanlashda aynan o'zlarining guruhlar uchun dolzarblik mezonidan kelib chiqish kerakligini anglashadi. Tanlangan mavzular guruh tinglovchilari uchun juda kerakli va qiziqarli bo'lib, mavjud muammolar bar-taraf etilishiga zamin yaratadi. Tinglovchilar ushbu mashg'ulotga kelganlari tasodif emasligiga ishonch hosil qilishadi.

Qo'llaniladigan vositalar: doska, marker, A-4 formatdagi qog'oz, flamasterlar, magnitlar, slaydlar, proektor.

4-mavzu. Mavzuni tanlash, rejani tuzish va nutqni so'zlash "Aqliy hujum" uslubi.

«Reja tuzmaslik muvaffaqiyatsizlikni rejalashtirmoq demak-dir» g'oyasini mahokama qilish.

Reja tuzish bosqichlari:

1. Maqsad qo'yish
2. Mazmun tanlash va uni tashkil etish
3. Uslub tanlash
4. Tinglovchilarni baholash (rag'batlantirish)
5. Mashg'ulotni baholash.

Har bir guruhga vazifa belgilanib, quyidagi yordamchi ma'lumot yozilgan qog'ozlar tarqatiladi.

1. Maqsad qo'yish. Treningga muhtojlik aniqlangandan so'ng, muhtojlikni maqsadga aylantirish bosqichi keladi. Maqsadni to'g'ri qolipga tushirib yozish trening mazmunini, texnologiya va uslublarni tanlashga yordam beradi.

Yorqin misol: «Alisa ajoyibotlar o'lkasi» ertagidan –

Alisa: Kechirasiz, qaysi yo'ldan ketishim kerakligini ayta olasizmi?

Mushuk: Bu qaerga ketayotganingizga bog'liq.

Alisa: Qaerga borishimning ahamiyati yo'q.

Mushuk: Unda qaysi yo'ldan ketishingizni ham ahamiyati yo'q.

Maqsad aniqligi juda muhim. Borar manzilimiz qanchalik aniq bo'lsa, u yerga yetib borish ehtimoli shunchalik ko'p.

Kurs yoki mashg'ulot maqsadini aniqlashda trener-notiq albatta, tarbiya natijalarini aniq ko'zlashi kerak.

2. Mazmun tanlash va tashkil etish. Qo'yilgan maqsad mazmunni, ya'ni talaba-o'quvchilarning qanday bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlarini aniqlashga yordam beradi. Mazmun aniqlashda

3. Trener-o'qituvchi quyidagilarni nazarda tutishi kerak:

A. Asosiy negiz - talabalar nimalarni bilishlari shart?

B. Foydali negiz - talabalar nimalarni bilishlari kerak?

V. Ikkilamchi negiz - talabalar bilishi shart emas, lekin bilib qo'yganlari yaxshi.

Tanlangan mazmun muntazam ravishda o'quv jarayoniga yordam berish maqsadida tashkil etilishi kerak. Mazmunni tashkil etishda talabalarning ehtiyojini, ularning o'qish saviyalarini va kurs maqsadini nazarda tutish lozim.

To'rt omilni yodda tutish kerak:

(a) miqyos, faoliyat doirasi. Muhtojlik darajasiga qarab, “bilishi shart”, “bilishi kerak” va “bilib qo'ygan yaxshi” materiallariga e'tibor berish kerak.

(b) ketma-ketlik. Mavzu tanlashda ketma-ketlikka e'tibor berish lozim. Yordam beruvchi omillar:

(1) oddiydan murakkabga;

- (2) bilgandan bilmaganga;
- (3) umumiydan muayyanga;
- (4) xronologik usulda;
- (5) aniqdan abstraktga.
- (v) uzviylik, uzluksizlik.
- (g) integrallashuv.

4. Uslub.

Mashg'ulot uslubini tanlash — muammoli vazifa, chunki uslublar qancha bo'lsa fikrlar ham shuncha bo'lishi mumkin.

Uslub tanlashga ta'sir etuvchi faktorlar:

- (a) mashg'ulot maqsadi
- (b) mavjud manbalar (qulayliklar va byudjet)
- (v) vaqt chegaralanmasi
- (g) auditoriya (yoshi, tajribasi)
- (d) o'qituvchining tajribasi (uslublar bilan tanishligiga)
- (e) mazmun.

Uslub tanlash muhimligi:

- (a) samaradorlik masalasi jalb etiladi
- (b) talabalar ishtirokini aniqlaydi
- (v) motivatsiyani kuchaytiradi
- (g) maqsadga erishiladi
- (d) qiziqishlarga javob beradi

Talaba qanchalik faol bo'lsa, mashg'ulotning samaradorligi shunchalik oshadi.

5. Notiq — markazlashtirilgan uslubdan — tinglovchi -markazlashtirilgan uslubga.

Uslub tanlash — o'qituvchining talabaga o'z bilim tajribasini yetkazib berish qarori demakdir. Ushbu qaror trener-o'qituvchi mashg'ulotda talabaning roli qanday bo'lishini istashiga asoslangan.

Markazda — notiq.

Talaba bilimni “laganga suzib olib kelingan” holda qabul qiladi. Dastur vaqtida bajariladi. Talabalar test orqali baholanadilar.

Markazda – talaba.

Markaz o'qituvchidan talabaga o'tadi. Talabalar mavzularni muhokama qilishadi, o'zlari uchun yangiliklar topadi, qatnashib o'qishdan maroqlanishadi. Hamma o'z qobiliyatini sinaydi. o'qituvchi – fasilitator. Ko'proq bilim, vaqt va malaka talab qilinadi.

6. Nutqni baholash.

Trening – bu doimo o'zgarib turadigan dinamik jarayondir. Shuning uchun uni nazorat qilib tahlil qilib turish kerak.

A) Umid qilish. Treningni murakkibligi turli qatnashchilarning mashg'ulotdan nimani kutib qolishidan, ya'ni nimaga umidvor bo'lishlari yaqqol ko'rinib turadi.

- Talaba-o'quvchilar trening dasturidan kutib qolishadi
- Rahbariyat trener va talabalardan kutib qoladi.
- Treningni dizayn qilgan trener aniq maqsadlarni ko'zlaydi.
- O'quv bo'limi treningdan natija kutib qoladi.
- Guruh lideri treningdan guruhdoshlarining faollashishini kutib qoladi.

B) Yuqorida qayd etilgan umidlarni amalga oshishi mashg'ulotga baho berishning maqsadidir. Baholashning afzalligi:

- Trening o'qish talablariga nechog'lik javob berishini ko'rsatadi.
- Baholash trening maqsadlariga yanada aniqlik kiritishga yordam beradi.
- Treningni dizayn qilish va o'zgartirish lozim bo'lgan jarayonni ko'rsatib beradi.
- Kelgusi treninglarga muhtojlikni yoritib beradi.
- Rahbariyatga kelgusi trening dasturlariga kerak bo'lgan qulayliklar va manbalar haqida ma'lumot beradi.
- Rahbatlantirish – trening muhiti, trener va talabalar haqida ma'lumot beradi.

V) Trening dasturini baholash trening dasturini turli davrida o'tkazilishi mumkin:

1) Trening dasturi boshlanishidan avval – talabalarning treningdan umidlarini oldindan bilish foydali: ular bilan reja-

lar haqida suhbat bo'ladi, trening qanday o'tkazilishi kerakligi aniqlanadi.

2) Trening dasturi jarayonida — trening to'g'ri yo'nalishda olib borilayaptimi yoki aksinchaligi ish jarayonidayoq ma'lum bo'ladi.

3) Trening dasturi yakunlangandan keyin — ko'proq uchraydigan hol. U turli jarayonlarni nazarda tutadi:

(a) moddiy manbalar

- Qulayliklar
- Turar-joy
- Transport
- Laboratoriya
- Auditoriyalar

(b) nomoddiy manbalar

- Tashkilot
- Ma'muriyat
- Moliya
- O'qitish texnikasi
- Stil

(v) kadrlar

- Talabalar
- Trenerlar
- Koordinatorlar
- Yordamchilar

(g) kim baho beradi:

- Talabalar o'zlari
- Ustozi
- Do'stlari
- Atrofdagilar.

Reja tuzishda juda oddiy moduldan foydalanishingizni tavsiya etamiz:

Mashg'ulot - tadbir moduli
(MAVZUNING NOMI)

Ustoz: _____

Talaba-o'quvchilar bosqichi va soni: _____
 Mashg'ulot davomiyligi: _____
 Mashg'ulot - tadbirni o'tkazish joyi: _____
 Maqsad: _____

№	Mashg'ulot rivoji	Qo'llaniladigan uslub	Vaqt	Vosita
1.	<i>Bu nima? (kim?)</i>			
2.	<i>Nima uchun? (Nima maqsadda?)</i>			
3.	<i>Qanday qilib? (Qaysi uslubda?)</i>			
4.	<i>Xulosa</i>			

Mashg'ulot jarayoniga lider talabalarni faol jalb etish tavsiya etiladi. Ular bilan mashg'ulotdan oldin yo'llanma berish uchun uslubiy mashg'ulot o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Monitoring muhimligi. Tadbir natijalari muhokamasi.

Kutilayotgan natija: Darsga va o'qituvchiga nisbatan munosabat o'zgaradi. Talabalarning yoshi, qiziqishlari, ularga kerakli bo'lgan ko'nikma va malakalar, kalendarning "qizil" sanalari hisobga olinadi; qo'llanadigan uslub va shakllar o'zgaradi, mashg'ulot o'tkazuvchilarning fikr almashishlari tashkil etiladi.

Qo'llaniladigan vositalar: doska, marker, proektor, slaydlar.

5 - mavzu. Notiq shaxsi. "Namunali nutq"

Ta'lim va tarbiya. Tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining roli:

1. Ko'makchi
2. Maslahatchi
3. Tarbiyachi
4. Tadqiqotchi

Mahoratli notiqning shaxsiga qo'yiladigan ba'zi-bir talablar:

- a) bilimdon, zakovatli
- b) samimiy va dilkash

- (v) malakali mutaxassis
- (g) treningning hamma aspektida ijodkor
- (d) yaxshi taqdimot va nutq egasi
- (e) hazil-mutoyiba tuyg'uli
- (yo) tajribali

«Aqliy hujum» uslubi yordamida namunali talaba imidjini guruh bo'lib aniqlash.

1-mashq: Kichik jamoalarda “Guruh portreti” uslubi yordamida namunali talabaga ta’rif berish.

“Guruh portreti”: Ishlashdagi izchillik shunday:

1. Ekranda hazil-mutoyiba tarzida chizilgan portret namoyish etiladi. Bu - ramziy o'qituvchining portreti.

2. Tinglovchilarga quyidagi savol bilan murojaat etiladi: “Namunali bo'lish uchun talaba har bir a'zosi muayyan vazifalarni bajarishga qaratilgan. Vazifalarni aniqlang.”

3. Har bir jamoaga ekrandagi portret nusxasi beriladi. Har bir jamoa fikrlab, ushbu portretga chizmalar yordamida ta’rif beradi.

4. “Guruh portreti” ishning natijasi hisoblanadi. U bilan keyinchalik ishlash, ya’ni tahlil etish, aniq qadamlarni takomillashtirish, yaxshilash va boshqa maqsadlarda qayta ishlab chiqish mumkin.

2 mashq: Yakka holda bajariladigan ish. Vazifa:

(1) oq varoqqa tarbiya ishlarini rivojlantirish uchun qilindigan vazifalarni yozish kerak (ko'pincha insonlar o'z qadriyatlarini vazifa belgilayotganda ifodalaydilar. O'qituvchining ish uslubini ko'rsatadi).

(2) Aniqlangan vazifalar bajarish roliga o'zlarini qo'yib, o'zlarining timsollarini chizishlari kerak. Masalan: sham, quyosh, ruchka va hokazolar, va ushbu mavzu bo'yicha 1 daqiqaga mo'ljallangan hikoya tayyorlaydi. Individual taqdimotlar video-tasmaga tushiriladi.

«Talabaga maslahatlar» yozma ravishda tarqatiladi.

1) *Kutilayotgan natija: Ustoz-trener vazifasini aytib bera oladilar*

2) *Namunali talaba bo'lish uchun kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni aniq bilishadi*

3) *O'zlari uchun namunali talaba bo'lish maqsadida "Shaxsiy reja" tuzadilar.*

Zamonaviy talabaga qo'yilgan talablar aniqlanadi. Har bir tinglovchi o'zini tahlil qilib, kamchiliklarni aniqlaydi va bu ularga kelgusi ish rejasiga o'z ustida ishlashga oid vazifalarini kiritishga yordam beradi.

Qo'llaniladigan vositalar: doska, marker, video-kamera, flasterlar.

6-mavzu. Nutq madaniyati va notiqlik mahoratini oshirish yo'llari

Nutq madaniyati va notiqlik mahorati — ishontirish usullarini o'rgatuvchi fan. Notiqlik mahorati — namunali o'qituvchi muvaffaqiyati uchun muhim omil.

«Aqliy hujum» yordamida yaxshi notiq qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerakligini aniqlaymiz.

Videotrening yordamida tinglovchilar o'zlarini notiq sifatida baholaydilar. Baholashga ko'mak beruvchi savollar:

a. O'zimizni notiq sifatida chetdan kuzatib, qanday ijobiy tomonlarimizni ko'rdik (ixtiyoriy ravishda har bir tinglovchi o'ziga baho beradi);

b. O'zimizni notiq sifatida chetdan kuzatib, qanday salbiy tomonlarimizni ko'rdik (ixtiyoriy ravishda har bir tinglovchi o'ziga baho beradi);

v. Qaysi bir tinglovchini eng zo'r notiq deb hisoblaysiz? (O'zini maqtashi ham mumkin).

Xulosa. Nutqqa tayyorgarlik — psixologik jihatdan sovg'a tanlashga o'xshaydi. Sovg'a in'om etuvchilar uch toifaga bo'linadi:

1) O'ziga keraksiz narsani bировga sovg'a qilib yuboruvchi (madaniyatsiz) (nutq nutq uchun so'zlanadi);

2) O'ziga ravo ko'rgan narsani birovga in'om etuvchi (sovg'a taqdim qiluvchi sovg'a oluvchini o'zidek ko'radi) (nutq o'zi uchun so'zlanadi);

3) O'ziga ravo ko'rgan narsadan ham a'lo narsani in'om etuvchi (nutq tinglovchi uchun so'zlanadi).

Nutq notiqning o'ziga yoqmasa, tinlovchilarga in'om etmasligi lozim. Nutq ham sovg'a kabi tinglovchilar uchun yoqimli va kerakli bo'lishi darkor. Shundagina nutq samarali bo'ladi.

Nutqiy axloq madaniyati muammosi 4 ta savolga javoblarni qamrab oluvchi sohada mujassamlangan. Bular:

1. Nima maqsadda so'zlaymiz?
2. Nima demoqchimiz?
3. Qanday vositalar yordamida so'zlaymiz?
4. Nutqimizga munosabat qanday?

Birinchi savolga javob - nutqimiz maqsadini, ikkinchisiga javob - bo'lajak nutq g'oyasini, uchinchisiga javob - nutq (yozma yoki og'zaki) muayyan matnini, to'rtinchisiga javob - notiq tomonidan qo'yilgan maqsadga tinlovchilar munosabatining muvofiqligini aniqlaydi.

Demak, nima so'zlashimiz muhim, ammo qanday so'zlashimiz (qay vositalar bilan) yanada muhimroq.

<i>Notiqning nutq samarasini ta'minlovchi omillar</i>	<i>Nutq samarasiga putur yetkazuvchi omillar</i>
Tinglovchi auditoriyani hurmat qilish	Auditoriyaga befarq bo'lish
Tinglovchilarni aqlli deb bilish (Chunki jamoa ongi doim yakka ongdan yuqoridir)	O'zini o'ta bilimdon deb bilish
Tinglashni o'rganish	Tinglashga toqatsizlik
Madaniyatli bo'lish	Madaniyatning yetishmasligi
So'z boyligi (sinonimlardan unumli foydalanish)	So'z boyligining yo'qligi, jargonlarni, varvar so'zlarni ko'plab ishlatish

Savodli bo'lish (orfoepik, sintaktik xatolarga yo'l qo'ymaslik)	Tallaffuzda, jumla tuzishda g'alizliklar
Mantiqiy so'zlash (tizimlilik): Nutq so'zlashda «Muvaffaqiyat moduli»dan foydalanish (1. Nima? 2. Nima uchun? 3. Qanday qilib? 4. Xulosa)	Uzok-yuluq gaplar
Me'yorda imo-ishora, mimika, pantomimika	Jonsiz yoki o'ta his-hayajonli so'zlash
Nutqqa jiddiy tayyorgarlik	Nutqni rejalashtirmaslik
Joy psixologiyasini o'rganish	Noma'lum joy bilan tanishmaslik
Tinglovchi auditoriya psixologiyasini o'rganish: A) yosh psixologiyasi B) jins psixologiyasi V) kasb psixologiyasi va hokazolar.	Auditoriya psixologiyasidan emas, o'z istaklaridan kelib chiqib so'zlash
To'g'ri ton, tembr, tezlik tanlash	Muvozanatsiz so'zlash
Nutqni yurak orqali o'tkazish (jonli, samimiy so'zlash)	Nosamimiy, befarq so'zlash (hisobot uchun)
Yangicha (innovatsion) usullardan foydalanish	An'anaviy fikrlash
Nutqning betakrorligi (shaxsiy hayotiy tajriba bilan sug'orilganligi)	Odatiy, kitobiy so'zlash

Avvalambor, o'zimiz – o'qituvchilar notiqlik bobida talabalarga yorqin namuna bo'lishimiz darkor. Notiqlik mahorati – muvaffaqiyatning muhim omillaridan ekan, yoshlarimizga mashg'ulotlarimizda erkin, tezkor fikrlashga imkon yaratuvchi zarur sharoitlar yaratishimiz, turli mashqlar tashkil etishimiz lozim.

Nutq madaniyati va notiqlik mahoratini oshirishga qaratilgan mashqlar:

«Reklama qilish» (o'zini o'zi, do'stini, guruhini, biror bir buyumni), «Hamma shanbalikka», «Tabriklayman, qutlayman» kabi mavzularda qisqa nutq tuzish. Bundan tashqari tezkor-

likni, hozirjavoblikni oshiruvchi «Blits-o'yin», «Hikoya tuzish», «Ta'rif berish» (masalan buyumga, rangga, harakatga, insonga) kabi mashqlar.

1-TARQATMA. MOHIR NOTIQ BO'LISH SIRLARI

<i>Yordam beruvchi omillar</i>	<i>To'siq bo'luvchi omillar</i>
O'zim:	O'zim:
• Maqsadga intilib astoydil ishlash • Turli imkoniyatlardan foydalanib, mashq qilish • Tanqidlarni to'g'ri qabul qilish • Notqlik haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish • Hamkasabalarimni kuzatish va ulardan o'rganish • Notqlik to'g'risidagi videokassetalarni tomosha qilish • Kuchli va zaif tomonlar ro'y-xatini tayyorlash	• Bilim yetishmasligi • Qo'rquv • O'ziga ishonchning yetishmasligi • Manbalar tanqisligi • Yomon odatlar, illatlar • Foydaning darrov ko'rinmasligi • Tayyorgarlikning kamligi • Jismoniy nuqson
Boshqalar:	Boshqalar:
• Ular menga ma'lumotlar bilan yordam berishlari mumkin. - Yuksalish uchun maxsus sohalar bo'yicha maslahatlar olish	• Meni tanqid qilishadi • Ustimdan kulishadi • E'tibor berishmaydi
Tashkilot:	Tashkilot:
• Mening o'sishim uchun manbalar qidiradi • Meni treningga jo'natadi • Meni rag'batlantiradi	• Qo'llab-quvvatlamaslik • Qadrlamaslik • O'sish uchun imkoniyatlar yaratmaslik

Kutilayotgan natija: Tinglovchilar talaba-o'quvchilarni notqlik mahoratini oshirish yo'llari, nutqqa tayyorgarlik noan'anaviy usullari bilan bilan tanishishadi va o'z tajribasidan va tajribali notqlar hayotidan, ijodidan misollar keltiradi. O'zining va o'zgalarning tajribasi tahlil qilinadi.

Qo'llaniladigan vositalar: doska, videoproektor, videokamera, ekran, marker, qog'oz, flomasterlar.

7-mavzu. Milliy qadriyatlar. Qadriyatlarga ta'sir etuvchi omillar

«Milliy qadriyat» iborasiga guruh bo'lib ta'rif berish. Milliy va umum-insoniy qadriyatlar tushunchalariga misollar keltirish.

Qadriyatlar, ularga ta'sir etuvchi omillarni «Diagrammashtirish» yoki «Aqliy hujum» uslubi yordamida aniqlash (doskadan foydalaniladi).

Individual vazifa: Qadriyatlar ketma-ketligini aniqlashga qaratilgan mashq. 10 qadriyat yozilgan qog'ozlar tarqatiladi. Vazifa: (1) har bir tinglovchi o'zining shaxsiy fikridan kelib chiqib, o'ntadan uchta nisbatan muhim bo'lmagan qadriyatning nomini o'chiradi;

(2) qolgan 7 ta qadriyatlarni o'zi uchun muhimligi bo'yicha raqamlab chiqadi; (3) jamoa bo'lib muhokama. Xulosa: qadriyatlar har kim uchun har xil ahamiyatga ega.

Qadriyatlar munosabat xulq-atvor

Qadriyatlarni deyarli mustahkam va ularni o'zgartirish qiyin. Munosabat — qadriyat natijasi, hozirjavoblik holati. Xulq-atvor — munosabat natijasi.

Vazifa: jamoa bo'lib ishlash. «Odamlarni jarlikdan qutqar» (yoki boshqa) intellektual ishchan o'yin (O'yin matnini trener oldindan tayyorlaydi). Maqsad: insonlarni ekstremal vaziyatdan qutqarish jarayonida qadriyatlarga bo'lgan munosabat yaqqol namoyon bo'ladi.

Kutilayotgan natija: Tinglovchilar guruh qatnashchilarining rollarini aniqlashadi, jamoa xulq-atvorini kuzatib, o'z fikrlarini o'tkazishlarini va o'zgalar fikriga bo'ysinishlarini kuzatishadi, jamoa bo'lib ishlashda asosiy qadriyatlar aniqlanadi.

Qo'llaniladigan vositalar: doska, marker, flomasterlar, tarqatma material (ishchan o'yin).

8-mavzu. Fikrlash. Fikrlashga chorlovchi usullar.

Fikrlash — bu harakatlarning ketma-ketligini aniqlovchi jarayon. Fikrlash muammo paydo bo'lganda boshlanadi va hal etilganda tugaydi.

Lug'aviy ta'rif: fikrlash — bosh miya faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayon.

Fikrlashning eng oson shakli:

1. Bu nima?
2. Nima uchun?
3. Qanday qilib?
4. Xulosa.

Intuitsiya — his etish. Bilim — odamzod uchun foydali ma'lumot.

Fikrlashga yordam beruvchi usullar:

- “Muzyorar” mashqlar (fikrlarni erkin bayon etishga yordam beradi);
- “Aqliy hujum” uslubi (turli fikrlarni jamlash), fikrlarni birma-bir ro'yxatga olish, aniqlash va toifalash;
- “Xayoliy xarita” tuzish;
- “Diagramma” tuzish (hayoliy xaritani sxemalashtirish);
- “Tashxis qo'yish” uslubi (kamchiliklarni aniqlash);
- “Baliq suyagi” uslubi;
- “Tekshiruv varaqasi” va h.

Har bir usul misollar yordamida yoritiladi.

Kutilayotgan natija: Tinglovchilar talaba-o'quvchilarni fikrlashga chorlash yo'llari bilan tanishishadi va o'z tajribasidan misollar keltiradilar. O'zining va o'zgalarning tajribasi tahlil qilinadi.

Qo'llaniladigan vositalar: doska, marker, flomasterlar.

9-mavzu. Strategik reja tuzish

Fikrlashning turlari haqida so'z yuritish: «Aqliy hujum» usuli yordamida ma'lumot yig'ish (mantiqiy fikrlash, tanqidiy

fikrlash, ijodiy fikrlash. va hokazo.). Shulardan biri — strategik fikrlashdir, ya'ni uzoqni ko'zlab fikrlash.

Orzu qilish, orzuga erishish uchun reja tuzish va unga intilish — bu muvaffaqiyatli inson uchun juda muhim omil. Vaqtinchalik muammolarni to'g'ri tahlil qilib, yorqin kelajakni tasavvur qilib, unga intilib yashashga undash - biz o'qituvchilarning vazifamizdir.

Vazifa: tinglovchilar kichik guruhlariga bo'linib, olgan ma'lumotlariga asoslanib berilgan mavzular bo'yicha strategik rejalar tuzishadi (masalan: maktab, universitet, O'zbekiston Respublikasi, "Kamolot" va hokazolarni istiqbol rejasi).

Kutilayotgan natija: Tinglovchilar uzoqni ko'zlab reja tuzish malakasiga ega bo'ladilar. Jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalari oshadi.

Qo'llaniladigan vositalar: doska, marker, flomasterlar, vatman qog'ozlar, mavzular yozilgan qog'ozlar.

10-mavzu: Komillik

Hozirgi kunda eng muhim, eng dolzarb vazifamiz - jamiyatimiz a'zolarini, avvalambor voyaga etib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ya'ni ularni komil inson qilib tarbiyalash.

"Aqliy hujum" uslubi orqali komillik nima, komil inson deganda qanday insonni ko'z oldimizga keltiramiz degan fikrlarni tinglovchilardan jamlab olamiz.

Har bir xalqning o'zi intiladigan komillik timsollari bo'ladi. Ular ajdodlarimizning o'z farzandlarini mard, sog'lom, qo'rqmas va mukammal qilib tarbiyalash yo'lidagi orzularini ifodalaydi.

Vazifa: Tinglovchilarning komillik timsollarini aniqlash. Ushbu mashq individual tarzda bajariladi. Tinglovchilar komil inson haqidagi orzulari qanday kishilar siymosida o'z ifodasini topganligini aniqlashadi va daftarlariga belgilashadi. So'ng, jamoadoshlari bilan fikr almashishadi.

Oliy ta'lim muassasasi kishining ma'naviy shaxs sifatida shakllanishida poydevor rolini o'ynaydi. Yigit-qizlar bu yerda nafaqat bilim oladi, balki ularning dunyoqarashi kengayadi.

Uning aql-idrokli, teran fikr yurituvchi komil inson bo'lib yetishishida bu muqaddas dargohning ahamiyati katta. Talaba Sizdan ko'p narsani kutib qoladi. Siz unga yordam berasiz, uni yo'naltirasiz, to'g'ri yo'l ko'rsatasiz. Shuning uchun o'zingiz ham komillikka intilishingiz lozim.

Buni siz "Mukammallikka intilish tizimi sizda mavjudmi?" so'rovnoma orqali bilishingiz mumkin. Bu so'rovnoma 15 ta'kiddan tarkib topgan.

2-TARQATMA. «Mukammallikka intilish tizimi sizda mavjudmi?» so'rovnoma

- 1 – mos kelmaydi
- 2 – ko'proq mos kelmaydi
- 3 – ham ha, ham yo'q
- 4 – ko'proq mos kelsa
- 5 – agar mazkur ta'kid haqiqatga to'la mos kelsa
1. Men o'zimni o'rganishga intilaman.
2. Ish bilan va uy yumushlari bilan qanchalik band bo'lmay, o'zimga, albatta, vaqt ajrataman.
3. Yo'limda paydo bo'layotgan to'siqlar meni faollikka chorlaydi.
4. Javob-aloqani kutaman, chunki bu o'zimni baholashga va tahlil qilishga yordam beradi.
5. O'z faoliyatimni nazorat qilishni odat qilib olaman va albatta bunga vaqt ajrataman.
6. Men hissiyotlarimni va tajribamni tahlil qilaman.
7. Men ko'p o'qiymen.
8. Meni qiziqtirayotgan masalalar bo'yicha doim bahs-munozaraga kirishaman.
9. Men o'z imkoniyatlarimga ishonaman.
10. Samimiy bo'lishga intilaman.
11. Atrofdagilarning menga ta'sirini anglab yetaman.
12. Kasbiy mahoratimni oshirishga intilaman va ijobiy natijaga egaman.
13. Yangilikdan zavq olaman.

14. Oshib borayotgan mas'uliyat meni cho'chitmaydi.
15. Xizmat zinapoyasidan ko'tarilishimga ijobiy munosabatda bo'lar edim.

So'rovnoma natijalari:

- 15 - 35 – Rivojlanishdan to'xtash kuzatiladi.
- 36 - 54 – Mukammallikka intilish tizimi mavjud emas, ko'pincha bu holat sharoitga bog'liq.
- 55 - 75 - Faol rivojlanish kuzatilmoqda.

Vazifa: berilgan ta'kidlarga o'z munosabatingizni bildirib, 5 balli tizim orqali baholang.

Maqsad: komillikka intilish tizimi tinglovchilarda mavjudligini aniqlash.

Tahlil qilishning yana bir uslubini tavsiya etamiz. Ushbu usulni qo'llash yo'li: har bir tinglovchi jadvaldagi bo'limlarga o'zi haqidagi ma'lumotlarni yozadi.

3-TARQATMA. "KKIT" uslubi (SVOT-analiz, SWOT-analisis)

Kuchli tomonlar	Kuchsiz tomonlar	Imkoniyatlar	To'siqlar

Maqsad: kishining kuchli va kuchsiz tomonlarini, imkoniyat va to'siqlarini aniqlash. Kuchli tomonlarini yanada kuchaytirish, kuchsiz tomonlarini yo'qqa chiqarish yoki ularga qarshi immunitet hosil qilish, imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish va to'siqlarni bartaraf etish.

Misol uchun bir o'quvchi - talabaning tahlilini keltiramiz:

Kuchli tomonlar	Kuchsiz tomonlar	Imkoniyatlar	To'siqlar
bilimli	loqayd	olimpiada	masofa
xorijiy tillarni biladi	dangasa	chet elda o'qish	oilaviy sharoit
madaniyatli	uyquchi	sport insholari	sog'ligi yomon

Kutilayotgan natija: tinglovchilar erishgan yutuqlari bilan qoniqmay yanada har tomonlama rivojlanishga harakat qilishadi.

Inson komillik sari qanchalik tezkor, ildam harakat qilib borsa, u o'z komilligiga shunchalik ertaroq erishadi. Bu esa jamiyatda taraqqiyotni jadallashtirishga munosib ulush qo'shishga olib keladi.

Qo'llanadigan vositalar: qog'oz, flomaster, marker, doska.

11-mavzu: Muvaffaqiyat "sirlari"

"Aqliy hujum" uslubi orqali muvaffaqiyat — nima?, nima uchun muvaffaqiyatga intilamiz? degan savollarga auditoriyadan javob olib, qanday qilib? muvaffaqiyatga erishish mumkinligiga haqida birgalikda fikr yuritamiz.

Sizning e'tiboringizga muvaffaqiyat "sirlaridan" bir nechtasini havola etamiz:

(1) Maqsad va vazifalarni aniqlash

Inson o'z taqdirini o'zi belgilaydi. Buning uchun o'z maqsadlarini anglab, reja asosida, sabr-toqat ila mehnat qilishi kerak. Hayotda o'z oldiga aniq maqsad qo'ygan kishilargina murodiga yetadi. Shuning uchun o'quvchi - talabalarni maqsadli bo'lishlariga, vazifalarini aniqlashga ko'maklashimiz lozim.

"Agar maqsadsiz bo'lsang, hech narsa qilolmaysan, maqsadning katta bo'lmasa, buyuk ish qilolmaysan!" Suqrot.

(2) Fikrlash

O'qituvchining vazifasi erkin, mustaqil fikrlaydigan o'quvchi -talabalarni tarbiyalash. Shu bilan birgalikda o'z fikriga ega bo'lgan, fikrini bayon eta oladigan va uni himoya qila oladigan o'quvchi - talabalarni tarbiyalash. Shunday insonlar albat-ta jamiyatimizda o'z mavqeiga ega bo'lishlari va muvaffaqiyat qozonishlari tayindir.

(3) Strategik reja tuzish

Erkin, mustaqil fikrlaydigan o'quvchi talabalarni tarbiyalar ekanmiz, ularni albatta orzu qiladigan, strategik fikrlaydigan, ya'ni uzoqni ko'zlaydigan, kelajakni istiqbolli qilib tasavvur eta oladigan, strategik rejalarni tuza oladigan qilib tarbiyalashimiz lozim.

(4) To'g'ri savol bera olish mahorati

Maqsad: tinglovchilarda to'g'ri savol bera olish ko'nikmalari-ni shakllantirish.

Vazifa: "Men kim?" mashqi. O'qituvchi bir tinglovchini taklif etadi va uning orqasiga taniqli bir insonning ismi yozilgan qog'ozni igna yordamida yopishtiradi. Sharti: tinglovchi yozuv-ni ko'rmasligi kerak. 3ta savol berish orqali shaxsni aniqlash

(Charli Chaplin, Amir Temur va hokazo)

(5) Eshita olish mahorati

Samarali eshitish uchun yordam beruvchi va xalaqit beruv-chi omillarni aniqlash. Samarali eshitishda nafaqat so'zlar orqa-li, balki imo-ishora, mimika va pantomimikadan foydalanish mumkin.

Vazifa: "Men kim?" mashqidagi texnologiya takrorlanadi, faqat ism o'rniga kasb yoziladi. tinglovchi bir kasb egasi. Audi-toriya imo-ishora, mimika va pantomimika orqali tinglovchiga u qaysi kasb egasi ekanligini aniqlashda yordam beradi..

(Farrosh, shifokor, direktor, o'qituvchi va h.)

(6) Vaqt boshqaruvi

Vaqt – nima?

nima uchun?

"Agar sen vaqtни boshqarmasang, uni qo'ldan boy berasan".
Parkinson.

(7) Notiqlik mahorati

Muvaffaqiyat qozonishda notiqlik mahorati alohida ahamiyatga ega.

Vazifa: erkin mavzuda hikoya tuzish. Tinglovchi hikoyaning birinchi jumlasini boshlab beradi. Auditoriya mavzuga oid bo'lmagan so'zlarni aytib turadi. Tinglovchi shu so'zlarni qo'llab, mantiqan bog'langan hikoya tuzadi.

Maqsad: notiqlik mahoratini yanada shakllantirish va ko'nikmalarga ega bo'lish.

(8) Oila (*O'z uyida baxtli bo'lgan insongina haqiqatda baxtlidir. L.N.Tolstoy*).

(9) Jamoa (*Kuch - birlikdadir*).

(1). Madaniyat (*Haqiqiy muvaffaqiyat — yuksak madaniyatda*).

(11) Kasbiy mohirlik.

Vazifa: 4ta jamoaga 4ta vazifa beriladi, ya'ni ular oila, jamoa, madaniyat va kasbiy mohirlik loyihalari bo'yicha jamoa bo'lib fikrlashadi, fikrlarini A-3 formatidagi qog'ozga tushirib taqdimot qilishadi. Taqdimot jarayonida tanlangan mavzulari muvaffaqiyat "siri", garovi ekanligiga izoh berishlari lozim.

Kutilayotgan natija: tinglovchilar muvaffaqiyat «sirlarini» tushunib yetadilar va muvaffaqiyat qozonish uchun barcha imkoniyatlarini ishga soladilar.

Kayzenning «Bugun kechadan yaxshiroq, ertaga — bugundan yaxshiroq», — tamoyiliga amal qilishni maqsad qiladilar.

Qo'llanadigan vositalar: marker, flomaster, A-3 formatidagi qog'oz, taniqli insonlar va turli kasblar yozilgan qog'ozlar.

12-mavzu. Vaqt menejmenti (boshqaruvi)

Vaqt boshqarish — muvaffaqiyatli inson bo'lib yetishishda muhim omil hisoblanadi. Inson o'z vaqtini, umrini boshqarishni bilsa, demak u ko'p narsaga ancha oldin, yoshligida erishadi demakdir.

«Aqliy hujum» uslubi yordamida tinglovchilar bilan birgalikda vaqt nima ekanligini birgalikda aniqlaysiz. Vaqt haqida maqollar, hikmatli soʻzlar, sheʼrlarni birgalikda yodga olasiz.

Vaqt menejmenti masalasi bilan shugʻullangan olimlar va ularning fikrlari bilan tanishtirasiz.

Amerikalik olim Serill Parkinsonning «Agar vaqtni boshqarmasang, u qoʻlingdan uchib ketadi» jumlasini (qonuni) mohiyatini ochib berasiz va izohlaysiz.

Italiyalik olim Vilfredo Pareto qoidasi mohiyati: «80-20» («Inson umrining 80 %ini mayda-chuyda, keraksiz ishlarga, 20 %ini muhim, dolzarb ishlarga sarflar ekan»)ni tinglovchilar bilan birgalikda muhokama etasiz.

Germaniyalik olim Eyzenxauer matritsasi mohiyati: «Ishlarni muhim - muhim emas, dolzarb - dolzarb emasga toifalash»ni tushuntirib berasiz.

«Vaqt oʻgʻrilari» tushunchasi yoritiladi va tinglovchilar bilan birgalikda misollar yordamida taʼrif beriladi (Qanchalik «Vaqt oʻgʻrilari» muvaffaqiyatli inson boʻlib yetishishimizda bizga toʻsqinlik qiladi).

Chuqurroq tushunish uchun quyidagi mashqni bajarishni tavsiya etamiz:

Mashq: Har bir tinglovchi yakka tartibda bir kunlik ish rejalari (kun tartibi)ni tuzib chiqadi. Kun tartibidagi har bir harakat yangi qatordan boshlab yoziladi (harakat ketma-ketligi saqlangan holda, ammo bajarilish soati koʻrsatilmaydi).

Gʻoya: Har bir muvaffaqiyatli inson oʻz ishlarini loaqal bir kun avval rejalashtirishi lozim. Shundagina u hayotini boshqarish qobiliyatiga ega boʻladi va koʻproq muhim va dolzarb ishlarni bajarishga ulguradi. Kun tartibini qogʻozga tushirish, miyani ancha dam olishiga olib keladi, xotirada axborotni doim saqlashdan ancha ozod qiladi).

Uyga vazifa: qogʻozda rejalashtirilgan ishlar kun oʻtgach, birga tahlil va nazorat qilinadi.

Maqsad: Quyidagilarni aniqlash: rejalashtirilgan ishlarning necha foizi muhim - dolzarbu, necha foizi — muhim emas

- dolzarb emas, hamda ushbu ishlarning necha foizi amalga oshirildi, qanchasi turli sabablarga ko'ra bajarilmay qoldi, nima sababdan ba'zilar amalga oshmadi. Balki "Vaqt o'g'rilari" sabab bo'lgandir yoki biron-bir bilan bog'liq ba'zi ishlarimizni rejalashtirayotganimizda, ularning vaqtini inobatga olinmagandir. Kelib chiqqan natijalardan to'g'ri xulosa chiqarish – muvaffaqiyatli bo'lish garovidir.

Vaqt auditi (taqsimoti) haqida tushuncha beriladi.

"Dunyoda ilmlar ichida egallash eng qiyin bo'lgani "O'zlikni anglash" ilmi" (Suqrot). Muvaffaqiyatli inson bo'lish uchun inson, avvalambor, o'z fiziologiyasini, xarakterini, imkoniyatlarini, kobiliyatlarini anglashi darkorligi haqida so'z yuritiladi. Shu jihatdan inson fiziologiyasiga (quyosh energiyasini qabul qilish miqdoriga karab insonlarni («to'rg'aylar», «boyo'g'lilar», «kabutarlar»ga) toifalash oid ma'lumotlar beriladi.

Mashq: "Vaqt top" sarlavhasi ostida tinglovchilar jamoa bilan birgalikda she'r yaratadilar.

Maqsad: Har bir jamoaning hayotda maqsadlarini aniqlash, qaysi vazifalarni bajarishga alohida e'tiborlarini qaratishlarini anglash, tinglovchilarda ijodkorlikni oshirish, sog'lom raqobat muhitini yaratish, jiddiy materiallardan keyin miyani ozgina dam oldirish.

Kutilayotgan natija: Hayotda inson muvaffaqiyatli bo'lishida, albatta, omadning, Olloh irodasining ahamiyati katta, ammo «Sendan harakat, Ollohdan barokat» deyilishi bejiz emas. U, so'zsiz, o'z umrining qisqaligini his qilishi, o'z hayotiy maqsadlarini to'la anglashi darkor. Shundan kelib chiqib, nafaqat o'zi uchun, balki oilasi, jamoasi, jamiyati, xalqi, Vatani uchun ezguliklar qilishga ulgurishi lozim. Shu jihatdan, agar inson o'z vaqtining qadriga etmasa ("Umr – oqar daryo"), yoshligi, butun umri behuda o'tishi va oqibatda, muvaffaqiyatsiz, omadsiz, baxtsiz bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Qo'llaniladigan vositalar. doska, markerlar, kog'oz, flomasterlar, ruchkalar.

13- mavzu. Notiqda liderlik (liderlik, yetakchilik) xususiyatini shakllantirish. Ma'lumot yetkazish va qabul qilish mahorati.

Notiqda, albatta, liderlik xususiyatlari mavjud bo'lishi lozim. Birovlarni ishontirish uchun unda yetakchilik xususiyati bo'lishi darkor. "Lider" so'ziga guruh bilan birgalikda ta'rif berish. ("Aqliy hujum" uslubi yordamida). O'qituvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

- 1) Lider inson qanday hislatlarga ega bo'lishi lozim?
- 2) Guruhda liderni tanlayotganda (saylayotganda) qaysi usulni ma'qul deb topasiz?
- 3) Aynan Sizning guruhingiz lideri kim (qanday inson) bo'lishini hohlardingiz (yosh, jins, xarakter xususiyatlari jihatidan)?
- 4) Liderlik tug'ma xususiyatmi yoki tarbiyalanuvchimi?
- 5) "Liderlik" deganda nimani tushunasiz?
- 6) Hayotda lider bo'lish qiyinmi yoki osonmi? Nima uchun?
- 7) Guruhda nechta lider bo'lishi maqsadga muvofiq? Nima uchun?

Trener liderlarning 4 toifasi haqida tushuncha beradi va guruh bilan birgalikda har bir turini muhokama qiladi.

Psixologlarning fikricha, liderlar hayotiy maqsadlaridan kelib chiqib, (o'yinchilar kabi) 4 turga bo'linadilar. Ularning maqsadlari:

- 1) "Nima bo'lsa ham, yutishim kerak" (Fakat g'alaba!)
- 2) "Asosiysi – o'yinda ishtirok etish" (Nazardan chetda qolmaslik muhim!)
- 3) "Asosiysi – o'yinda yutqizib qo'ymaslik" ("Ustimdan kulishlarini xohlamayman!")
- 4) "Umuman o'ynamaslik" (Ehtiyotkorlik ma'qul!)

Guruh bilan birgalikda har bir toifadagi liderlarning ijobiy va salbiy xususiyatlari muhokama etiladi.

Xulosa: 1-toifadagi liderlar jamiyat taraqqiyotiga ko'proq hissa qo'shadilar. Yoshlarimizda liderlikni shakllantirish darkor. Shaxslarni shakllantirmasak, rivojlanish bo'lmaydi. Befarq-

likka qarshi kurashishimiz lozim. Guruhimizda nechta talaba (o'quvchi) bo'lsa, barchasi hayotda lider, ya'ni o'z ishinings ustasi, hayotda o'z o'rnini topgan, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan komil inson bo'lib tarbiyalanishi kerak. Bu talabning shaxsan o'zi uchun ham, u yashayotgan jamiyat, Vatan uchun ham foydalidir. Kelajak - lider yoshlarning qo'lida!

Lider uchun zarur xususiyatlardan biri: axborotni to'g'ri qabul qilish va etkazish ko'nikmalari haqida so'z yuritiladi. Lider-talaba (o'quvchi)larda ushbu ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida quyidagi amaliy mashqlar tavsiya etiladi:

A) **"Arra" uslubi:** Tinglovchilar 2 qator bo'lib, o'rindiqlarda ro'parama-ro'para o'tirishadi. Bir chekkadan o'ng tomonda o'tirgan bir tinglovchi biror mavzuda 1-2 jumladan iborat fikr tashlaydi (masalan, «Ertaga "Istiqlol saroyi"da Nasiba Abdullaeva konsert berar ekan. Tushsak yaxshi bo'lardi») Bu axborotni ro'parasida o'tirgan chap tomondagi tinglovchi qabul qiladi, uni takrorlaydi va bu fikrga munosabat bildiradi ("Agar men sizni to'g'ri tushungan bo'lsam, Siz ertaga «Istiqlol saroyi"da beriladigan Nasiba Abdullaeva konsertiga tushishni tavsiya etyapsiz. Ammo mening fikrimcha, buning iloji yo'q, chunki uning konsertiga 1 kun oldin chipta topib bo'lmaydi"). Bu axborotni o'ng tomonda o'tirgan keyingi tinglovchi shu kabi tarzda qabul qiladi va fikrni davom ettiradi. Bir kalit so'zdan foydalanib, mavzuni burish ham mumkin (masalan, "Agar men Sizni to'g'ri tushungan bo'lsam, Nasiba Abdullaeva konsertiga tushishni iloji yo'q ekan. Fikrimcha, bu yaxshilika, chunki konsertni uyda televizorda ko'rishimiz ham mumkin. Undan ko'ra ro'paramizdagi kutubxonada kitob mutolaa qilganimiz ma'qul") va hokazo. Ushbu yo'sinda so'nggi tinglovchigacha axborot yetkaziladi. So'nggi tinglovchi axborotni qabul qilib, xulosa qiladi. Mashq bajarish jarayonida trener fikrni qisqa-lo'nda va aniq ifodalanishini iltimos qiladi.

Maqsad: Tinglovchilarda qay darajada axborotni to'g'ri qabul qilish va yetkazish ko'nikmalari, tinglash va yodda saqlab

qolish qobiliyati borligini aniqlash va ushbu xususiyatlarni yanada shakllantirish.

Tarqatma materiallar: Guruh a'zolariga kelajakda lider talabalar bilan samarali ishlari uchun ko'mak berishga qaratilgan «Samarali tinglash uchun foydali maslahatlar» tarqatma material sifatida beriladi.

B) **“Zanjir uslubi”.** 1-mashqni bajarish paytida ishtirok etib bo'lgan bir tinglovchini tashqariga (koridorga) taklif etiladi. Uning qo'liga bir qiziqarli mavzudagi qog'ozga yozilgan matn beriladi (Matn hajmi 1 betdan oshmagani ma'qul). Tinglovchidan ushbu matn bilan 3 daqiqa davomida tanishib chiqishni iltimos qilinadi. 3 daqiqadan keyin trener koridorga chiqib, tinglovchi qo'lidagi matnni oladi va koridorga yana bir boshqa tinglovchini taklif qiladi. 1-tinglovchiga vazifa beriladi: koridorda 1 daqiqa davomida tanishib chiqqan matnni 2-tinglovchiga so'zlab berish. 1 daqiqadan keyin 1-tinglovchi xonaga taklif qilinadi, 2-si koridorda yana bir tinglovchiga eshitganlarini gapirib beradi. Shu yo'sinda yana 2-3 tinglovchi ishtirok etadi. So'ngra oxirgi tinglovchi ham xonaga taklif etilgach, undan eshitgan axborotni hammaga e'lon qilishni iltimos qilinadi. U so'zlab bo'lgach, oxiridan Ita oldingi ishtirokchi gapirib beradi esida qolgan axborotni. Shu tarzda oxirgi tinglovchidan boshlab, qog'ozdan ma'lumotlarni o'qigan birinchi tinglovchiga qarab, birin-ketinlikda barchani tinglanadi. So'ng nutqi ravon bir ishtirokchidan qog'ozdagi asl nusxasini o'qib berish iltimos qilinadi. Shunda barcha guruhdagilar materialning qaysi qismlari so'zlashda tushib qolganini, o'zgarib ketganini sezadilar va izohlaydilar.

Maqsad: Tinglovchilarda qay darajada axborotni to'g'ri qabul qilish va yetkazish ko'nikmalari, tinglash, imo-ishora yordamida tasvirlab berish ko'nikmalari, yodda saqlab qolish qobiliyati borligini aniqlash va ushbu xususiyatlarni yanada rivojlantirish.

Kutilayotgan natija: Xotirani charxlash, nutq tinglayotganda e'tiborli bo'lish, axborot yetkazishda axborot qabul qiluvchining

eslab qolishiga ko'maklashish (imo-ishora, emotsional so'zlash orqali) lider uchun o'ta muhim xususiyatlar.

Guruh a'zolariga kelajakda lider talabalar bilan samarali ishlari uchun ko'mak berishga qaratilgan «Guruh a'zolari lider ko'zi bilan» ruknidagi tarqatma material beriladi. Bu materialda turli xarakterdagi insonlarga yakka (individual) tarzda yondashuv bo'yicha maslahatlar berilgan.

Qo'llaniladigan vositalar: doska, qog'oz, tarqatma materiallar.

14-mavzu. Nutq so'zlovchi ijodkor shaxs

Ushbu mashgulotni tabiat quchog'ida o'tkazish tavsiya qilinadi, chunki tabiat insonni ijodiy fikrlashga, xayol surishga va orzu qilishga undaydi. Inson qalbining tub-tubida yashirilgan «imkoniyatlarni», ya'ni qirralarini yuzaga chiqarishga turtki bo'ladi.

Vazifa: Relativ muhitda tinglovchilar mustaqil ijod qilib «Men...» so'zi ishlatilishi shart bo'lgan she'r yaratadilar. Bu vazifani bajarish uchun chegaralangan vaqt beriladi. Individual taqdimot mushoira davrasida o'tkazilish tavsiya etiladi. Imkoniyat bo'lsa, taqdimotni videotasmalarga tushirish yaxshi natija beradi.

Kutilayotgan natija: individual taqdimotlar va do'stlar olqishi tinglovchilarga ko'tarinki ruh bag'ishlab, o'zlarining ochilmagan imkoniyatlari ko'pligiga ishonch hosil qildiradi.

Qo'llaniladigan vositalar: videokamera.

15-mavzu. Notiq hamkorlik va raqobat muhitida

Nutq so'zlashda hamkorlik va raqobat tushunchalari katta ahamiyatga ega. Yoshlarda hamkorlikda, hamjihatlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Hayotda bir-birlarini qo'llab-quvvatlab, doimo yordam qo'lini cho'zishga tayyor bo'ladigan inson qilib tarbiyalash — o'qituvchining vazifasidir.

«Birga yig'ilmoq — bu boshlanish, birga o'qimoq — bu taraqqiyot, birga ishlamoq — bu muvaffaqiyat» (Genri Ford)

Hamkorlik bor joyda, raqobat ham bo'lishi mumkin. Raqobatga bardosh berish oson emas. Sog'lom raqobat taraqqiyot ruhini berar ekan, o'qituvchining vazifasi – o'quvchi - talabalarni raqobat muhitida raqobatdoshlik, xulq-atvorini nazorat qila olish ko'nikmalarini rivojlantirishdir.

Avvalambor, «Aqliy hujum» uslubi orqali «hamkorlik» va «raqobat»ning o'zi *nima* ekanligini bilib olamiz, so'ng *nima uchun* kerakligini aniqlaymiz.

Qanday qilib? hamkorlikda ishlash va sog'lom raqobat muhitini auditoriyada yaratish mumkinligini biz bir necha mashqlar misolida ko'rsatib beramiz.

Vazifa № 1: «5 harfli so'zlar»

Jamoa bo'lib ishlash. Har bir jamoaga qog'oz tarqatiladi. Jamoaning raqami belgilanadi va quyidagi vazifa beriladi: 1 daqiqa ichida 5 harfdan iborat bo'lgan ot so'z turkumiga kiruvchi birlikda, bosh kelishikda kelgan turdosh otlarni yozish. Vaqt tugagach, varaqlar jamoalararo almashiladi va tekshiriladi. Eng ko'p so'zlarni yozgan jamoa g'olib deb sanaladi.

Vazifa № 2: «12 harfli so'zlar»

Birinchi vazifadan farqli ularoq, 5 harfdan emas, balki 12 harfli so'zlarni yozish. (Shartlari saqlangan holda)

Vazifa № 3: «Baklashka»

Bu vazifa tinglovchilarning tadbirkorlik mahoratlarini sinashga mo'ljallangan. Auditoriyaga bo'sh baklashka ko'rsatiladi. 2 daqiqa ichida ular baklashkani hayotda qay maqsadda ishlatish mumkinligini aniqlaydilar. Eng ko'p ishlatish usullarini yozgan jamoa – g'olibdir.

Vazifa № 4: «Haykal»

Bu vazifa orqali siz o'zingizni ijodkor shaxs sifatida namoyon qilasiz? Auditoriyaga shahrimizning markazida haykal o'rnatish vazifasi beriladi. Jamoadagi bir kishi haykal rolini ijro etadi. Jamoadoshlari rulonli yumshoq qog'ozdan foydalanib, uni bir obrazga keltirib, haykal yasashadi. So'ng uni nomlab, izoh berib haykalning ochilish marosimini ham taqdim etadilar.

Vazifa № 5: «Toshbaqa»

Yuqorida aytib o'tilgan mashqdan qolgan qog'ozlar yordamida toshbaqa yasaladi. Unga nom beriladi va kichik hikoya tuziladi.

Kutilayotgan natija: jamoada hamkorlik ruhini oshirish, auditoriyani ishlatilgan qog'ozlardan "tozalash".

Talab etiladigan ko'nikmalar:

So'z boyligi

Qisqa vaqt ichida fikrlash

Dunyoqarash kengligi

Hayotiy tajriba

Ijodiy yondoshuv

Fantaziya

Notiqlik mahorati

Qo'llaniladigan vositalar: qog'oz, flomaster, marker, bakkalashka, rulonli yumshoq qog'oz.

16-mavzu. "Oddiy haqiqatlar" treningi

Hozirgi gipodinamiya zamonida oddiy haqiqatlarni unutmaslik haqida suhbat. Mehr-oqibat, kechirimlilik, loqayd bo'lmaslik, yaqin-birodarlarga e'tibor, shukronalik kabi hissiyotlarni birgalikda eslash.

Insonlar hamkorlikda faoliyat ko'rsatish jarayonida birbirlariga o'rganishadi, mehr qo'yishadi, birbirlariga ko'maklashib, qo'llab-quvvatlashadi. Inson bu hayotda hamma narsaga «to'yishi» mumkin ekan, lekin umrining oxirigacha bir tuyg'uga kuchli ehtiyoj sezadi. Bu tuyg'uning nomi —Mehr. Albatta, har bir insonning qalbida hamkoriga-do'stiga nisbatan iliq tuyg'ular, hissiyotlar paydo buladi. Mana shu his-tuyg'ularni yuzaga chiqarish, izhor etish ham insondan mahorat talab etadi.

Vazifa: har bir tinglovchiga A-4 formatidagi qog'oz beriladi, undan chiroyli taklifnoma yoki taqdimnoma yaratib, do'stiga maktub yozish tavsiya etiladi. Maktub turlicha nomlanishi mumkin: «Do'stinga maktub», «Dil izhorlarim», «Tabriknoma», «Taklifnoma» va h.

«Nomalar» zanjir uslubi yordamida taqdim etiladi, ya'ni ovoz chiqarib o'qilib, do'stiga hadya etiladi.

Falsafa: ba'zida biz juda yuqori darajadiga materiyalar haqida gaplashamiz, lekin oddiy haqiqatlarga e'tibor bermaymiz, unutamiz. Yoshlarni tarbiyasi bilan shug'ullanar ekanmiz, ularga har qanday vaziyatda ham insoniy fazilatlarini namoyon qilishlarini uqtirishimiz kerak.

Kutilayotgan natija: individual taqdimotlar va do'stlar olqishi tinglovchilarga ko'tarinki ruh bag'ishlab, bir-birlariga bo'lgan mehr-muhabbatlarini ochik izhor etib bog'langan rishtalarni hech qachon uzmaslikka, doimo bir-birlari bilan boglanib turishga va fikr almashib turishga qaror qilishadi.

Qo'llaniladigan vositalar: A-4 formatidagi qog'ozlar.

GLOSSARIY

Adabiy til – milliy tilning ma'lum qoidalariga bo'ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar va mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqalashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli.

Antonimiya – leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida guruhlanishi.

Antonimik juftlik – o'zaro qarama-qarshi ma'noli ikki so'z.

Asosiy qism – maqsad bayon qilinadigan, dalillanadigan, sharhlanadigan qism.

Auditoriya – axborot qabul qiluvchi.

Axborot (xabar) – ommaviy axborot vositalari va boshqa turli vositalar, belgilar, ishoralar yordamida yetkaziladigan, ma'lum qilinadigan, ko'rsatiladigan ma'lumot.

Besh "W" (Who, What, When, Where, Why) qoidasi – Kim?, Nima?, Qachon?, Qaerda?, Nimaga? savollari.

Verbal aloqa (lot. verbum - so'z) – til, ya'ni nutq yordamida muloqot qilish jaroyoni. Nutq deyilganda tabiiy til tovushlari nazarda tutiladi, u aloqaning universal vositasi hisoblanadi, chunki uning yordamida axborot uzatishda muloqot mazmuniga juda kam darajada putur yetadi.

Dialog (yunoncha) – 1) ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi so'zlashuv; dramatik asar nutqini tashkillashtirishning asosiy shakli; 2) so'zlashuv shaklida yozilgan adabiy asar.

Dalil – 1) mulohaza (yoki mulohazalar majmui), boshqa mulohaza (fikir, nazariya)ni asoslash uchun keltiriladi. 2) isbot-

ning asosi (asosining bir qismi). 3) jurnalistikada fikrning ishonchliligini ta'minlovchi asos.

Jumla – nutqning ikki pauza (to'xtam) orasidagi ohang butunligidir.

Jurnalist – jurnalistika faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs.

Jurnalistika – ijtimoiy dolzarb xabarlarini to'plash, qayta ishlash va tarqatishdan iborat ijtimoiy faoliyat (mazkur faoliyat matbuot, radio, televideniye va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi); ommaviy tashviqot va targ'ibot olib borish shakllaridan biri. Jurnalistika terminida jurnalistika faoliyati mahsuli – asarni ifoda etishda ham foydalaniladi, shulardan gazeta, jurnal sonlari to'ldiriladi, radio, teledasturlar va boshqalar tuziladi.

Jurnalistning eng asosiy qoidasi – o'z uslubida yozishi va aytishi.

Informatsiya – insonlar og'zaki, yozma va boshqa usulda beradigan ma'lumot (shartli ishoralar, texnik vositalar va hokazolar yordamida beriladi). Yana qarang **Axborot**

Kommunikator – axborot beruvchi.

Kommunikatsiya – xabar, aloqa.

Leksik so'z – leksik mazmunli so'z (leksema).

Lisoniy layoqat – o'z fikrlarini til orqali ifodalab berish.

Lisoniy qolip – ma'lum til qoidalaridan chetga chiqmaslik.

Metafora – predmetlar, hodisalar o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida ma'noning ko'chirilishi.

Metonimiya – narsa, hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik asosida ma'noning ko'chirilishi.

Milliy til – qayerda yashashidan qat'iy nazar, bir millatga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til.

Monolog – nutq ko'rinishi bo'lib, bir-biri bilan ma'no va grammatik jihatdan uzviy bog'liq bo'lgan va mantiqan mos keladigan gap qatorlaridan iborat bo'ladi.

Monosemiya – bir ma'nolilik hodisasi.

Notiqlik san'ati — ishontirish usullarini o'rgatuvchi fan.

Nutq — shaxs tomonidan til vositalaridan foydalangan holda fikr ifodalashi.

Nutqiy vaziyat — jurnalist faoliyatidagi muloqot jarayonida til vositalaridan foydalanish.

Nutqda yo'l gon ishlatish — notiqning o'zi ishonmagan narsalar (hodisalar, holatlar) haqida so'zlash holati.

Polisemiya — ko'p ma'nolilik hodisasi.

Sinekdoxa — butunning nomi bilan qismning yoki aksincha qismning nomi bilan butunning atalishi orqali yuz beradigan ma'noning ko'chirilishi.

Sinonimik qator (sinonimik uya) - bir ma'no anglatishiga ko'ra guruhlangan sinonim so'zlar yig'indisi.

Sinonimiya — leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishi.

So'z — nutqning alohida urqu bilan aytiladigan bo'lagi.

Termin (lot. — had, chegara) - 1) fan, texnika va san'atda — muayyan tushunchani aniq ifoda etuvchi so'z; 2) mantiqda — mulohazaning tarkibiy unsuri.

Til — kishilarning o'zaro muloqotga kirishish va fikr almashish vositasi.

Uslub — 1) muayyan qonuniyatlarga asoslangan usul, hayot va harakat tarzi. Shu ma'noda ijodiy uslublar haqida (Alisher Navoiy davri uslubi), madaniyat uslubi haqida, ayrim buyuk shaxslarning yashash uslubi haqida so'z boradi; 2) ijodkorning individual ifodasi.

Fakt (lot. faktum — ishlangan, yuz bergan) - 1) odatiy ma'noda — haqiqat, hodisa, natija tushunchalarining sinonimi; 2) ishonchliligini isbotlangan bilim; 3) mantiq va fan metodologiyasida — tajriba natijasida hosil bo'lgan bilim qayd etilgan jumla; 4) tahrirda — matndagi asos materiallar; 5) jurnalisti-kada — tadqiqot obyekti, narsa, voqea va hodisaning chin yoki yolg'onligini tasdiqlash uchun xizmat qiladi.

Ekstralingvistik omillar — tildan tashqari bo'lgan omillar.

Yuksak madaniyat (nutq so'zlashda) — “o'zimga qanday munosabat, muomalani ravo ko'rsam, auditoriyaga ham shuni ravo ko'raman” tamoyili asosida muomala qilish xususiyati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: (2011 yil 1 iyulgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. –T.: Adolat, 2011. – 276 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyotini va xalq farovonligi garovi. – T.: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga turamiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, Qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
7. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. –T.: Adolat, 2017.
8. Abdusaidov A. Jurnalistning tildan foydalanish mahorati. Monografiya. – Samarqand, 2004.
9. Ahmedov A. Notqlik san'ati. –T., 1967.
10. Begmatov E., Boboeva A., Asomiddinova I. Adabiy norma va nutq madaniyati. –T.: Fan, 1983.

11. Djin G. Skott. Sposoby razresheniya konfliktov. – Kiev: Vneshtorgizdat, 1991.
12. Jalilov X. Notqlik san'ati. -T., 1976.
13. Zaretskaya E.N. Ritorika. Teoriya i praktika rechevoy kommunikatsii. -M.: Delo, 1998.
14. Ivin A.A.. Ritorika. Iskustvo ubejdat. -M.:FAIR-PRESS, 2002.
15. Igolkina I. Taym menedjment – skazka o naydennom vremeni. – M.: Timesaver. www // Time-management.
16. Lebon Gyustav. Psixologiya tolq. -M.: KSP, 1999.
17. Karnegi D. Kak virabativat uverennost v sebe i vliyat na lyudey, vistupaya publichno. -M., 1990.
18. Marchenko O.I. Ritorika kak norma gumanitarnoy kul'turi. -M., 1994.
19. Panasyuk A.Yu. A chto u nego v podsoznaniyi/ -M., 1996.
20. Rahimova Z. M. Amir Temur va temuriylar davrida ma'naviy — ma'rifiy tarbiyaning rivoji // Molodoy uchoni. — 2016. — № 15.3. — 14-15-b.
21. Rahmatullaev Sh. Nutqimiz ko'rki. -T.:1970.
22. Sa'dullaev S.D. Yazik i stil sredstv massovoy informatsiyi.- T.: 2002.
23. Siddiq Mo'min. So'zlashish san'ati.-Farg'ona. -1997.
24. Soper Pol L. Osnovi iskusstva rechi. -M., 1992.
25. Spinoza B. Etika. -SPb., 1993.
26. Tojiev E., Xasanova N., Saidova R., Yo'ldosheva O. O'zbek nutq madaniyati va uslubiyat asoslari amaliyoti. -T.: 1994.
27. Toshaliyev I., Abdusattorov R., Maxmudova S. Ommaviy axborot vositalarining tili va uslubi. Jurnalistika ta'limi uchun ma'ruzalar matni. - T. : Universitet. -2000.
28. Formanovskaya N.I. Vi skazali: "Zdravstvuyte!" (Rechevoy etiket v nashem obshchenii.) -M., 1982.
29. Xo'jaeva L. Lektor va so'z san'ati. -T.: 1967.
30. Xo'jaeva L. Notqlik san'ati. -T.: 1975.

31. Shomaqsudova S.X. Notqliksan'ati sirlari. //O'zbekiston matbuoti.-T., 2013, № 4.-48-49-bb.
32. O'rinboev B., Soliev A. Notqlik mahorati. -T.: 1984.
33. Qudratov.T. Nutq madaniyati asoslari. –T.: O'qituvchi. 1993.
34. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev E. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. - T.: 1992.
35. Elkonkin D.V. Psixologiya igri. – M., 1997.
36. Media and Communication. - New and Key Titles 2013. // www.routledge.com/media.
37. Thomas George, Surjit Singh. Human Resource Development in Organisations.-Malayziya, Kuala Lumpur, 2000.
38. Thomas George. Creating High Performance Teams.- Malayziya, Kuala Lumpur: INTAN, 2005.
39. Ian Hutchby. Media Talk (Conversation Analysis and the Study of Broadcasting). New York, 2006. Page 19.

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI	3
I BOB. NOTIQLIK SAN'ATINING TARIXIY TADRIJI	5
NOTIQLIK SAN'ATI TARIXI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	5
NOTIQLIK SAN'ATINING TASNIFI.....	32
NUTQ MAQSADINI ANIQLASH VA REJASINI TUZISH, MAVZU TANLASH.....	37
MA'RUZA MATNLARINI TAYYORLASH.....	43
HOZIRGI ZAMON NOTIQLIGI.....	50
II.BOB. NOTIQ MEHNATINING PSIXOLOGİYASI	56
NUTQNING AXLOQIYLIGI – MUVAFFAQIYAT GAROVI.....	56
OMMAVIY NUTQ REJASINI TUZISHDA KESISHUV MAKONINI TOPISH.....	60
MULOQOTDA MUROSA QILISH SAN'ATI.....	64
NOLISONIY MULOQOT – NUTQNING KO'RKI.....	69
III.BOB NOTIQLIKDA TILGA E'TIBOR	78
ALISHER NAVOIY VA BOBUR MIRZO NOTIQLIKNING INSON KAMOLOTIDAGI AHAMIYATI BORASIDA.....	78
NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI.....	83

OMMAVIY NUTQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHDA SITATALAR, IBORALAR, MAQOL, HIKMATLI SO'ZLARNING O'RNI.....	95
YOZMA MATN, OG'ZAKI NUTQDA VAZIFAVIY USLUBLARNING O'RNI.....	100
IV BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA NUTQIY MAHORATNI OSHIRUVCHI TRENINGLAR.....	109
GLOSSARIY.....	142
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	146

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**Mukaddas Irgashevna Israil
Latofat Ismatovna Tashmuxamedova**

NOTIQLIK SAN‘ATI

O‘QUV QO‘LLANMA

“Noshir” – Toshkent – 2019

Muharrir: *N.Norova*
Tex. muharrir: *D.Safayeva*
Rassom: *Sh.Odilov*
Sahifalovchi: *R.Xidoyatov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 254, 31.12.2014-y.

Bosishga ruxsat etildi 20.11.2019-yil.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. «Uz-Time» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 9,5.

Nashriyot bosma tabog'i 9,5. Adadi 200. Buyurtma № 31

«Noshir» QK nashriyoti, 100020,

Toshkent sh., Langar ko'chasi, 78.

«Noshir» O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonasida bosildi.


100020, Toshkent sh., Langar ko'chasi, 78.

39 406

44
I-82

M.I. ISRAIL,
L.I. TASHMUXAMEDOVA

NOTIQLIK SAN'ATI



ISBN 978-9943-5485-1-0



9 789943 548510